

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02.**

RAQAMLI ILMIY KENGASH
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 801;82-14

SULEYMANOVA SEVARA ABDUMALIKOVNA

**HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA BADIY PSIXOLOGIZM: USLUB
VA JANR UYG'UNLIGI**

(Luqmon Bo'rixon qissalari misolida)

10.00.02 –O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Sh.I.Botirova

Jizzax – 2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O‘ZBEK NASRIDA BADIY PSIXOLOGIZM GENEZISI VA AKS ETISH TAMOYILLARI.....	11
1.1.-§. Qissa janri tabiati va uning badiiylik moduslari.....	11
1.2.-§. Qissa janrida badiiy psixologizm yo‘sinlari va tadriji.....	28
Bob bo‘yicha xulosalar.....	44
II BOB. BADIY PSIXOLOGIZM SYUJET VA KOMPOZITSIYANI UYG‘UNLASHTIRUVCHI UNSUR SIFATIDA.....	46
2.1.-§. Syujetning voqelikni yuzaga chiqarishida psixologik vaziyat.....	46
2.2.-§. L.Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” qissasida yozuvchining ruhiy tahlil mahorati.....	65
Bob bo‘yicha xulosalar.....	84
III BOB. BADIY ASARDA XRONOTOP VA PSIXOLOGIK TAHLIL UYG‘UNLIGI.....	86
3.1.-§. L.Bo‘rixon qissalarida xronotop va retrospektiv syujet badiiyati.....	86
3.2.-§. Qissada xronotopik vaziyatlar va ularning sintezi.....	103
Bob bo‘yicha xulosalar.....	121
UMUMIY XULOSA.....	123
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	125

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida badiiy asarlarni chuqur talqin etish, ularning poetik qimmatini anglash orqali ijodkor uslubini belgilash borasida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Epik turning o‘rta janri sanalgan qissada psixologizm xususiyatlarining namoyon bo‘lishi, uning shakl va mazmun jihatlari, g‘oyaviy-estetik yo‘nalishini o‘rganish zamonaviy adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda dunyo adabiy jarayonlarida kechayotgan o‘zgarishlar poetik matnning tuzilish prinsiplarini muntazam yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda, mazkur nazariy yondashuvlar qissa janri badiiyatida psixologik tahlilning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish, insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va tuyg‘ulari qanday ifodalanishiga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Dunyo miqyosida millatlar va elatlar o‘rtasidagi ma‘naviy chegaralarni yaqinlashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar shakllanib, taraqqiyot sur‘atining tezlashishi bilan inson ongi va ruhiyatini chuqur o‘rganish zaruriyati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, badiiy tafakkurdagi ruhiy jarayonlarni talqin etishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, nasriy badiiy izlanishlar, ayniqsa, psixologizmga asoslangan tahliliy uslubning tobora rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Postmodern tafakkur ta‘sirida badiiy idrok yangilanib, insonni anglashning zamonaviy mexanizmlari shakllanar ekan, qissa janrida inson ichki dunyosi va ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi zamonaviy adabiyotshunoslikda ruhiy talqinga oid nazariy izlanishlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda adabiyot, ma‘naviyat va madaniyatga qaratilayotgan e‘tiborning samarasi o‘laroq, badiiy tafakkurda yangi usullar, ruhiy tahlil va estetik izlanishlar keng qo‘llanilmoqda. Buning natijasida milliy nasrimizda o‘z uslubi, ovozi va poetik manerasi bilan ajralib turadigan qator ijodkorlarning sara asarlari dunyo yuzini ko‘ra boshladi. Shu ma‘noda,

adabiyotshunosligimiz tomonidan Luqmon Bo'rixon ijodini badiiyat va uslub nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning asarlarida zamonaviy insonning ruhiy holati qanday ifoda topganini ochish va buni syujet bilan qanday bog'langanini anglash muhim masala bo'lib qolmoqda. "Asrlar davomida komil inson tarbiyasi, adolatli jamiyat, shaxs erkinligi, Vatan ozodligi, bunyodkorlik, bag'rikenglik va baynalmilalchilik, odamiylik kabi o'lmas fazilatlarni tarannum etib kelayotgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning eng sara namunalarini"¹ tahlil etishda ijodkorlarning uslubiy o'ziga xosligi, ruhiy tahlil borasidagi mahorati, insonni anglashga qaratilgan hayotiy muammolarni poetik gavdalandira olish masalalari muhim ilmiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqdaki, bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. <https://president.uz/uz/lists/view/856>

huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotshunosligi xazinasida qissaning poetik qiymatiga oid qator tadqiqotlar yaratilgan. Yunon olimi Aristotelning "Poetika" asari epik turning o'rta janrlariga oid qarashlarning ilk debochasi hisoblanadi².

Rus adabiyotshunosligida A.A.Potebnya, D.N.Ovsiyanko-Kulikovskiy, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtinlarning psixoanalitik, V.Shklovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Y.N.Tinyanov, G.O.Vinokur, R.Bart, Y.Lotman, D.D.Lukich, A.G.Kovalev kabi ilmiy-nazariy maktab vakillarining tadqiqotlarida qissachilikda badiiy psixologizm, ijodkor shaxsi, badiiy tafakkur va ifoda vositalari tahlil qilingan bo'lib, ular ingliz, rus, turk yozuvchilari ijodini talqin qilish orqali asoslantirilgan izlanishlar hisoblanadi³.

O'zbek adabiyotshunosligida esa M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Umurov, D.To'rayev, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, U.Jo'raqulov, I.Yoqubov, B.Karimov, Z.Pardayeva, M.Boboxonov, Sh.Doniyorova, U.Rasulova, Sh.Botirova, D.Toshpulatova kabi ko'plab adabiyotshunos va tanqidchilarning tadqiqotlarida qissa janrining ma'lum qirralari – janr poetikasi, obraz tizimi, mualliflik uslubi, ijtimoiy-mafkuraviy vazifasi kabi masalalar yoritilgan⁴. Biroq keyingi yillar o'zbek qissalarida badiiy

² Аристотель. Поэтика. – М.: Искусство, 1985. – 144 с.

³ Потебня А. А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. –616 с.; Овсянко-Куликовский Д.Н. «Литературно-критические работы», –М., «Художественная литература», 1989, т. 2, –422 с.; Выготский Л. С. Собрание сочинений: В 6 т. Т. 3. –М.: Педагогика, 1983. – 68 с.; Бахтин М.М. Эпос и роман: К типологии художественного слова // Вопросы литературы. – 1970. – №1. – С. 3-25; Шкловский В. Теория прозы. – М.: Художественная литература, 1990. –303 с; Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. –М., Гослитиздат, 1961. –226 с.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. –Л.: Наука, 1977. –С. 404; Тынянов Ю.Н. Поэтика. Истроия литературы. Кино. М., 1977. –202 с.; Винокур Г.О. Критика поэтического текста. –М., 1927. –134 с.; Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов// Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв.: Трактаты. Статьи Эссе. – М.: 1987. –С. 407; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 384 с.; Лукич Д. Теория романа. – Варшава, 1963, – С. 229; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Л.: ЛГУ, 1960. – С. 214.

⁴ Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдик. Биринчи жилд. –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 382; Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983; Норматов У. Насримиз тамойиллари. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978; Ўша муаллиф. Умидбахш тамойиллар. –Тошкент: Маънавият, 2000; Назаров Б. Бу сеҳрли дунё.

psixologizm va uning uslub-janr uyg'unligi alohida ilmiy tadqiq obyekti sifatida izchil o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Yangi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizmning namoyon bo'lish xususiyatlarini yozuvchi Luqmon Bo'rixon ijodi misolida uslub va janr uyg'unligi, badiiy mahorat, individual ijodiy konsepsiya hamda psixologik talqinning o'ziga xos qirralarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon adabiyotida qissa janrining shakllanish tarixi (genezisi) va uning o'zbek adabiyotiga ta'sirini XX asr yozuvchilari ijodi misolida qiyosiy-tipologik tahlil qilish hamda hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizm, uslub va janr uyg'unligini badiiy mahorat, syujet va kompozitsion yaxlitlik, ijodkor konsepsiyasi nuqtayi nazaridan xorijiy va milliy adabiyotshunoslik tamoyillari asosida ochib berish;

Luqmon Bo'rixon qissalaridagi ruhiy tahlilni mustaqil badiiy muammo sifatida ko'rib chiqish, undagi o'zbek adabiyoti uchun xos bo'lgan ifodaviy uslub, so'z qurish mahoratlari, kinoyaviy va parodik elementlarning individual qiyofasini ochib berish, syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi hamda ifoda madaniyatida jahon adabiy an'analari ta'sirini va poetik elementlar modusini tahlil qilish;

– Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ. 2007; Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги замон ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983; Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: "Чўлпон", 2002; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. – Тошкент: Фан, 1994; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2003; Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: "Ғ.Ғулом нашриёти" НМИУ, 2015; Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Ёқубов И. Мустақиллик даври романлари поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, ЎзТА ва ФИ, 2018; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссаларида психологизм. Филол. фан. номз. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2012; Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2012, Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография / Б.Карим. – Тошкент: Akademnashr, 2014. - 256 б. Ботрова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадий психологизм. Филол. фан. номз. Дисс. автореф. – Қарши, 2019; Тошпулатова Д. Замонавий ўзбек насрида муаллиф онги ва уни ифодалаш шакллари. Филол. фан. номз. Дисс. автореф. – Жиззах, 2021.

adib uslubiga xos tanqidiy-realistik uslubni kinoyaviy talqinda baholash, qissa poetikasini shakllantirishda biografik metodning esselashuv jarayoni orqali namoyon bo'lish xususiyatlarini ochish hamda bu jarayonda A.Kamyu va F.Kafka an'analarining ta'sirini o'zbek adabiyoti misolida ilmiy asoslash;

Luqmon Bo'rixon nasrida badiiy psixologizm muammosi va ijodkor konsepsiyasining evolyutsion rivojlanishida mahorat va tajribaning o'rnini yoritish, shuningdek, badiiy syujet va kompozitsiyaning xronotop bilan uzviy bog'liq jihatlarini tahlil etish orqali uni muhim poetik atribut sifatida tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim", "Quyosh hali botmagan", "Bir tomchi yosh" va "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" kabi qissalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini yozuvchining qissa janrida badiiy psixologizmni ifodalashda qo'llagan individual uslubiy vositalari, ruhiy tahlil uslubi, syujet va kompozitsion struktura, shuningdek, muallif konsepsiyasining badiiy ifodasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktural, biografik, germeneytik va psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi o'zbek adabiyotida badiiy psixologizmning janr va uslub uyg'unligi masalasi Luqmon Bo'rixon ijodi misolida tizimli ravishda ochib berilgan;

adib qissalaridagi ruhiy tahlil va biografik elementlarning A.Kamyu, F.Kafka an'analaridagi poetik unsurlar bilan bog'liqligi ilk bor qiyosiy talqin asosida asoslangan;

badiiy xronotop poetikasi bilan psixologizm o'rtasidagi uyg'unlik, syujetning takomillashuv jarayoni va xronotop shakllarining namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlangan;

Luqmon Bo'rixon qalamiga xos tanqidiy-realistik yo'nalish va uning badiiy tafakkurida kinoyaviy-idrok uslubning shakllanish bosqichlari sifatida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Luqmon Bo'rixon qissalarining poetik xususiyatlari, xususan, badiiy psixologizm, syujet-kompozitsion qurilish va ruhiy tahlil vositalari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinib, adib uslubiga xos xususiyatlar aniqlashtirilgan;

adib ijodidagi individual estetik qarashlar, tanqidiy-realistik yondashuv, biografik metod va ruhiy dramatizmning badiiy ifodasi yuzasidan umumlashtiruvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan;

o'zbek nasrida badiiy psixologizmni o'rganish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan tipologik tahlil, qiyosiy-adabiy yondashuv, syujet dinamikasini o'rganishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar respublikamiz va jahon olimlarining nazariy qarashlariga tayangan holda, ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqola va tezislar bilan mustahkamlanganligi, dissertatsiya vazifalariga mos keluvchi zamonaviy adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida izchil qo'llanilgan usullar orqali tahlil va talqin etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizm, uslub va janr uyg'unligi muammolarini o'zida mujassam etgan adabiy-badiiy jarayonlarni nazariy jihatdan yoritish, shuningdek, yozuvchi Luqmon Bo'rixon qissalarida inson ruhiyati, muallif konsepsiyasi va badiiy tafakkurning poetik shakllanish mexanizmlarini ochib berish orqali o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan "Yangi o'zbek adabiyoti", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Qiyosiy adabiyotshunoslik" va "Jahon adabiyoti" kabi fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirishda, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizmning janr va uslub uyg'unligi doirasidagi tadqiq asosida:

hozirgi o'zbek adabiyotida badiiy psixologizmning janr va uslub uyg'unligi masalasi Luqmon Bo'rixon ijodi misolida tizimli ravishda ochib berilganligi borasidagi xulosalari "Detskaya literatura" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-buyrug'iga muvofiq 232-409-son nashr ruxsatnomasi). Natijada ushbu qo'llanmaning yangi ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan.

adib qissalaridagi ruhiy tahlil va biografik elementlarning A.Kamyu, F.Kafka an'analariidagi poetik unsurlar bilan bog'liqligi ilk bor qiyosiy talqin asosida chiqarilgan xulosalaridan Erasmus+ dasturining 561624-EPP-1-2015-UKEPPKA2-CBHE-SP-IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash va xalqaro integratsiyasini rivojlantirish" nomli xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 3-martdagi 615/02-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu loyiha asosida nashr qilingan ishlarning mazmuniy mundarijasini boyitishga xizmat qilgan.

badiiy xronotop poetikasi bilan psixologizm o'rtasidagi uyg'unlik, syujetning takomillashuv jarayoni va xronotop shakllarining namoyon bo'lishi haqidagi xulosalardan "Detskaya literatura" nomli o'quv qo'llanmani yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-buyrug'iga muvofiq 232-409-son nashr ruxsatnomasi). Natijada qo'llanmaning yangi manbalar, dalillar bilan boyitilishiga erishilgan.

Luqmon Bo'rixon qalamiga xos tanqidiy-realistik yo'nalish va uning badiiy tafakkurida kinoyaviy-idrok uslubning shakllanish bosqichlari to'g'risidagi xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022–2024-yillarda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "English Access Microscholarship Program" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 3-martdagi 614/02-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning didaktik mazmuni badiiy

psixologizm, muallif konsepsiyasi va uning nazmiy tafakkurdagi aksini yorituvchi g'oyalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O‘ZBEK NASRIDA BADIY PSIXOLOGIZM GENEZISI BA AKS ETISH TAMOYILLARI

1.1. -§. Qissa janri tabiati va uning badiiylik moduslari

Ma'lumki, har qanday ijodkor ruhiy olamidan sizib chiqayotgan haroratli, obrazli badiiy tafakkur psixologik nuqtayi nazaridan keng va tor adabiy tushunchalar qamrovini uyg'unlikda idrok etish mohiyatini ilgari suradi. Eng qadimgi davrlardan buyon so'z san'atining tub mohiyati tashqi olam va ichki botiniy olam asrorlarini chandon bilishga qiziqish har bir davrning amaliy ehtiyojlari o'laroq takomillashib boradi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Negaki, poetik tafakkur besarhad bir olamning muayyan manzarasini idroklashga xizmat qilar ekan, yozuvchining o'sha chiqqan balandligi o'zidan keyin qay darajada yashab qolganligi bilan ham o'lchanadi, albatta! Chunki xarakter-inson-ruhiyat-hayot birligi shularni keng istifoda etishga imkon beradi. Ruh ilmi bilan bog'liq har qanday badiiy asar muayyan bir qismning negizida shakllanadi. Romandan kichik, hikoyadan katta janrning modifikatsion tamoyili juda katta epik ko'lamni qamrashi mumkin emas. Jamiyat ichkarisidagi inson shaxsining muammolari, turli millat va xalqlarning o'zaro adabiy-badiiy aloqalari, G'arb-u Sharq an'analarining sinovdan o'tgan tasvir ifodalari bularning barchasini sintelizatsiya qilish negizida takomillashib borishi tayin. Tarixga e'tibor beraylik: XX asr boshlarida adabiyotdagi sinfiylik va sosrealizmning barcha jabhalarga suqishtirilishi chinakam iste'dodlarning o'z o'rniga ega bo'lmasligiga olib keldi. Bu haqda shunday mulohazalar mavjud: "Ma'rifatparvarlik prozasi uchun hayotiy va ijtimoiy masalalarni keng ko'lamda, dunyo miqyosida qo'yish va tasvirlash xarakterlidir. Inqilob oldi adabiyotida Turkistonning hayoti bilan bir qatorda boshqa xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odatlari badiiy aks ettirildi. Ma'rifatparvar yozuvchilarning asarlarida rus, ozarbayjon, tatar, Yevropa, hattoki Amerika va Yaponiya xalqlarining turmushi ham tilga olindi. Ularning qahramonlari Rossiya, Yevropa, Amerikada va boshqa yerlarda yashaydigan turli mamlakatlariga borib, ta'lim oladi va malakasini oshiradi. Turkiston xalqlari turmushi umumbashariy hayotning bir qismi sifatida tasvirlanadi. Bu hol

ma'rifatparvarlik prozasining epik janrida yozilgan asarlarning eng yirik yutuqlaridan edi. Proza janridagi asarlarda hayot keng ko'lamda va butun murakkabligi bilan muayyan bir falsafiy konsepsiya nuqtayi nazaridan badiiy aks ettiriladi".⁵ Haqiqat shuki, davrning ayanchli manzaralari – kolxozlashtirish, ishchi kuchi yaratish maqsadida kolonial hukm surgan kayfiyat millatimizning irodasini bukib va tiyib turishdan boshqasiga yaralgan emas. Orol dengizining kunpayakun qurib, cho'lga aylanishi, qanchadan-qancha yerlarning o'zlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan ekologik fojeliq bizning mentalitetimizda alohida iz qoldirgani bejiz emas. Sho'rolar siyosatining olib borilgan maxfiy ishlari natijasida bugun butun dunyo aholisi ekologik fojeliqdan aziyat chekmoqda. Odamlarning kasalliklari turlari kundan-kunga oshib borishi fikrimizni to'laqonli dalolatlaydi. Bu sirli siyosatning botqog'iga botib ketgan Markaziy Osiyo mintaqasida – ruhiy ekologik fojeliq yuzaga keldi. Mana shu fojeaning boshlanishi XX asr boshlarida "Obid ketmon", "Shum bola" qissalarida o'ziga xos tarzda aks etganligining guvohi bo'lamiz.

Qissa janrining idrokida hamisha ruhiyat bilan bog'liq muammolar bo'lishini e'tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o'rganilishi biz olib borgan tadqiqotning o'lchovlariga unchalik to'g'ri kelmasligi aniq. Chunki XX asrning 20-yillaridan boshlangan sinfiylik va konfliktsizlik nazariyasi, ikkinchidan, sho'ro siyosatining tutumlari masalaga teran kirib borish imkonini chegaralab qo'ygandi. 60-yillardan keyingina erkinlik shabadalari (unda ham to'laqonli tamoyil emas!) muammoga aynanlik nuqtayi nazaridan borishga imkon bera boshladi. Unda ham sobiq ittifoq hududlarida yashab ijod qilgan, temir qonuniyat negizidan tashqariga unchalik erkin chiqa olmagan yozuvchilar ko'pincha urush va uning salbiy oqibatlarini yuzaga chiqarishning uddasidan chiqa oldi xolos! Ch.Aytmatovning "Jamila", O.Yoqubovning "Muqaddas", P.Qodirovning "Erk", "Qadrim", O'.Umarbekovning "Sevgim, sevgilim", Sh.Xolmirzayevning "To'lqinlar", O'.Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" kabi o'nlab qissalarda o'sha davrning

⁵ Б.Назаров. Адабий турлар ва жанрлар. –Тошкент: Фан, 1991.1 –Б.36.

odamlari ruhiyatidagi katta-kichik evrilishlar, o'zlikni tanish, oila va shaxslararo munosabatlar talqini shular jumlasidandir. 70-yillardan keyingi M.M.Do'st, E.A'zam, A.A'zam, A.Dilmurod kabi yozuvchilar uslubida tamomila boshqacha obrazlar sistemasi talqini yuzaga kela boshladi. Nihoyat 90-yillardan keyin badiiy adabiyotda shaxsning o'zini tasvirlash, o'zining muammolarini turli usul va yo'sinlarda namoyish qilish an'anasi o'lchov tig'izligini ranginlashtirdi. Bularning ko'pchiligi yangi odam obrazini ruhiy talqin qilish masalasiga sho'ng'ib ketishi kuzatiladi. Demak, muammoga turli davrlar dunyoqarashi, amaldagi kuchlar taqdimnomasidek baholash ishonchini oqlashi tayin.

Qissa janri poetikasi bilan mufassal shug'ullangan dots.M.Boboxonov qayd etishicha: "XX asrning 20-30-yillaridan 60-yillarigacha psixologizm muammosi sho'ro yozuvchilari va adabiyotshunoslarining diqqat markazida bo'lib keldi. Agar inqilobdan keyingi fanda psixologizm haqida badiiy metod, an'ana va novatorlik rakurslaridan turib bahs yuritilgan bo'lsa, 70-80-yillaridan boshlab muammoni nazariy va tarixiy jihatdan anglash yo'liga o'tildi. Shunday bo'lsa ham, nuqtayi nazarning ko'pligi va qarama-qarshiligi hozirgi kungacha badiiy psixologizmning aniq tavsifini, tushuncha sarhadlarini hamda yaxlit konsepsiyasini ishlab chiqishga imkon bergani yo'q"⁶. Keltirilgan nazariy masalaga qo'shimcha ravishda shuni qayd etish lozimki, qissada ham xuddi roman yoki epopeya singari tirik va jonli dialogik muloqot ifodasi mavjud. Unda ham odamlar harakatlanadi. Masala shundayki, qay darajada yozuvchi o'zi mansub davrning, jamiyatning og'riqlarini, muammolarini, yutuq va nuqsonlarini teran ifodalay oladi, deyish mumkin. Muammo shundaki, yozuvchi o'zining ruhiy olamida qay darajada inson konsepsiyasini anglashga qurbi idroki yetadi? O'zi yaratgan badiiy olamining universal modelini dasturlay oladimi? Boshqaruvchi sifatida qahramonlarining tabiatidagi uzil-kesil o'zgarishlarni teran ifodalashga lozim yo'l topa biladimi? Mana shu savollar tegrasida yana bir qancha mutaxassisni o'ylantiradigan muammolar turibdi. Demak, yozuvchi qaysi davrda istiqomat qilmasin, qaysi davrning og'riqlariga malham bo'lishni o'ylamasin, tabiatida ezgulik tantana

⁶ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. Монография. –Тошкент: Баёз, 2014. –Б.9.

etishiga ishonch hosil qilishi muhim. Axir, badiiylarning sharti shunday: yovuzlik va razillikning ustidan zafar qozonish “maqsad va natija” tomon siljish emasmi? Mana shu tamoyilga diqqat qilinsa hozirgi o‘zbek nasrnavislarining G‘arb va Sharq an‘analarini juda chuqur sinteziga ergashish manzarasi yuzaga chiqadi. Chunonchi, dostonlarimizdagi epik ko‘lam (obraz va shartlilik) oxirida yovuzlik ustidan qilingan mutlaq g‘alaba singari xotiramizda abadiy muhrlanishi haq gap.

XX asr adabiyotshunosligida qissa poetikasiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarda hayot haqiqati va inson konsepsiyasi muhim muammo sifatida o‘rganilgan⁷. Prof. U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, N.Xudaybergenov va Q.Yo‘ldoshevlarning olib borgan tadqiqotlarida masalaning u yoki bu jihatlari davrlar silsilasidagi poetik o‘zgarishlar fonida talqin qilingani ayni haqiqatdir. Bu tadqiqotlarning ko‘pchiligi o‘sha davr nuqtayi nazaridan talqin qilinib, o‘z ilmiy bahosini oldi.

O‘tgan davr mobaynida yozuvchilar badiiy asarni o‘rganishda uchta tamoyilga diqqat qaratishgan:

1. Yozuvchi jamiyat muammolarini ifodalash masalasini qay darajada hal eta oldi. 2. Hayotiy haqiqatga mos kelishi qay darajada ifodasini topgan. 3. Tabiatning bir uzvi (kolxozlashtirish siyosatiga qay darajada o‘z hissasini qo‘sha oldi) bo‘lgan maishiy turmush an‘analarini to‘laqonli namoyon qilishga qurbi yetadimi. Mana shu uchta konsepsiyaga javob bergan yozuvchi badiiy izlanishlari munosib baholanib, o‘quvchilarga o‘qilishi muhim bo‘lgan badiiy chizgilar (asarlar) sifatida taqdim qilingan. Bu zinhor o‘zining ishonchini oqlaydigan ish emas. Chunki bir yoqlama talqin va tadqiq ham alal oqibatda nasrning badiiy qiymatiga zomin bo‘lishi muhimligini bugungi kun ijtimoiy-madaniy hayot isbotini berib turibdi.

XX asrning 60-yillarida Qodiriyshunoslik, Cho‘lponshunoslik, Oybekshunoslik va Qahhorshunoslik o‘zining ilmiy manerasini boshlab berdi. Davrning nohaq qurboni bo‘lgan zamondoshlar obrazi akademiklar: I.Sultonov,

⁷ Каримов Х. Хозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси(70-80 йиллар). Филол.фан. д-ри.дисс. –Тошкент, 1994.

S.Mamajanov, N.Karimov, I.G‘afurov, B.Nazarov; adabiyotshunos olimlar: M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, E.Karimov, U.Normatov, N.Shukurov, S.Mirvaliyev, A.Rasulov, B.Sarimsoqov, N.Xudaybergenov va boshqa yosh mutaxassislarning ayrim tadqiqotlari qissa janri badiiyatiga xos qator masalalarning talqiniga bag‘ishlab yozilganligi yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni to‘laqonli quvvatlaydi. Negaki, yozuvchi va davr muammosi eng muhim hayotiy muammo sifatida qaralar, sinfiylik nuqtayi nazaridan baholanar, sobiq ittifoq mafkurasiga qanchalik foydasi tegishiga diqqat qaratilardi. Ayni paytda, shu kabi muammolarni badiiy asarga olib kira olmagan yozuvchilar keskin tanqidiy muhokamalarga sabab bo‘lardi. Bugungi kunda bunday biryoqlamalik tamoyili sifatning baholanishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Endilikda odamlarning individual dunyoqarashi talqin metodologiyasining asosiy richagi sifatida keng ko‘lamli ifoda madaniyatining rang-baranglashuviga keng zamin hozirladi.

Ayonki, har qanday janrning o‘z ifoda imkoniyatlarini umumlashtiruvchi qonuniyatlari bo‘ladi. Adabiyotshunoslikka oid terminlar lug‘atida: “Qissa (ar.hikoyat, sarguzasht) – 1) xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagi, qahramon hayoti va sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyaviy asar. Xalq ijodidagi qissalar og‘zaki ijro qilingan folklorning boshqa janrlari kabi variantlilik xususiyatiga ega bo‘lgan. Keyinchalik ko‘plab xalq qissalari iqtidorli kishilar tomonidan (ko‘p hollarda ularning ismi noma’lumligicha qolgan, adabiy qayta ishlanib, yozma shaklda – xalq kitoblari sifatida yashay boshlagan (mas. “Qissai Mashrab”, “Ibrohim Adham qissasi”, “Zufunun qissasi”. O‘zbek adabiyotida payg‘ambarlar va avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi rivoyaviy asarlar ham qissa deb atalgan. (mas. “Rabg‘uziy. “Qissas-ul-anbiyo”, Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”). Adabiyotshunoslikda qissa bilan povest terminlarining qo‘llanilishi turlicha: ularni sinonim sifatida ham, boshqa-boshqa janrlar sifatida ham tushunish kengroq ommalashgan. Hozirgi o‘zbek adabiyotida qissa faol epik janrlardan sanalib, XX asr davomida o‘zbek qissachiligi jiddiy

muvaffaqiyatlarga erishdi⁸. Darhaqiqat, qissachilikning tadrijiy takomili sifat o'zgarishlariga erishishda A.Qodiriydan boshlab shu kunga qadar qariyb yuz yillik ijodiy tajribani o'zlashtirgani sir emas. Alisher Navoiy, Bobur va boshqa mumtoz shoirlar epik ko'lam va tasvir metodlarida qissaxonlik tamoyillarining ham mukammallashuviga jiddiy hissa qo'shgani hech kimga sir emas. Chunki qissa muntazam evrilishda va rivojlanish yo'lidam ildam ilgarilab bormoqda. Natijada, G'arb sentimentalizmi, ekzistensializmi, modernizm va postmodernizm kabi adabiy oqimlar janrning muhim tomonlarini o'zarishiga katta ta'sir qilgani, bu borada qissada – esselashuv jarayonining aks etishi muhim bir bosqich sifatida qaralmoqda.

Qissa poetikasida psixologik tasvir takomillashuvi. Qissa janrining kelib chiqish ildizlari o'zbek adabiyotida folklor asarlaridagi epik tasvir talqinlarida yuzaga kelganligini inkor qilib bo'lmaydi. Unda qahramonlikning ulug'vor qiyofasi, (Alpomish) mardlik va olijanoblikning tantanasi eng muhim shartlaridan biri ekanligi ayonlashadi. Shunday ekan, ilk qissa Allohning muqaddas kalomi – “Qur'oni karim”dagi payg'ambarlar haqidagi qissalar, Otam Ato va Momo Havo to'g'risidagi ibratli rivoyatlar bilan belgilanadi. XIII asrning noyob asarlaridan biri – N.Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'u'ziy”dagi qissalar janrning yanada takomillashuviga keng imkon tug'dirdi. Keyinchalik Yevropa, Amerika, Rus va Sharq adabiyotida qissa (povest)ning o'ziga xos shakllari namoyon bo'la boshladi.

Prof.U.Rasulova: “Farishta (ilohiy nur), ruh hamda vujud (nutfa) borasidagi ilmi avvalda arshi a'lo, kurrai zamin makoni qamrab olinadi. Qur'ondagi shar'iy ahkom bilan qissalarning uyg'unligida insonga yuborilgan sinovga ishora kuzatiladi. Bu qissalar ma'lum surada izchil, ayrim oyatlarda jamlanib, muayyan payg'ambar fazli, karomatidan boxabar etadi. Faqat ”Yusuf” surasida payg'ambar qismati yaxlit tarzda tizimli qamrab olinadi. “Baqara” surasida Odam alayhissalom hamda Momo Havoning jannat saodati, iblis nayrangli sinoati zamirida ilk bor imon va kufr ziddiyatiga urg'u beriladi. Suraning ma'lum o'rnida muqaddas farishta,

⁸ Курунов Д. ва .бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.388.

ojiz inson, makkor shayton – uch yaratiqning mohiyati teran mantiq asosida uqtirib borilgan”.⁹ Darhaqiqat, qissalarda 124 ming payg‘ambar kelgani, shulardan 313 tasi rasul qolgani nabiy, ya’ni kitobsiz bo‘lgani qayd etilib, 25 payg‘ambar tarixi Qur’onda oyat va suralar bag‘riga singdirilib ifodalanishi barchamizga ma’lum. Demak, janrning ilk ildizlari haqida so‘z borganda, muqaddas kitob va undan keyingi sahobalar tomonidan olib borilgan islohotlarda aks ettiriladi. Sahobalar haqidagi qissalar ham shunday tarzda diniy olimlar, faylasuflar, mutafakkirlar, shoirlar va zamonamiz tarixchilari tomonidan alohida kitob holida yozib borilgan.

Keyinchalik janr tadrijiy rivojlanib, haqqoniy o‘z manerasiga ega chiqdi. Prof.M.Qo‘chqorova ta’kidlaganidek: “Qissa janriga xos muhim nazariy belgilardan biri unda bitta qahramonning to‘laqonli sarguzashti hikoya etilishidir. Qissa roman bilan hikoya o‘rtasidagi janrdir. Shunga ko‘ra, qissada ba’zan roman janriga xos unsurlar, ba’zan esa hikoya, novvellaga xos unsurlar ko‘rinish berib qoladi. Keyingi paytdagi nazariyotchi olimlar va o‘zimizning bu janr borasidagi kuzatishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qissa dominant bo‘lgan asarda, albatta, unga xos muhim belgilar bilan bir qatorda, ba’zan boshqa janrlar (roman, novella, hikoya, esse, xotira)ning ham unsurlari ishtirok etaveradi. Lekin baribir, qissa janrining dominantligi hisobiga qissa bo‘lib qolaveradi”¹⁰. Binobarin, qissaning epik tur orasidagi ifoda shakllari o‘z mohiyatiga ko‘ra davrning ehtiyoji sabab o‘zgarishga mahkumliligi bilan ham ajralib turadi. Boshqacha aytganda, bitta qahramon atrofida birlashayotgan voqelik yozuvchi ijodiy konsepsiyasi hosilasidir.

Badiiy psixologizm masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, qissa tabiatida ikki muhim jihat qamrov kengligini taqozolaydi. A.B.Yesin “Psixologizm – bu adabiyotning o‘ziga xos vositalari yordamida xayoliy va to‘qima, shaxs va his-tuyg‘u, fikr va lirizimga yo‘g‘rilgan kechinmalarning yetarlicha istifoda

⁹ Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол.ан.док.дисс. –Тошкент.: 2020. –Б.15.

¹⁰ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/marhabo-qochqorova-xurshid-dostmuhammad-qissachiligida-metafora-va-timsolli-ishoralar/>

etilishi, mufasssal va teran tarzda tasvirlanishidir”¹¹ desa, L.G.Ginzburgning talqinida “...psixologizm qahramon ichki olamining ratsional, soddalashgan tasvir ekzistensiyasi va uygʻun ifodasi emas, balki asar qahramonlaridagi oʻzini tutish, yashash, anglashda xayolotiga kelmagan, tasodifiy, nogahoniy bir lashzada qarama-qarshiliklardan boshlanadi”¹² deya alohida mantiqiy dalolatlaydi. Har ikki olim ham psixologizm muammosiga turlicha rakurslardan yondoshadi. Tasodifiy roʻy bergan voqelik qahramonni kuchli depressiyaga, quvonch-u shodlik esa gʻam-gʻussaning barham topishiga olib kelishi tayin. Negaki, inson ruhiy olami – ikki qarama-qarshi tushunchalar atrofida yuzaga chiqadi. Odam birdan quvonib, shodlanib ketgandagi kayfiyati uni yanada irodali boʻlishga yetaklasa, baʼzi tushkunlik orqasida sinov, gʻam-gʻussaning bahridan oʻtish yoʻllari qabarib koʻrinadi. Yozuvchi har ikki jihatni ham bir xayolda hayotiy haqiqatga aylantiradi. Buni hech bir davr munaqqidi inkor qilolmasa kerak deb, oʻylaymiz.

Qissaning aniq chegarasini toʻgʻri belgilab olishimiz zarur. Unda bir-birini toʻldiruvchi kategoriyalar oʻz ifodasini topishi muhim: “Povest janriga mansub boʻlgan asarlarda qamrab olingan davrdan qatʼiy nazar bosh qahramon hayotida mavjud boʻlgan barcha voqealarning batafsil tasvirlanishi shart emas. Yozuvchi oʻsha voqealarning eng asosiylarini tanlab oladi, qaysiki bosh qahramonning xarakterini ochishga qulay kelgan, asar gʻoyasini ochishga xizmat qiladigan voqealarnigina kengroq tasvirlaydi”¹³. Haqiqatdan ham, povestda poetik qonuniyat qissadagi singari murakkab va olamshumul masalalarni idroklashga keng imkon bermaydi. Yozuvchi muayyan voqelik fonida harakatlanadi. Davrning ogʻriqlari va muammolari maʼlum bir sinfiy takomilda ayonlasha boradi. Qissada – vaqt nisbatan chegaralansa-da, qahramonning botiniy olamidagi evrilishlar, asosan, inson konsepsiyasi negizida talqin etiladi. U davrni ham, zamonni ham, makonni ham, tarixiy aspektdagi rolini ham maromiga boʻysundiradi, natijada, davrning manzarasi haqqoniy qiyofada oʻquvchi koʻzi oʻngida qayta jonlanadi.

¹¹ Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. Книга для учителя. –М. Просвещение. 1988. –С.18-19.

¹² Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. –Л.Советский писатель, 1971. –С.300.

¹³ Абборов.А. Ўзбек повести. –Тошкент: Фан, 1973. – Б. 9.

Dots. M.Boboxonov masalaga quyidagi rakursdan turib baho berishni ma'qul ko'rganligida masala mohiyatiga yaqinlashish kuzatiladi. Muallif yozishicha: "Zamonaviy adabiyotshunoslikda muammo markaziga hazrati insonni qo'yib gavdalantirish (antroposentrizm) an'anasi strukturalizmdan qolgan meros sifatida "gereosentrizm" tendensiyasiga, shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoniga diqqatning kuchayishiga bo'shatib berdi. Bugungi kunda insonni adabiy asar qahramoni sifatida o'rganish turli yo'nalishlar: ma'naviy-falsafiy muammolarning badiiy talqini, janr, kompozitsiya, mavzu kabi kategoriyalar darajasida amalga oshirilmoqda"¹⁴. Binobarin, psixologik talqin birgina qahramon olamida emas, balki yozuvchi ruhiyatidan o'sib chiqqan iztirob alangasidir. U qissa syujetida ishtirok etayotgan barcha qahramonlar tabiatida – muvozanat birligini taqozolashga imkon beradi. Agar bordi-yu, bosh qahramon atrofida uyushgan tasvir metodologiyasiga zo'r zalvorli muammo yuksalanaversa, voqelik o'z-o'zidan sochilib ketishi tayin. Ayniqsa, ishq haqida bitilgan qissalarda yozuvchilar qaysi tomonga muhabbat qo'yishi dinamik o'sishda ochiq-oshkor seziladi. Bu emotsiya asta-sekinlik bilan qahramonda rivojlanib, o'quvchi ko'ngliga kirib olishi tayin. Demak, yozuvchi – davrning manzarasini, qahramonning ruhiyatini, voqelik oqimini bir maxrajda jilvalantirmasa, ijodiy maqsad konseptual maydonga aylanmaydi. Aniqlikdan – noaniqlik kelib chiqishi tayin. Murakkab tasvir shtrixlarida bular ro'y-rost ko'z o'ngimizda namoyon bo'lishi hech gap emas.

Yunon faylasufi Arastu buni tragediya timsolida izohlagani hanuzgacha o'z ifodasini yo'qotgan emas: "Rivoyat, ba'zilar o'ylaganidek, bitta qahramon atrofida aylansagina bir butun bo'lavermaydi: chunki bir (shaxs) bilan aloqador bo'lgan cheksiz, son-sanoqsiz hodisalar yuz berishi, hatto, ularning ba'zilari hech qanday butunlikka ega bo'lmasligi mumkin. Bir shaxs xatti-harakati ham xuddi shunday ko'p miqdordir, ulardan hech qanday yagona voqea yaratib bo'lmaydi. Shuning uchun "Herakleida", "Feseida" va shunga o'xshash poemalarni yozgan shoirlar yanglishayotganga o'xshaydi. Ular Herakl bitta edi, (u haqda) rivoyat ham bitta

¹⁴ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. Монография. –Тошкент: Баёз, 2014. –Б.15.

bo'lishi darkor, deb o'ylashmoqda. Homer, (o'zga shoirlardan boshqa barcha sohalarida farqlanganiday) chamasi, badiiy mahorati yoki tabiiy iste'dodi tufayli bu masalaga ham to'g'ri qaragan. U "Odisseya"ni ijod etganida, qahramon nimalarni boshidan kechirgan bo'lsa, hammasini, masalan, u Parnasda qanday yarador bo'lganini, urushga yordam to'plash vaqtida qanday qilib o'zini jinnilikka solganini ko'rsatmadi, chunki bu voqealardan birining orqasida boshqasi ro'y berishi uchun hech qanday zarurat (yoki), ehtimollik yo'q edi; ha u "Odisseya"ni, shuningdek, "Iliada"ni ham biz aytgan ma'noda bir voqea doirasida yaratdi¹⁵. Ko'rinadiki, Arastu hikoya qilish (qissa yoki epopeya) san'atining nechog'li muhim ekanligining dolzarbligini ziddiyatlar qurshovida qolgan qahramonning ruhiy-ijtimoiy kayfiyatidan kelib chiqib idroklash muhimligiga mantiqiy urg'u bermoqda. Bundan kelib chiqadigan nazariya o'z-o'zidan ayonki, badiiy asardagi ruhiy iqlim yozuvchi va qahramon-muhit birligida shakllanib, ozodlikka talpingan mahbusdek bitta maqsadni yuzaga chiqishiga imkon beradi. Shu maqsaddan o'lchaydigan bo'lsak, yozuvchi davrning ham, qahramonning ham yonida turuvchi roviy. U o'zining tafakkur konsenpsiyasini bir-biriga muqoyasa qilmoqda. Yozuvchi ilk jumlani to'qiydi. U tabiat tasviri yoki to'g'ridan-to'g'ri qahramon hayoti, joylashuvi, xatti-harakatining izchilligi negizida hal qiluvchi kuchga evrilib boradi. Shu ma'noda, insonning asl idrok sezimlari ham namoyon bo'lib, maqsaddan – maqsad sari ma'no kuchayib, rang-barang ifodalarga aylanishda davom etadi. Arastu istak va xohish bo'lgan joyda orzuning amalga oshishi tezlashadi degan konseptual g'oyani ilgari surgani ham bejiz emas!

"Adabiyot tarixidan ma'lumki, har qanday adabiy usuldagi yangilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi: adabiyotdagi yangi oqimlar, an'analar o'z davrining estetik, ijtimoiy, g'oyaviy, mafkuraviy, tafakkur ehtiyoji, in'ikosi sifatida so'z san'atida bo'y ko'rsatadi. Qadimgi davr adabiyotimi yoki keyingi yuz yillik adabiyotimi, qaysi davr adabiyoti bo'lishidan qat'iy nazar, yangi bir oqimlar, so'zga munosabat, shakliy va badiiy izlanishlar aslida o'sha jamiyatda paydo

¹⁵ Арасту. Поэтика. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б.34.

bo'layotgan ijtimoiy fikr va ijtimoiy ong ostining ehtiyojini namoyon qiladi".¹⁶ Anglashiladiki, tarixiy-ijtimoiy jarayon o'z-o'zidan yuzaga chiqmasligi mumkin. Unda davrning qiyofasi aks etadi. Davr esa odamlarning faol ijtimoiy yashash turmushining haqiqiy manzarasida ko'zga tashlanadi.

Umuman olganda, qissa poetikasida psixologik tasvir takomillashuvining tadrijiy o'sish-o'zgarishlari XX asrning 90-yillaridan keyingina mukammallashdi. Ayniqsa, istiqlol yillarida "o'tish davri"ning odamlar taqdirida qoldirgan izlari bu hech bir davrdagidek tez sur'atda inqilob yasashga hozirlantirgani yo'q, albatta!

Qissa poetikasida roviy nutqining o'рни. Roviynutqi haqida gap ketganda shuni qayd etish lozimki, qahramonning asar syujetida ishtirokini nazorat qilib boruvchi alohida obraz tushuniladi. U ham personajni, ham voqelikni, ham yozuvchi ijodiy konsepsiyasini bir vaqtning o'zida tahlil qiladi, baholaydi, muayyan xulosalarni ham keltirib o'tadi. Lekin qissaning asl g'oyasi boshqa narsa. Yozuvchi nima uchun 41-posyolka deb belgiladi? Asardagi qahramonlarcha halok bo'lgan O'roq Umrzoqov asli qayerdagi jahon maydonida sodir bo'lgan urushda vafot etadi? Nega yozuvchi "Sirli muallim" timsolida jamiyatdagi azaldan ildiz otgan illatlarni kuchli kinoyaviy-tanqidiy ruhda yana qayta ko'rib chiqishni maqsad qiladi? Qissadagi kuchli psixologik tarang vaziyat ayni shu uch savol tegrasida aylanadi. Savolning javobi esa voqelikning izchilligida yuzaga chiqib, polifonik nutq tabiatini namoyon etadi. Jumladan, muallif matnining kontaminatsiyasi (bayonida turli nutqlarning aralashib ketishi hodisasi)da "muallif so'zi" va "begona so'zi"ning imkoniyatlarini belgilash uchun quyidagilarga aniqlik kiritib olish zarur:

a) muallif matnning muallifga tegishli bo'lmagan matn ta'sirida o'z ko'rinishini o'zgartirishi, ya'ni begona so'zning muallif so'ziga ta'sirini;

b) bilvosita muallifga tegishli matnning muallif tomonidan ishlov berilishi ta'sirida o'z ko'rinishini o'zgartirishi, ya'ni muallif so'zining begona kimsa so'ziga ta'siri;

¹⁶ Лучанов М.Ф.История мировой литературы. – Омск, 2004.

Muallif deganda biz tahlilga tortilgan matn yaxlitligicha kimga tegishli bo'lsa, o'sha shaxsni tushunamiz.¹⁷ Binobarin, L.Bo'rixon bir vaqtning o'zida ikki tomonga ham o'z munosabatini simpatiya, antipatijasini bildirib boradi. Jamiyatning boshlab bergan soxta va nurli yo'llarining aslida puch orzu ekanligiga ishongan olomonning haqiqiy ruhiy-ijtimoiy yashash ko'nikmalari. Ikkinchisi, mafkuraning o'ta uzoqni ko'zlab, bo'ysundirib yashashga odatlantirilgan geosiyosiy xunrezliklarining asl qiyofasini fosh qilish mexnizmining talqini.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, talantli yozuvchi L.Bo'rixonning bugungi adabiy jarayonda o'z o'rni va o'ovozi borligi ko'pchilikka yaxshi ma'lum. U Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida tavallud topgan. Ilk ijodini hikoya yozishdan boshlab, qissa va romanlarning rang-barang shakllarini eksperiment qilib ko'rdi. Bu haqda so'z borganda prof.I.Yoqubov shunday mulohazalarni ilgari suradi: "Bugun va kelajak muayyan mafkura talablari asosida emas, balki milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan uyg'unlashgan. Muhimi, bunday jihatlar adib ijodiga o'z tasavvurlar olami va estetik ideali taqozosi, obyektiv olam voqea-hodisalaridan ta'sirlanishiga ko'ra ko'chib o'tgan. Luqmon Bo'rixon falsafiy-estetik konsepsiyasida insonni ijtimoiy voqelik, xalq hayoti, davr taraqqiyoti bilan bog'liq holda tadqiq etish kuzatiladi. Yozuvchi qahramon xarakterini epik ko'lamdorlikda, teran psixologizm asosida ijtimoiy muhit muammolari bilan uyg'unlikda kashf etadi. Ijtimoiy voqelik inson ma'naviy-ruhiy olami, fikrlash tarzini o'zgartirayotgani millat psixologiyasi uchun xarakterli xususiyat ekanligi bois adib hayotiy jarayonlarning o'zinigina ko'rsatish bilan cheklanmay, tafakkur darajasi o'zgarishga yuz tutgan jamiyatning ruhiyatini, tobora teranlashib borayotgan xalq intellektual dunyosini ko'rsatishga urinadi"¹⁸. Haqiqatdan ham, L.Bo'rixon qissalarida badiiy-psixologik tasvir prinsiplari ifodalanayotgan voqelikning turli qirralarida – holat, ruhiyat, qahramon, muhit, ijtimoiy hayot, davr va zamon kengliklarining puchmoqlarigacha kirib boradi.

¹⁷ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. Монография. –Тошкент: Баёз, 2014. –Б.9.

¹⁸ Ёқубов И. Адиб соғинган маъво-манзиллар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.182.

L.Bo‘rixon “Sirli muallim” qissasidagi psixologik prinsiplarni rus olimasi M.J.Bedrikova qayd etgan uchta asosiy kriteriy bilan idrok etish ishonchini oqlaydi:

1. Matnda psixologizmni kuchaytiruvchi vositalar;
2. Qahramonlarni tasvirlash vositalari;
3. Xarakter va vaziyat nisbati uyg‘unligi¹⁹.

Darhaqiqat, yozuvchi L.Bo‘rixonning “Sirli muallim” qissasining yozilganiga yigirma yillar bo‘ldi. Unda yozuvchi “Jaziramadagi odamlar” romanidagi bosh qahramon O‘roq Umrzoqovning qahramonlarcha halok bo‘lgan urush va uning qishloq hayoti, ahli uchun nihoyatda ayanchli ta’siri gavdalantiriladi.

Qissadagi roviy nutqi yo‘l-yo‘lakay o‘zining polifonik nutqini qahramon tili orqali yuzaga chiqaradi. Qissa oxirida sirlarning hammasi maktabdagi o‘qituvchilarning tergovchiga bergan ko‘rsatmalari negizida ochiqatlanadi.

Yozuvchi qissada psixologik tarang nuqtalarni o‘tkir kinoya va piching usulida namoyon qiladi. Yozuvchi ayni paytda, muammoning asl ildiziga birdaniga o‘tmaydi. 41-posyolka atamasi avval hikoyada – so‘ngra qissada, keyinchalik roman poetikasida ruhiy-ijtimoiy munosabatlar tig‘izligini ifoda etuvchi borliq sifatida yuzaga chiqqanligining shohidi bo‘ldik:

“Najot G‘aybulla deganlari haqidagi mish-mish bizning tahririyatga ham yetib keldi.

– Ertagayoq safarga chiqasiz, - dedi bosh muharrir meni huzuriga chorlab.
– Borib biling-chi, nima gap? Qalamga ilashgulik holi bo‘lsa shartta biror narsa qoralab keling. U yoqlarni siz yaxshi bilasiz. Ha, ha, kaminaga u taraflar tuzukkina tanish. Roppa-rosa ikki yil avval ovloq cho‘l qo‘ynidagi o‘sha xarobagina 41-posyolkada bo‘lganman. Bu harbiylikda halok bo‘lgan qahramon askar – Umrzoqov O‘roq tug‘ilib o‘sgan maskan-da; mahalliy maktab shu jasur o‘g‘lon nomi bilan ataladi. Hatto, qahramonga yodgorlik – byust o‘rnatishgan ekan.

¹⁹<https://cyberleninka.ru/article/n/i-m-efimov-svyaz-vremyon-osobennosti-literaturotsentrizma-v-avtobiograficheskoy-proze-russkogo-zarubezhya>

Xullas, qadrdon do'stim, shoir va yozuvchi, jurnalist (va hakoza) Shunqor Hobilning qutqusiga uchib Umrzoq O'roq haqida ocherk bitish ilinjida o'sha ovloq posyolkaga borib kelganman.

O'sha bahorning iliq kunlari edi. O'ngu so'lda ekin-tikinga hozirlangan jigartus paykallar yastanib yotibdi. O'ydim-chuqur yo'l bo'ylab tizilib ketgan dov-daraxtlar qiyg'och yaproqlay boshlagan. Osmon hozirgina bo'shatilgan shishaday top-toza, ko'm-ko'k.

Posyolkaning sertuproq, qing'ir-qiyshiq ko'chalarida odam siyrak. U yer-bu yerda o'zini chuvoqda toblab o'tirgan qari-qartanglar, qiy-chuv bilan o'ynashayotgan bolakaylar ko'zga tashlanadi. Hoynahoy, hamma ko'klam tashvishlari bilan andarmon, dala-dashtga sochilib ketgan²⁰.

Qissada soxta diplom evaziga maktabda ko'pchilikning ko'zini shamg'alat qilgan ashaddiy firibgar o'qituvchi Najot G'aybulla haqida so'z bormoqda. Yozuvchi qissada shunday usul qo'llaydiki, har doimgidek, voqelikning bo'lib o'tganini – boshidan hikoya qilish uchun ekspozitsiyada tushuncha berib o'tadi. Syujetdagi psixologik tarang vaziyat va holatlar o'sha “tushuntirish” negizida qaytadan jilvalanadi. Aslida, badiiy g'oyaning qiziqarli chiqishi uchun – yozuvchi oldindan ijodiy konsepsiyani puxta o'ylaydi. Ruhiy-falsafiy idrok har bir obraz kechinmalari (tushuntirish xati) orqali o'quvchiga anglashilib boradi. Masalan, Qalqanovning nutqining o'zida ham maktab hayoti, ham uning rahbarlik faoliyati, ham amal kursisining “shirin totliligi” ko'plab mushohadli munozaralarga keng yo'l ochib boradi.

Har qanday badiiy psixologik vaziyat inson iroda yo'nalishining ajralmas qismi ekanligi ayonlashadi. Oddiylikdan – murakkablik tomon siljish, G'arb badiiy tafakkuridan oziqlanishning natijasi o'laroq yanada takomillashib borayotganining shohidi bo'lamiz. Bu haqda prof. H.Umurov shunday yozadi: “Ko'rinadiki, psixologik tahlil qonuniy badiiy hodisa bo'lib (N.G.Chernishevskiy), ijodiy talantning kamoloti darajasini, uning ta'sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir. Bu belgi yozuvchini inson qalbidek keng va sirli, ko'p qirrali va bepoyon olamning

²⁰ Бўрихон Л. Сирли муаллим. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.182.

bilimdoni va bu olamning sir-asrorini ochib beruvchi kashfiyotchisi ekanligini namoyon qiluvchi kuch-qudratga ega. Shuning uchun ham, inson psixologiyasi (demakki, uning ichki dunyosi, kechinmalari)ni tasvirlovchi san'atkor, o'zini har qanday kishining ruhiy holatida tasavvur eta olishi, uning qalb va qiyofasini ko'rsata bilishi kerak"²¹. Prof.H.Umurov to'g'ri izohlaganidek, yozuvchi o'z qahramonlari ruhiy olamida o'zini ko'rishi, o'zining iztiroblari yanglig' ifodalashi juda katta imkoniyatlarni tuhfa qiladi. Jumladan, L.Bo'rixon "Sirli muallim" qissasida jamiyatdagi – o'qituvchi kasbining obro'si tushib ketishi, ta'limdagi paxta yakkahokimligi natijasida bir to'da savodsiz bolalarning ko'payishi, ular kelajakda mardikorlikdan boshqasiga yaramasligiga jiddiy ishora qilmoqda. Uzoq yillar amal kursining shirin ta'midan ayro yashashni tasavvur qilolmagan direktor Qalqonovning asl basharasini quyidagi tushuntirish xati timsolida ayonlashtiradi:

“Suyagim maktabda qotdi. Yigirma yoshimdan beri muallimlik qilaman. Bolalarning qiy-chuvini eshitib turmasam boshim og'riydigan bo'lib qolgan. Bir paytlar jomadon ko'tarib o'qishga otlangan chog'im uchuvchilikni orzu qilganman (orzu-istaklar qanotida xo'b uchib-qo'nib yurgan paytlarimiz ekan-da). Yo'q, taqdir taqozosiga ko'ra rus tili mutaxassisi bo'ldik. Ishladik. Mana, ishlayapmiz. O'qituvchilikning etagidan tutganimiz uchun hech kim bizni yomonotlig' qilgan emas. Davralarning to'rini berishmasa-da, har nechuk poygakka tushirib tashlashmaydi. Hozirgi yoshlarga qarab hayron bo'laman, muallimlikdan or qilishadimi-yey...

Ayniqsa, o'g'il bolalar.

Qay bir kun oltinchi sinfda o'qiydigan uch-to'rt bolaning gurungi tasodifan qulog'imga chalinib qoldi.

“Kelajakda prokuror bo'laman, – derdi ulardan biri viqor bilan, – hamma mendan qo'rqadi, hurmat qiladi. Boylikka ko'milib yashayman”.

“Prokuror ko'p oylik oladimi?” – deb so'radi tag'in bir soddarog'i.

Do'sti avval miriqib kuldi, so'ng ishonch bilan dedi:

²¹ Умuroв Х. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари. –Тошкент: Турон-Иқбол., 2011. –Б.238.

“Yo‘-o‘q, gap oylikdamas. Jinoyatchilar qamalib ketmasligi uchun cho‘ntagingga jaraqlatib solib qo‘yadi”²²

Qalqanovning ko‘rsatmasida jamiyatdagi tanlov shartlilikining izdan chiqqanligi namoyon bo‘ladi. Yozuvchi bu polifonik nutq negizida ham o‘quvchi botinidagi sohir orzu-istaklarni, ham inson psixologiyasining chigalliklarini, ham muhit suvratining murakkabligini dalolatlaydi.

Dunyo adabiyoti mundarijasiga nazar tashlar ekanmiz, badiiy nutq va uslubiy-shakliy izlanishlarning o‘ziga xos jihatlari naqadar ko‘p ekanligining guvohi bo‘lamiz. Negaki, badiiy asarda nutq tabiati – yozuvchi ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqaradigan asosiy komponentlardan biri sanaladi. Ijodkor olam bilan muloqotga kirishadi. U xoh monologik, xoh dialogik, xoh polilogik shaklda bo‘lmasin, yozuvchi diqqat-e’tiborida bo‘lgan eng muhim konseptual jihatlar muloqot segmentlarida yorqin ranglarda namoyon bo‘ladi. Buni hech bir adabiyotshunos inkor qilolmasa kerak deb o‘ylaymiz. “Nutq , bu – belgilar tizimidir. Biz so‘zlar orqali boshqalarga ongimizda nimalar sodir bo‘layotgani haqida xabar beramiz. Bunday til bilish uchun zarur bo‘lgan shifrlar eshittirishni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan shifrlar kalitga ega bo‘lish bilan qiyoslash mumkin. Shifrlar orqali berilgan xabar qandaydir dalil haqida ma’lumot beradi, uni qabul qiluvchi tafsilotlarni o‘z tasavvuri bilan to‘ldiradiki, ikki suhbatdosh o‘rtoqlashgan eng oddiy jumla ham tushuntirishni talab qiluvchi va tushunmaslikdan sug‘urta qilinmagan qisqacha signaldan boshqa narsa emas”²³. Darhaqiqat, badiiy asardagi belgilar, shtrixlar, jummlalar – obrazlilikni tashuvchi, kuchaytiruvchi komponentlar majmuidir. Busiz badiiy asardagi yozuvchi ijodiy niyati yuzaga chiqishi dargumon. So‘z orqali olam darichasiga nazar tashlaydi yozuvchi.

Badiiy nutq haqida so‘z borganda, u monologik, dialogik, polifonik nutq shakllariga bo‘linadi. Yozuvchi L.Bo‘rixon qissada kuchli dramatik lirizm bilan monologik nutqni xususiyashtiradi. Unda yozuvchining botiniy olami, qalbu shuurida tinchlik bermayotgan tuyg‘ular realizmi namoyon bo‘ladi.

²² Бўрихон Л. Сирли муаллим. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.208.

²³ Ян Парандовский. Сўз кимёси. –Тошкент.: “Янги аср авлоди”. 2022. –Б.292.

Badiiy nutq – yozuvchi ijodiy konsepsiyasining markaziy talqin modusidir. Bu modus syujetni tiniqlashtiradi, kompozitsiyani maromlashtiradi, ruhiyatni ochilishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Monologik nutqning birlamchi muhim xususiyati – uning uzviyligi bo‘lib, bunda so‘zlovchi axborotni mavzuga yo‘naltiruvchi qo‘shimcha savollar yordamisiz izchil tarzda bayon etishi zarur bo‘ladi. Buning uchun fikr yoyiq, bir qadar kengroq ifodalanishi, jumlar grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi va ongli ravishda tanlab ishlatilishi talab etiladi. Shuni ham qayd etish kerakki, yoyiq va uzluksiz shaklda bayon etilayotgan monologik axborot ayni paytda tugallangan xarakterga ega bo‘lishi ham kerak”²⁴, – deb yozadi tadqiqotchi Z.Salisheva. Haqiqatdan ham, monologik nutqning asosiy vazifadoshligi yozuvchining o‘z tilidan hikoya qilinsa, asardagi muhim jihatlarni lirik chechinmadan xoli ravishda matn bag‘riga singdirib yuboradi. Mana shu jihatdan ham, Luqmon Bo‘rixon “Sirli muallim” asarida ong osti sezimlarini, tuyg‘u va kechinmalarini birinchi shaxs tilidan berishni maqsad qilganligida ko‘rinadi.

Umuman, monologik nutq badiiyati va uslubiy-shakliy izlanishlar talqinida 90-yillar avlodining badiiy izlanishlarida yozuvchilar tasvirini ramziylashtiradi, Z.Qurolboy qizi detallarni rang-baranglashtirib, o‘lim vahmidan ogoh etadi, L.Bo‘rixon muhabbat va yovuzlik o‘rtasida azaliy kurashni insonning ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgan psixologik kayfiyatga yo‘naltiradi. Demak, har uchala yozuvchida hayot va o‘lim orasida kechayotgan mangu iztiroblar galereyasi F.Kafka an‘analarini yodimizga solsa-da, o‘zbek adabiyotida an‘anaviy talqin modifikatsiyasining barqarorlashib borayotganidan dalolat beradi. Insoniy munosabatlar – zulm va qo‘rquv orasida ushlab turilgan jamiyatning botini ham, zohiri ham yemirilib, asta-sekinlik bilan fojeaga aylanib, inqirozga yuz tutishiga ishora qilinadi. Bular biz sanab o‘tgan yozuvchilarning yozgan asarlarida turli xil shaklda mono-dialogik ko‘rinishda namoyon bo‘lganligini vaqtning, davrning o‘zi isbotlab turibdi.

²⁴ <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2021/12/monologik-nutkning-funkczional-va-psiholingvistik-hususiyatlari.pdf>

1.2. -§. Qissa janrida badiiy psixologizm yo'sinlari va tadriji

Dunyo adabiyotshunosligida xilma-xil adabiy uslublarning poetik uyg'unligi borasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Ingliz, rus, turk va boshqa xalqlarning badiiyat durdonalari inson obrazini yuzaga keltirishda dialektik qonuniyatni ilgari surgan. Uslub va shakl, mavzu va g'oya masalasi asrlar davomida har bir adabiyotshunosni o'ylantirib kelayotgan og'riqli masalalardan biri sanaladi. "Uslub – bu odam" – deganida Gyote to'laqonli haq edi. Uslub o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uning qon tomiri milliy zamin bilan chambarchas bog'lansa, ikkinchi tomondan boshqa xalqlar adabiy hayotiga tutashgan bo'ladi. Ayni paytda, janrning o'zi uslub yaratuvchi faktorlardan biri ekanligi ayonlashadi.

Qissa epik turning o'rta janrlaridan biri bo'lgani bois, unda ma'lum bir davrning poetik talqini o'z ifodasini topadi. Qissaning eng muhim jihati hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda, yozuvchi L.Tolstoy aytganidek, dialektik qonuniyatga to'laqonli bo'ysunishi lozim. Ya'ni bu olamning bir-biridan tamomila farqlanuvchi boshqa bir o'lchamning nihoyatda zarurligini hisobga olish zarur. Ayniqsa, uslubiy izlanishlar negizida yozuvchi badiiy talqini shakliy ustqurmani ham yodda tutmog'i joiz. Jumladan, L.Bo'rixon, Z.Qurolboy qizi qissalarida maishiy turmush oqovalarida umr kechirayotgan qahramonlar intellekti namoyon bo'ladi. Negaki, asar qahramonlari siz-u biz kabi fikrlovchi, faol pozitsiyada turgan oddiy qishloq odamlaridir. Ayni paytda, ularning ijtimoiy hayotda tutgan tanlovi qissa arxitektonikasini belgilab berishi tayin.

Yozuvchi L.Bo'rixon nimaga urg'u bergan bo'lsin yoki bo'lmasin, barcha detallarni hazilomuz *kulgi*, *kesatiq*, *piching*, *kinoya* vositasida namoyon qilishga alohida diqqat qaratadi. Chunki **"kinoya bag'ridagi umid"**dan murod shuki, u odamzod tabiatidagi absurdni ham, yolg'on e'tiqodni ham parchalab tashlashga qaratilganligida qabarib ko'rinadi. Bitta eng xarakterli jihati, yozuvchi – qishloq hayotini, u yerda yaxshidir, yomondir kun kechirayotgan sodda, jaydari odamlar tiynatidagi tabiiylikning saqlanib qolishini, axborot tig'izlashgan jamiyatda e'tiqod, or-nomus tushunchalarining toptalishiga jiddiy qarshilik bilan

kurashayotgan olomon auditoriyasining munosabatini o'ta mohirlik bilan ifodalaydi.

Uslubni aniqlashtirishda badiiy shakl va mazmunning roli. Badiiy uslub tushunchasi haqida so'z borganda, hayotning barcha puchmoqlarini qamrab oladigan badiiylik modusi tushuniladi. Uning syujet va kompozitsiyani umumlashtiruvchi nuqtalardan biri ekanligini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Biz olib borayotgan tadqiqotimizning asosiy diqqatga sazovor jihatini kinoyaviy-parodik uslub bilan ramziy-realistik uslub uyg'unligining tafovutli jihatlarini aniqlashtirishga qartilgani bilan belgilanadi. Negaki, A.Qodiriyning "Obid ketmon" qissasidan boshlangan kinoyaviy-parodik uslub, keyinchalik G'.G'ulomda yuksak san'at darajasiga ko'tarildi. Bu ko'tarilish yozuvchiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib bergani ayni haqiqatdir. Ovroqada aqlar hukmdori deb ta'riflangan Albert Kamyu badiiy uslub haqida shunday mulohazalarni ilgari suradi: "Ijodiy tafakkurning nisbiy erkinligini inkor qilgan bu san'atkor o'zini bevosita moddiy olamga mute qilib qo'yadi. Har ikkala holatda ham ijodiy salohiyatga putur yetadi. Dastlabki holatda voqelik faqat qisman inkor qilingan edi. Keyingi misolda esa, voqealik butkul inkor etiladi yoki faqat ugina tan olinadiki, oqibatda u yozuvchi mutloq inkorning yoki mutloq e'tirofning changaliga tushadi. Hech qaysi san'at voqelikdan butkul uzilishi mumkin emas. Shaklparastlik qiyofasiz ijodni dunyoga keltiradi. Shuningdek, xayolot ishtirokisiz quruq realizm ham tubanlikka aylanib qoladi. Hatto eng yaxshi fotosurat ham quruq voqelikdan qochadi; hatto u ham realizm va xayolot qorishib ketgan manzarani izlaydi va o'shani o'zida zuhr qiladi. Voqeparast ham, shaklparast ham bir butunlikni u yo'q joydan – yo quruq voqelikdan yoki voqelikni mutlaq inkor qilgan quruq xayolotdan izlaydi. Aksincha, san'atdagi bir butunlik san'atkor voqelik bilan xayolotni uyg'unlashtira olgan manzarada mujassam bo'ladi. Voqelik va xayolot – bir butunlikning ajralmas qismlaridir. San'atkor voqelikdan tanlab olgan unsurlarni badiiy til yordamida xayolot bilan uyg'unlashtiruvchi va u yaratgan badiiy dunyoning tugal bo'lishini ta'minlovchi vosita – uslub deb ataladi. Har bir san'atkor isyonkor uslub yordamida – garchi bu

kamdan-kam daholarga nasib etsa-da – o‘z badiiy dunyosini va uning qonunlarini yaratadi. “Shoirilar, – degan edi Shelli, – dunyoning tan olinmagan qonun yaratuvchilaridir”²⁵. A.Kamyu “Isyon va uslub” esse-maqolasida uslubga o‘ziga xos tarzda yondashadi. Uning nazdida yozuvchi isyonkor uslub yordamida – o‘z badiiy uslubini yaratadi. Bu mulohazalarida A.Kamyu mutlaqo haq bo‘lib, bugungi kunda ham bunday munozaralar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Garchi Kamyuning o‘zi badiiylik modusini parchalab, o‘zi anglagan haqiqatlarga tayanib, o‘z badiiy uslubini go‘zal bir olam tarzida bunyod qila oldi.

Endilikda badiiy shakl va mazmun har bir yozuvchining olam va odamni qay tariqa anglash metamorfozasi bilan belgilanadi. Adabiyotshunoslik ilmiga oid lug‘atlarda “Voqelikdagi har qanday narsa o‘zining tashqi ko‘rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyati (mazmun)ga ega. Shakl va mazmun kategoriyalari umumfalsafiy xarakterda bo‘lib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ilmiy abstraksiyalardir. Zero, shakl va mazmun tarzida bo‘lish shartli, negaki ular – yaxlit bir narsaning har vaqt birlikda mavjud bo‘lgan va bir-birini taqozo etadigan ikki tomoni. Shakl narsaning biz bevosita ko‘rib turgan, his qilayotgan tomoni va aynan u bizga o‘sha narsaning nimaligini – mazmun-mohiyatini anglatadi. Mazmun muayyan shakldagina yashaydi, shaklsiz mazmun bo‘lmaganidek, mazmunsiz shakl ham mavjud emas. boshqa har qanday narsa singari badiiy asar ham shakl va mazmunning yaxlit birligidir. Shuning uchun badiiy shakl, badiiy mazmun tushunchalarining atigi ilmiy abstratsiya ekanini unutmaslik lozim”²⁶.

O‘zbek adabiyotida qissa janrining badiiy takomilini anchayin rivojlanishiga keng hissa qo‘shgan G‘.G‘ulom “Shum bola”ning yozilish tarixi haqida so‘z borganda, bolalik chog‘laridagi juda ko‘plab voqeliklarni esga oladi. Bu bizga realistik tasvirning mohiyati haqida asosli va yetarli tushuncha beradi. Unda “Shum bola” asari qaysi unsurlar birlashuvidan yuzaga kelganligi, hayot va poeziyaning bir-biriga tutash nuqtalari qandayligi aniq ko‘rsatilganki, undan

²⁵ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/alber-kamyu/alber-kamyu-isyon-va-uslub-esse/>

²⁶ Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.56.

shunday xulosa chiqarish mumkin: yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi²⁷. Haqiqatdan ham, badiiy uslubning o'ziga xos qirralari g'oyaning qayta ishlanishi, ijodkorning hayot haqiqatlarini chuqur bilishi, o'z tafakkur olamida uni boyitishi bilan jiddiy mohiyatga evrilishi tayin. Shunday ekan, inson hamisha o'zining oldidagi muhim muammolarni uzil-kesil hal qilib borishi uchun san'at asarlaridan yo'l axtarishi ayni haqiqatdir. Prof.H.Umurov "Shum bola"ning tili va uslubini yuzaga keltiruvchi qator omillarni birma-bir sanab o'tadi. Bu masalalar hozirgi o'zbek adabiyotidagi kinoyaviy-parodik uslubning san'at darajasiga ko'tarila olganligidan dalolat beradi.

Taniqli yozuvchi L.Bo'rixonning kinoyaviy-parodik uslubi haqida so'z borganda, XX asrning 30-yillaridan boshlangan adabiy-badiiy evrilishlarning mantiqiy davomi, jahon madaniyatining o'zbek adabiyotiga ta'siri ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Chunki kinoyaviy-parodik usul inson ruhiyatining yetib bo'lmaydigan manzil-u makonlar haqidagi hayotiy haqiqatni kulgi, piching va yengil hazil tarzida anglash tushuniladi. Kinoya – inson tafakkuri rivojlanishi sari yuksalishga intilgan adabiy usullardan biri ekanligi ayonlashadi:

“Uf-f, bir kamim tushuntirish xati yozish edi. Xo'sh, nimani tushuntiray? Hali o'zimga ham tushuniksiz, chigal turmushim, kasbi-korim haqida nima ham deyishim mumkin? Bir paytlar otam rahmatlik pedinstitut qoshiga yetaklab borib, “Qizim, muallimchilikka o'qiy qol, ayollarbop ish, to'rtta bolani aldab yuraverasan”, degan edi. Afsuski, to'rtta o'quvchini “aldash” bilan ish bitmas ekan. Mana, yozuv stolim ustida uyum-uyum yumush kutib yotibdi: darslar taqsimotini qayta ko'rib, jadvalni o'zgartirishim kerak, tuman hokimiyatiga, maorif bo'limiga alohida-alohila hisobot tayyorlashim zarur. Hisobotda o'tgan chorak yakunlari, yangisining rejalari ikir-chikirlarigacha aks etishi talab etilgan. Bundan

²⁷ Умуров Х. Бадий ижод асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –Б.80.

tashqari, shu oy ichida qabul qilingan hukumat Qarorlari asosida devoriy gazeta tayyorlab maktab zaliga osishim kerak (iloji bo'lsa yoniga o'zimniyam). Bular bugundan qoldirmay qilishim zarur bo'lgan yumushlar. Ertaga yana qancha qog'ozbozliklar kutayotganini aytsam, ruchkamning siyohi tugab, qog'ozlarim ado bo'ldi"²⁸.

Mazkur lavhada yozuvchi L.Bo'rixon kinoyaviy-parodik usulni shu qadar tig'iz falsafiy-estetik qiymatini yuzaga chiqarganki, unda faqat inson ruhiyatidagi uzil-kesil o'zgarishlarni – yangi bir davrga o'tgan millat taqdirining fojeaviy qismatini anglash mumkin. Negaki, insoniy munosabatlar tig'izlashgan makonda yashab qolish instinkti ham kuchayib boradi. Jamiyatdagi o'sish-o'zgarishlar hayot haqiqatini teran anglashga imkon beradi. Prof. K.Quramboyev: "Agar yozuvchi tor doirada fikrlasa, ma'naviy birlik, ruhiy xotirjamlik hamma sohalardagi taraqqiyotimizning kafolatlaridan biri ekanini anglab yetmasa, milliy qadriyatlarini umumjahon ma'naviy qadriyatlari ruhida rivojlantirishga, jahon andozalari darajasiga olib chiqishga ijodi bilan intilmas ekan, u qanchalik talantli bo'lmasin faqat "o'z adabiyoti"ning vakili bo'lib qolaveradi. Bunday cheklanganlik nafaqat mazkur yozuvchining o'zini, u mansub adabiyotning ham dunyoga chiqishiga monelik qilishi tabiiy. Shunday ekan, muayyan adabiyotda qalam tebratayotgan har bir ijodkor nafaqat yaratgan asarining, balki butun boshli adabiyotning taqdirini, kelajagini ham o'ylamog'i, jahonga tanilishi uchun barcha ijodiy imkoniyatlarini ishga solmog'i lozim"²⁹. – deya yozadi. Bu o'tkir haqiqatni hech birimiz unutmasligimiz lozim. L.Bo'rixonning "Sirli muallim" qissasida kinoya badiiy uslubning xilma-xil ifodalarini yagona estetik markazga uyushtiradi. Qissada turli xil fan o'qituvchilari soxta diplom olgan Najot G'aybullaga tergovchining topshirig'i bilan ko'rsatma beradi. Bu yerda yozuvchi shunday usul qo'llaganki, o'qigan o'quvchi yoqa ushlashi tayin. Ayniqsa, polifonik nutq uslub badiiyatini jilvalantirsa, modernistik dunyoqarash kinoya estetikasini chuqurlashtiradi. Natijada, inson – Yaratganning aqlli mavjudoti, uning tafakkur qilishga moyil

²⁸ Бўрихон Л. Сирли муаллим. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.224.

²⁹ Қурамбоев К. Туркий адабиётнинг забардаст адиби. –Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. –Б.259.

metamorfozasi qabarib ko'rina boshlaydi. Ayni paytda, kinoyaga joylangan umid uchqunlari ijodiy konsepsiya badiiy takomilini yagona estetik maxrajda uyushuvini taqozolaydi.

Munaqqid V.G.Belinskiy ta'biri bilan aytganda: "Narsalarning qadri – bir-biriga qiyos qilinganda bilinadi. Agar ikki yozuvchi bir turda ijod qilib, bir-biriga qandaydir o'xshashligi bor ekan, binobarin, ularni parallel joylarga qo'yib, bir-biriga qiyosan baholashdan boshqa iloj yo'q; eng odil tarozi shu. Balzakka e'tibor bering: povestlarida biri ikkinchisiga o'xshab ketadigan loaqal bitta xarakter, loaqal bitta shaxs uchramasligiga qaramasdan, bu zot qanchadan-qancha asarlar yozib tashladi. O, xarakterlar individualligining jami qirrlarini tasvirlashdagi aql bovar qilmaydigan darajadagi mahoratni qarang!"³⁰. Darhaqiqat, "Sirli muallim" qissasida yozuvchi atayin kinoyaga olam-olam ma'noni kompozitsion yaxlitlik birikuvida muvofiqlashtiradi. Uslubning jilvalanishi ayni shu o'rinda go'zal mohiyatga evriladi. Bosh qahramon Najot G'aybulla ruhiyatidagi soxtakorlik jamiyatda ildiz otib borayotgan illatlardan boxabar bo'lishda har birimizni ogoh etadi. To'g'ri, sobiq ittifoq davrida kolxozlashtirish siyosati, cho'lquvarlarning yashash faqat "yeb-ichish"dan iborat degan tushunchalarga odatlanishi fojeaviy inqirozdan o'zga narsa emas. Mana shu qaltis jarayonda yozuvchi millat taqdiri xususida juda teran bosh qotiradi:

"Najot G'aybulla darslarga o'z vaqtida yetib kelar edi. U ichkari kirayotgan chog', nazarimda, "O'qituvchilar xonasi"ning yog'sirab qolgan eshigi odatdagidek ayanchli g'iyqillamas, u qadam bosgan payt, eski pol odatdagidek g'ichirlamas edi.

– Assalomu alaykum!

Najot G'aybullaning qiroatli salomi davlat madhiyasiday jaranglaganidanmi, xonadagi o'qituvchilar beixtiyor o'rinlaridan qo'zg'alib, qo'l berib ko'rishishga chog'lanishardi. Najot G'aybulla go'yo yo'qsillarga ehson ulashganday, har bir hamkasabasining ilkini ehtirom bilan bir-bir ushlab, samimiy so'rashib chiqar, so'ng ustidagi qimmatbaho, charm kamzulini burchakdagi ilgakka ilardiyu ko'zgu yonida apil-tapil sochlarini tarab, u yoq bu yoqni sarishtalab olardi. Uzundan uzoq

³⁰ Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –Б.70-71.

teleserialni hormay-tolmay muhokama qilayotgan o'qituvchilarning o'z-o'zidan sasi o'chib, goh oshkora, goh pinhona yangi muallimni kuzatishar, go'yoki qiziqarli, hayajonli tomoshaning galdagi qismi shundoqqina ko'z o'nglarida davom etar edi"³¹.

Keltirilgan parchada asar qahramoni Najot G'aybulla xarakteriga xos xususiyatlar maktab mudirasi Norxol Xushboqovanning tergovchiga bergan ko'rsatmasida o'z ifodasini topadi. Yozuvchi har bir qahramonning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ism ham tanlaydi. Bu ism badiiy uslubning umumiy va xususiy jihatlarini namoyon qilishga keng imkon beradi. Chunki inson xarakteri vaziyat va holat tabiatidan kelib chiqib o'zgaruvchandir. Ayniqsa, kinoya obyekti sanalgan maktab hayoti xilma-xil toifadagi o'qituvchilar timsolida jamiyat muhokama tarozusida talqin qilinmoqda. Bir tomondan qaraganda, Najot G'aybulla soxtakor odam emas. Unga o'xshagan boshqa minglab odamlar mavjud. Yozuvchi sobiq ittifoq davridan sarqit sifatida millatga tamg'a bo'lib qoldirilgan meros – soxta shon-shuhrat va shiorbozlikni o'tkir kinoya bilan idroklamodqa. Natijada butun xalqlar ruhiyatidagi uzil-kesil o'zgarishlar yorqin bo'yoqlarda o'z ifodasini topib boradi. Shuning uchun ham, kinoya jamiyatdagi illatni ko'rsatib beribgina qolmay, unga muayyan yechim izlash kafolatini ham o'z zimmasiga oladi.

Rus munaqqidi V.G.Belinskiy ta'biri bilan aytganda: "Ijodiyotimiz tarixi chet el adabiyotlariga ko'r-ko'rona taqlid qilish yo'li bilan o'z adabiyotimizni yaratishga behuda urinishlar tarixidan boshqa narsa emas; biroq adabiyotni yaratmaydilar; til va urf-odatlar xalqning ixtiyori va xabarisiz qanday yaralsa, adabiyot ham shunday yaraladi. Shunday qilib, o'ttizinchi yil bilan birga Pushkin davri tugadi, to'g'rirog'i, tasodifan uzilib qoldi, negaki Pushkinning o'zi ham, Pushkin bilan birga uning ta'siri ham tugadi, to'g'rirog'i, tasodifan o'shandan buyon uning sozidan deyarli bironta ham avvalgidek navo chiqmadi. Uning hamkasblari, badiiy ijod sohasidagi safdoshlari eski qo'shiqlarini, odatdagi orzularini xirgoyi qilishda davom etardilar, ammo ularni endi hech kim

³¹ Бўрихон Л. Сирли муаллим. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.225.

tinglamasdi”³². Mana shu tamoyil keyinchalik boshqa adiblar ijodida ham kuzatildi. Biroq ayrim daho san’atkorlarga ko’r-ko’rona taqlid qilish ham muntazam davom etdi. Ayniqsa, XX asr boshlarida davom etgan ijtimoiy-madaniy islohotlar adabiyotni bitta “izm” ichiga olib kirishga yetakladi. Buning amaliy natijasi sho’ro siyosatida yanada rivojlandi. O’tkinchi mafkura bilan inson dardi, isztirobisiz, sun’iy yasalgan qog’oz guldek na ifor taratuvchi, na kishi ruhiyatiga ta’sir etuvchi asarlar yaratildi. Bularning ko’pchiligida badiiy asarlar o’z davridagina yashashga mahkum bo’ldi. yuzlab, minglab asarlar tarix sahnasidan nom-nishonsiz, izsiz yo’qoldi. Haqiqiy san’at asarlari, estetik did va falsafiy idrok bilan sug’orilgan qissalar, romanlar xalq adabiyotining mulkiga aylandi.

Ta’kidlash joiz, qissa poetikasidagi tafakkur taraqqiyotining ikkita yo’nalishi mavjud:

1) **monologik** tafakkur qatlamida bevosita muallif dunyoqarashi ustuvorlashadi, unda tasvir va ifoda yaxlitligini roviy boshqaruvi ta’minlaydi;

2) **biologik** tafakkur takomilida muallif dunyoqarashi bilan yonma-yon qahramon nuqtayi nazari mustaqil harakat qiladi, hozirgi holatda tasvir ham, ifoda ham ikkilamchi mohiyat kasb etadi.

Akademik Matyoqub Qo’shjonov shunday izohlaydi: “Har bir voqea faqat voqea sifatida badiiy syujetga asos bo’la olmaydi. Agar voqealarning quruq o’zidan badiiy asar chiqaraveradigan bo’lsa, hayotda uchrab turadigan mayda-chuyda janjallar va oldi-qochdi voqealar tasviri asar deb hisoblanaverar edi. Realistik adabiyotda har bir voqea, u qaysi yo’nalishda bo’lishidan qat’iy nazar, ma’lum bir konsepsiyadagi ma’noni aks ettirishi kerak bo’ladi. Komik plandami, fojiali holatdami, dramatik yo’nalishdami – baribir hayot go’zalligining biror tomonini ulug’lashga qaratilgan bo’ladi. Aks holda, asar voqeabozlik, qo’pol naturalizmdan nariga o’tmay qoladi”³³. Binobarin, inson taqdiri bilan qiziqish har bir munaqqidning oldida turgan umuminsoniy muammolardan biridir. Shuning barobarida yozuvchi – kinoyadan o’sib chiqqan umid uchqunlarini

³² Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. –Б.73.

³³ Қўшжонов М. Танланган асарлар. –Тошкент: Шарқ, 2019. –Б.376.

o'quvchiga – sirli muallim tarzida tushuntirmoqchi bo'ladi. Badiiy uslub mavjud andozalarni o'zgartirishi negizida yangidan-yangi ufqlarning barkamollashuviga keng imkon berishi tayin. Kuzatish va tahlillar shunday xulosa berishga asos bo'lmoqda. Shuningdek, “yozuvchi qaysi janrda ijod qilmasin, asar yaratmasin, u obyektiv hayotga murojaat qiladi. Lekin obyektiv voqelik, ya'ni hayotiy material qanday bo'lsa, yozuvchi shunday tasvirlamaydi. Basharti shunday qilinsa, badiiy asar bo'lmaydi. Yozuvchi uni qayta yaratadi, o'zidan qo'shadi, o'rni kelganda “kamaytiradi”. Bu “qo'shish” va “kamaytirish” hayotiy haqiqatlarga zid bo'lmasligi, yozuvchi asarda ilgari surgan badiiy maqsad-konsepsiyaga muvofiq bo'lishi kerak. Demak, ijodkor voqelikka suyangan holda yaratgan asardagi konsepsiya o'z zamonasining dolzarb masalasi bilan aloqador bo'lsa, uning qalbida go'zallik, ezgulik hislarini yoki nafrat tuyg'usini uyg'ota olsa, ana o'shandagina o'z vazifasini ado etgan bo'ladi”³⁴. Zero, talqin va tasvir qorishmasida haqiqiy hayot chigalliklarini mardonavor yengishga odatlangan inson fenomeni yuzaga chiqa boshlaydi.

Janrning estetik mohiyati. Qissa janri tabiatida hikoya yoki romanga xos barcha komponentlar birdek harakatlanar ekan, unda jamiyatning ichkarisida ildiz otgan muammoning ko'lami bilan yozuvchi teran muloqotga kirishadi. Chunki janrning estetik mohiyati deganda unda ishtirok etuvchi obrazlarning harakatlanish sistemasi nazarda tutiladi. Ayniqsa, qissago'y jamiyat va hayot birligida yagona esetik aqidani ilgari suradi. L.Bo'rixon “Sirli muallim” qissasida ilgari surilgan estetik g'oya – XX asrning 60-yillaridan boshlab ro'y beradi. Yozuvchi biologik metodning talqin ranginligini idroklash barobarida uning yashovchanligini, qon-qonimizga singib ketgan soxta mafkura tazyiqida millatimiz boshiga kelajakda yog'ilishi mumkin bo'lgan muammolarni o'rta tashlaydi. Deylik, Najot G'aybullaning qissa arixtekonikasida tutgan o'rni shunday xulosaga kelishimizga asos bo'lmoqda. Shuni qayd etish lozimki, Najot G'aybulla o'ta ehtiyotkor odam bo'lgani bilan uning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlari bisyor.,

³⁴ Каримов Х. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар) –Тошкент:Yangi nashr, 2018. –Б.143.

Tergov harakatlaridagi ishtirokchilarning uning xulq-atvori, olib borgan ishlariga nisbatan bergan ko'rsatmalari juda rang-barang munosabatlardan iborat. Bu yerda yozuvchi kinoyani shu qadar o'tkir bir tasvir usuli sifatida qo'llaydiki, o'quvchi uning "nima demoqchi"ligini oldindan sezishida qiyinchilik tug'diradi. Shularni inobatga olib, "Sirli muallim" qissasidagi maktab xodimlarining alohida-alohida nutqi qissaning polifonik tafakkur negiziga bino etilganidan shahodat beradi. Direktor o'rinbosari B.Boymurodovning tushuntirish xatida quyidagi nidolarga ro'baro' kelamiz:

"Yoshim qirqdan o'tib qoldi. Besh bolam, bir xotinim bor. Xotin kasalmand: oshqozon yarasimi-yey. Har kuni inq-sinq. Bolalar ulg'aygan sayin quvonish o'rniga xavotirga tushyapman. Hammasining yaxshi yeb-ichgisi, chiroyli kiyingisi keladi. Hali tuzukroq institutlarda o'qitish, uyli-joyli qilish degan orzular ham bor. Ikki yilcha avval Ustoz Qalqanov qo'yarda-qo'ymay o'ziga muovini qilib oldi. Rad etolmadim. Keksa odam, ishonch bilan mo'ltirab turgandan keyin... Oyligimga arziyas choychaqa, bir tashvishimga ming tashvish qo'shildi. Yo'q, men ishdan nolimayman. O'qituvchilik ham jonu dilim. Yuragim, butun aqlu fikrimni berib ishlasam deyman. Lekin... Hamma yoqda chigallik.

Algebra o'qituvchimiz – Xayrulla, jingalak soch, xushsurat, quvnoqqina yigit ishdan ketdi. Juda bilimdon, hisob-kitob ilmini chuqur o'zlashtirgan muallim edi.

– Aka, - dedi u bir kun uyimga kelib. – Bir qo'shma korxona ishga chaqiryapti. Ketsammikin-a? Ko'ryapsiz iqtisod chatoq. Ro'zg'orimiz katta.

– Qancha oylik berishmoqchi ular?

– Xayrulla o'ziga va'da qilingan maoshni tilga oldi. Zo'r! Lekin men dabdurustdan oq yo'l tilayolmayman. Maktabni ham o'ylashim kerak-da, direktor o'rinbosari nomim bor.

– Ustoz Qalqanov bilan bi-ir maslahat qilish kerak-da, - deb mas'uliyatdan o'zimni oboqchdim"³⁵.

Eng kulminatsion nuqta mana shu yerda aks etadi. Chunki tushuntirish berayotgan o'qituvchi Najot G'aybullaga haqida bo'lishi kerak emasmi degan haqli

³⁵ Бўрихон Л. Сирли муаллим. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.238.

savol tug'ilishi tabiiy. Yo'q, aslo! Negaki, yozuvchi B.Boymurodov nutqini qissa konsepsiyasiga juda nozik kinoya bilan singdirib yuboradi. Bu yerda jamiyat-o'qituvchi va ta'lim muammosi ko'ndalang bo'lib turibdi. Sirli muallimning sirlari asta-sekin fosh bo'la boradi. Natijada, yozuvchi o'z ko'zlagan maqsadiga bamaylixotir, yengil yumor va kesatiq, piching bilan erisha boshlaydi. Shunday qilib, adib janrning estetik mohiyatiga – biografik metodni ham istifoda qiladi. Bu haqda so'z borganda, Irving Stounning quyidagi mulohazalari o'rinli: “Amerika tarixining eng ajoyib tadqiqotchilaridan biri bo'lmish Charlz R.Bard bir gal muammoni hal qilishda menga yordam beraturib shunday degan edi: “Men har kuni yangi manbalarda shunaqa materiallar topamanki, ular o'ttiz yil mobaynida ishonib kelgan narsalarimdan unisi yoki bunisini inkor etadi”. Biografik qissa muallifi uchun tarix tog' emas, daryodir. Hattoki yangi faktlarni izlab topish imkoniyati qolmagan taqdirda ham, baribir, eski faktlarni yangicha qabul qilish, zamonaviy saviyada talqin qilish imkoniyatlari bo'ladi. Bu yangi talqin esa eski tarixni yangi nur bilan yoritadi va unga yangi ma'no baxsh etadi. Shuning uchun esda saqlash lozimki, biografik qissaning muallifi arxeologga o'xshaydigan odam, u shunchaki belkurak ko'tarib olgan odam emas. Uning peshonasidan oqqan teri yoxud qo'llarining qavargani – bu haqiqiy ishga endigina kirisha boshlaganining oddiy belgisi, xolos. U hali yangi ochilgan materiallarini talqin qilib bermog'i kerak”³⁶. Darhaqiqat. L.Bo'rixonning “Sirli muallim” qissasi harchand realistik yo'sinda ifoda qilingan bo'lmasin, biografik metod qonuniyatlarini o'zida aks ettirgan yagona estetik materiyani ilgari suradi. Unda yozuvchi-jamiyat-zamon birligi o'z ifodasini topadi. Muhim jihati shundaki, biografik talqin metodologiyasida muallimlarning o'z kechinmalari bilan yolg'iz qolishi, aslida, hayot qonuniyatini idroklashda katta amaliy tajribaning yetishmasligi, bir tomonda oila taqdiri, ikkinchi tomonda o'quvchilar taqdiri orasida chorasiz qolgan muallimalarning iztiroblari har bir o'quvchini chuqur o'yga toldiradi. Eng xarakterli jihati shundaki, yozuvchi Najot G'aybulla timsolida jamiyatdagi katta-kichik ishlarga munosabatli nutq paydo bqiladi. Ya'ni qissadagi asosiy

³⁶ Стоун Ирвинг. Биографик қисса ҳақида. –Тошкент: Маънавият, 2010. –Б.101.

muammo – Najot G‘aybullaning kirdikorligini fosh qilish bo‘lsa, u yerda har bir xodim o‘zini-o‘zi fosh qilib qo‘yadi. Ta’lim berishdagi maddohlik, yuqorining ko‘rsatmalariga labbay deb turish, o‘z nafi yo‘lida maktab fondini talon-taroj qilish, ta’limga yetarlicha e’tibor bermaslik, o‘quvchilarning saviyasiga diqqat qaratmaslik, tanlovlar va tadbirlarning nomigagina o‘tkazilishi fikrimizni to‘laqonli quvvatlaydi.

Muallif-o‘qituvchi-jamiyat birligida janriy-kompozitsion yaxlitlik ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, Najot G‘aybullaning sirli harakatlari faqat uning emas, butun maktabning hayotini ochib tashlashga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, yozuvchi direktordan tortib, oddiy qorovulgacha batartib, o‘zlarining xatti-harakatlari negizida ifodalab beradi. Buning natijasida inson tuyg‘ulari, orzulari, qishloqning kun ko‘rish tarzi ham ochiq-oshkor kinoya sahnida namoyon bo‘ladi.

Prof. Q.Yo‘ldoshev yozuvchi L.Bo‘rixon ijodi xususida shunday yozadi: “Ijodkor universal fikrlay boshlaganda odam va olamga kinoyaviy yondashuv ustuvorlik qiladi. Odam yoki millat dunyoga chiqib, o‘zgalarga yaqinlashayotganda, kinoyaviy tasvir adabiy ifodaning asosiy vositasiga aylanadi. Negaki, bunday vaqtda, estetik tafakkur voz kechilayotgan milliy qadriyatlardan bir qadar zada, o‘zlashtirilayotgan begona qadriyatlarga esa bir muncha yot bo‘ladi. Inson ham, millat ham bir sifatdan boshqasiga og‘riqsiz, osongina o‘tib ketolmaydi. Shunda ijodkor shaxs o‘zi va olam holatiga kinoyaviy nazar bilan qarashga, kamchiliklarga murosasiz bo‘lib, oshiribroq tasvirlashga moyil bo‘ladi. Shuning uchun ham: “Kinoya metanuqtaning o‘yini, bayonning kvadratidir”, deydi yangi romanchilik nazariyotchisi Umberto Eko”³⁷. Ko‘rib o‘tganimizdek, prof.Q.Yo‘ldoshev masalaga teranroq nazar tashlamoqda. L.Bo‘rixonning nafaqat hikoya, qissa, balki romanlaridagi og‘riqli iztiroblardan biri – kinoyaviy ko‘rish, shu orqali jamiyatning muammolariga badiiy nuqtayi nazardan nazar tashlash ekanligidadir. “Sirli muallim”ning poetik konstruksiyasida ifoda qilinayotgan voqelik asta-sekin obrazlilikning chuqurlashuviga katta zamin hozirlaydi. Tarix va

³⁷ Йўлдошев Қ. Киноя бағридаги умид. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. –Б.489.

huquq fanining oliy toifali o'qituvchisi X.Xurramovanning tushuntirish xatida bolalar mehnatiga vaqtida barham berishni o'rta tashlagan taklifi qo'l keladi. Aslida u ich-ichida bolalar mehnatini juda qoralab turibdi. Biroq davrning zulmi va zalolati qarshisida bolalarni mehnatda obdon chiniqtirish kerak degan g'oyani butun jamoaga taklif bilan chiqadi. Bir qarashda tarix va huquqshunoslikning boshqa-boshqa soha ekanligini o'zi ham tuzukroq anglab yetmaydi. O'qituvchi tarixning ikir-chikirlarini yaxshi bilgani bilan, o'z huquqining toptalishini sira xayoliga ham keltirmaydi:

“Shunday kunlarning birida Najot G'aybulla – yangi muallim paydo bo'ldi. ko'rinib turibdi – birorta boyvachchaning injiq erkatoyi. Tagida mashina, saruposi qimmatbaho, yuz-ko'zida boyvachchalarga xos g'urur, o'ziga ishonch. Bunaqa qiyofa maktabdek kamtar-kamsuqumlar maskaniga mutlaqo yot. Sirli va xatarli nusxa paydo bo'lganini yurakkinam darhol sezdi. Yangi muallim haqida zudlik bilan sovxozimiz xo'jayini Chinor Toshtemirovichni ogohlantirdim. “Erinmasangiz kuzatavering uni”, - dedi xo'jayin ijirg'anib. Albatta, bunaqa shubhali nusxalar haqida eshitganda ul zot ijirganadi-da. Xullas, Chinor Toshtemirovichdan fatvo olib, yeng shimarib ishga kirishdim. Najot G'aybullaning har bosgan qadamini ko'zdan qochirmay, har aytgan ilmoqi-sirtmoqli suhbatlarga tortib ko'rdim. Yo'q, bu ham tulki ekan. Osonlikcha yon beradiganlarga o'xshamaydi. Kuzatib, tasmollab bildimki, boshqa muallimlar ham Najot G'aybullaga begonasirab-begonasirab qarashyapti. Fursatni boy bermay, duch kelgan hamkasabani chekkaga tortaman: “Hushyor bo'laylik... jipslikni qo'ldan bermaylik, sal g'alati yigit ekan-a?!”

Hamkasablar hushyorlik bilan hurkib ketishadi. Qo'rqoqlar.

Ammo tan olish kerak, Najot G'aybulla bolalarga jonkuyar, dars o'tishga ustasi farang ekan. Hech qaysimizga o'xshamaydi-ya?! Menkim, oliy ta'limli o'qituvchi ham yangi muallimga beixtiyor moyil bo'lib qolgan kezlirim ham

topiladi. Lekin darhol o‘z muqaddas burchimizni eslab, hushyorlik kalimasini bot-bot qaytardim”³⁸

Keltirilgan lavhada Najot G‘aybullaning bir qarashda sodda, bir qarashda mug‘ombir qiyofasi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Ayniqsa, X.Xurramovaning ko‘rsatmasida o‘zida ishonch yo‘qdek. Chunki u hali Najot G‘aybullaning chindan ham kim ekanligini bilmaydi. Bilishga harchand urinmasin, tagiga yetolmaydi. Ko‘p qirralli, sirli, sehrli muallimning jamiyat hayotiga bunchalar sadoqat bilan yondashishlari kishini o‘ylantirib ham qo‘yadi. Yozuvchi bu asardagi Najotning haqiqatdan ham hayotda prototipini topgan. Aynan shu qahramon Vatanimizning turli burchaklarida xizmat qilib, hayot kechirayotganidan ham cheksiz xabardor. Bunday deyishimizning boisi, Najot G‘aybullaning botinidagi orzulari – ovloq cho‘l qo‘ynida hayot kechirayotgan ko‘plab iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashdir. Jamiyatga bilimning, tafakkurning kerakmasligi, tadbirkor va epchil shaxslarning qo‘liga tushgan guldek vatan fidoyilari qissada iztirob bilan tilga olinadi. Yoshi bir joyga borgan maktab fidoyilarining yoshlarga yo‘l bermasdan, amal va boshqa kurslarda uzoq o‘tirib qolishlari natijasida maktab tuman miqyosida juda ko‘p sohalarda orqada qolib kelayotgani ham ham kinoyaviy talqin qilinadi.

Qissaning estetik mohiyati haqida so‘z yuritganda, XX asr sho‘ro zamonidan qotib qolgan badiiy san’atning insonni taftish va talqin qilishda bir yoqlamalikdan sira uzoqlasha olmagan yodimizga keladi. Chunki inson har qanday sharoitda o‘zining yelkasidagi majburiyatlardan tamomila xalos bo‘lib yashay olmaydi. Qissanavis L.Bo‘rixon Najot G‘aybulla obrazini ana shunday murakkab tizimda ifodalaydi. Masalan, turli xil kasb egalari ko‘rsatmasida Najot G‘aybullani inkor va tasdiq qiluvchilar bor. Bir qarashda, ichkarisida uni yaxshi ko‘radi, tashqarisida firibgar va yolg‘onchi ekanligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Mana shu ikkilik – qissada badiiy uslubning kinoyaviy-parodik yo‘sini murakkablashuviga yetaklaydi.

Faylasuf Shopengauer ta’kidlashicha: olamiy ixtiyor yoki ixtiyor sifatidagi olam insonni o‘z yo‘rig‘ida tutadi. Inson odatda ixtiyor qo‘lida, xohish-istaklar

³⁸ Бўрихон Л. Сирли муаллим. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.254-255.

iskanjasida yashaydi. Uning yashashga bo'lgan ixtiyori, istagi g'oyatda kuchli. U yashash istagida yangidan-yangi ixtiyor iskanjasiga tushaveradi. Insondagi xudbinlik uni ixtiyorga qul qilib qo'yadi: o'zim bo'lsam, hammasi meniki bo'lsa, degan aqida bilan ish ko'radi. Bir istak bajarilishi bilan ikkinchisiga harakat boshlanadi, undan keyin uchinchisiga, to'rtinchisiga va hakoza... inson bir istak bilan kifoyalanmaydi. Natijada uning hayoti tinimsiz harakatdan iborat bo'ladi, o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymaydi. Bu hayot – hayot emas, yovuzlik, yolg'on, azob, fojialardan iborat mavjudlik”³⁹. Haqiqatdan ham, faylasauf Shopengauyerning nazariy qarashlari bugunning yozuvchilari uchun ham o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, qahramon bir tomondan asar liniyalarida o'zgarib, murakkablashib, oydinlashib boradi. Yozuvchi bekorga qissa nomini “Sirli muallim” deb qo'ygan emas. Mana shu tamoyilga diqqat qaratadigan bo'lsak, haqiqatdan ham – sir yashirin. U sirni yozuvchi maktabdagi o'qituvchilar nutqiga bo'lib yuborgan. Tergovchi parda orqasida harakatlanadi. Uning biror masalaga munosabatli nutqi unchalik rol o'ynamaydi. Badiiy nutq estetik qamrov va ideal sari talpinish yozuvchining ijodiy konseptual qarashlari ekanligi namoyon bo'ladi. Qissadan –hissa shuki, yozuvchi ovloq cho'l qo'ynida o'zlarining orzu-umidlarini ko'zlab, tinch-totuv yashayotgan qishloq ahlining xarakterini o'zgartirishga Najot G'aybullaning sabab bo'lishini ko'rsatish orqali o'tmish sarqiti – sovetcha mafkuraning bugun uchun, ya'ni istiqlolning odimlashiga xalaqit qilishini alohida uqtirishdan iborat ekanligi ayonlashadi.

Prof. H.Umurov shunday yozadi: “Yozuvchi har bir qahramonning ovozi, yuz ifodasini, kechinmasini, so'zlash uslubini berish uchun uning xatti-harakatini, iroda yo'nalishini asoslash uchun, albatta, o'sha qahramonlarning qiyofasiga kirishni shart qilib qo'yadi. Busiz yozuvchi, qahramonning o'sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o'ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o'rtasida o'xshashlik bo'lmasa-da, unda yozuvchi avtobiografiyasining unsurlari ko'rinmasa-da, baribir, o'zining yuzlab qahramonlarining ichki tabiatiga mos o'zak nuqtalarni topib

³⁹ Абдулла Шер. Абадият ва умр. –Тошкент: “Файласуфлар” нашриёти. 2017. –Б.156.

tasvirlash qudratiga ega. Chunki yuqorida aytganimizdek, har birimizda yashirin tarzda insoniy xususiyatlarning hammasi mavjud, lekin ulardan qay biri bo'lsin ichki ehtiyoj (qahramon xarakteri) talabi bilan birinchi planga chiqqanida, yozuvchi tasavvurida jonlana beradi. Ba'zilar o'ylaganidek, hamma dunyoda bor ruhiy kechinmalarni yozuvchi boshidan o'tkazgan bo'lishi shart emas".⁴⁰ Binobarin, olingan misolda dastlabki asos – g'oya (yozuvchi)ning olam va odamga bo'lgan munosabatidan boshlab shakllana borishi mumkin. Masalan, bolalikda ko'rilgan qandaydir voqelik inson ongida, qalbida o'zining ijobiy va salbiy xususiyati (izi)ni qoldirgan bo'lganida asta-sekinlik bilan davrini sezilmagan tarzda o'zgartirib boraveradi. Ushbuni yozuvchi-muallif tush sifatida, hayotda progmatik ro'baro' kelgan taqdirda hamda tushuniksiz bir kayfiyatda, vaziyatda sodir bo'lishiga imkon beradi. "Yozuvchi shaxsining shakllanishi, uning o'ziga xosligi tarixiy sharoit va muhitning ta'sirida ro'y beradi. Muallifning nuqtayi nazari ma'lum ma'noda ijtimoiy-tarixiy, siyosiy-dogmatik, diniy-ma'rifiy sohalar bilan bevosita chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Bunday tavsiflash yozuvchi dunyoqarashini germeneytik xarakterda tadqiq qilishni taqozolaydi. Mutanosiblik va mansublik yozuvchini o'zi yashab turgan davrga ixtiyoriy ravishda qaram qilib qo'yishi ong va tuyg'u puchmoqlarida katta yakranglikni keltirib chiqaradi. G'oya va mantiq chegarasi aynan muallif ongi shuurida, zehniyatida yanada boshqacha bo'yoqlarda yuzaga qalqib chiqa boshlaydi"⁴¹. Demak, aniq g'oya va mantiq mavjud bo'lgan asargina uzoq yashashga haqli. Shuning uchun ham XX asr G'arb adabiyotidagi yetakchi tendensiyalarda norealistik asarlar o'zining ikkinchi umrini yashashda davom etib kelmoqda.

Umuman, XX asr o'zbek qissachiligining mantiqiy davomi sifatida takomillashib borayotgan hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizm muammosi Luqmon Bo'rixon ijodining ajralmas bir qismini tashkil qiladi. Epik nasr takomillashuvi G'arb-u Sharq an'analarning uyg'unlashuvi, qissa modifikatsiyasida rang-barang talqin hosilasini yuazag keltirdi. Kinoyaviy ramziy

⁴⁰ Умуров Х. Бадий ижод асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –Б. 91.

⁴¹ Водясова Л., Жиндеева Е. Способы представления авторского сознания как коммуникативная стратегия художественного творчества. – Тамбов: Грамота, 2015. № 8 (50): в 3-х ч. Ч. III. С. 44-46.

usullar genezisi Gulxaniyning hikoyatlarida aks etgan ma'no ko'chishlar, zamon evrilishlarida haqiqiy inson muammosini anglashga zamin yaratdi. Bugun hikoyatdan – qissaga, qissadan – romanga o'tib turuvchi metamorfoza dunyo adabiyotining bir-biriga tutashuvini taqozo etmoqda. Shunday ekan, L.Bo'rixonning qissalarida insoniy munosabatlarning turfa tig'izlashuvi hamda badiiy-psixologik talqin o'ziga xosligi munosabatli nutqni paydo qiladi. Zero, kuzatishlar shunday asosga egaligi bilan qadrlidir.

Bob bo'yicha xulosa

Mazkur bob bo'yicha yuqoridagi kuzatish va tahlillarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani ilgari surdik:

1. O'zbek qissachiligi qariyb ming yillik tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Qissaning biografik va esselashuv jarayoni istiqloq davrida yanada avj nuqtalariga chiqdi. Mana shu jarayonda L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, M.Sholoxov, A.Qodiriy, Cho'lpon, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor. Sh.Xolmirzayev kabi yozuvchilar an'analari o'zbek adabiyotining faol ijodkori Luqmon Bo'rixon izlanishlarida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Qissaning poetik talqinida badiiy psixologizm masalasi bugun ham o'z dolzarbligini yo'otgan emas. Endilikda insonning xarakter ruhiyatini talqin qilish murakkab va ko'p tarmoqli moduslar bilan chambarchas bog'liqli sezilarli darajada takomillashdi.

2. A.Qodiriy an'analarga mufassal tayangan A.Qahhor izlanishlari o'zining yorqin ranglarda namoyon bo'lganligini "O'tmishdan ertaklar" essesinde ko'rishimiz mumkin. Bunday tamoyil keyinchalik o'zi bilan birga zamondosh bo'lgan Oybek, G'.G'ulom nasrida ham uchraydi. Baxtsiz bolalikning yorqin ranglarda aks etishi, har bir ijodkor fitratidagi o'chmas xotiralarning mahsuli sifatida qarash joiz. Ayrim asarlarda zamon nafasi sezilsa-da, undagi badiiy qiymatni hech qachon inkor qilib bo'lmaydi.

3. Tadqiqotchi adib Irvin Stoung – biografik qissani juda yaxshi baholaydi. Biroq u o'z davrida yozilsa maqsadga muvofiq deya ta'kidlaydi. Shu ma'noda, G'.G'ulomning "Shum bola" asarini ayni shu tamoyilga mos tushishini ta'kidlash muhim. Asarda yozuvchi bir maqsadni ko'zlaydi: bolalikda olingan bilim

qanchalik mustahkam bo'lsa, u insonni kelajakda kuchli inson bo'lib yetishishga olib keladi, degan to'xtamga keladi.

4. L.Bo'rixon "Sirli muallim" qissasidagi essegga avtobiografiyaga xos unsurlarni Najot G'aybulla obraziga uyg'unlashtiradi. Bunday tamoyil Sh.Xolmirzayev traditsiyasini ko'z o'ngimizga kelishiga imkon beradi. Yozuvchi o'z so'zini hali yosh va izlanishga kirgan pallalardayoq isbotlay olganligida qabarib ko'rinadi. Jumladan, yozuvchi ba'zi o'rinlarda o'rinsiz takrorlarga diqqat qaratadi. Bu badiiy uslub keyingi asarlariga ham ko'chib o'tganligining shohidi bo'lamiz.

5. L.Bo'rixon xuddi tabiatni ko'z oldingizga ko'chirib olib kelgandek yo'sinda ish tutadi. Asardagi ayrim o'rinlar nisbatan ortiqchadek. Masalan, Jamshidning o'zi xatti-harakatlari bilan pok muhabbatini izhor qilib qo'yishi. Ba'zi o'rinlarda yozuvchining Umida xarakteriga unchalik tushmay qolish tasvirlarini ko'rishimiz mumkin. Bu yosh va umidli yozuvchi afsuski oramizdan erta ketdi. Uning ko'plab asarlari bor edi. O'zbek qissanavisi L.Bo'rixon izlanishlarida badiiy psixologik tarang vaziyatlar har bir davr uchun muhim bir konseptual sistembutunlik ekanligi ayonlashadi. Davr muammosini jiddiy boshidan o'tkazgan adiblarga shunday asarlar yaratishi tayin.

Asardagi o'tkir kinoyaviy-parodik usul Najot G'aybulla obrazida tipiklashtiriladi. Ya'ni sirli muallimning siri asar oxirida fosh bo'ladi. O'nlab qahramonlarning jamiyatni rivojlanishi uchun mas'ul ekanligi, har kim o'z vazifasini sidqidildan bajarishi shartligi yozuvchi ijodiy konsepsiyasining asosiy fragmentlari ekanligi ayonlashadi.

II BOB. BADIY PSIXOLOGIZM SYUJET VA KOMPOZITSIYANI UYG‘UNLASHTIRUVCHI UNSUR SIFATIDA

2.1. -§. Syujetning voqelikni yuzaga chiqarishida psixologik vaziyat

Badiiy asarning syujeti va kompozitsiyasi haqida so‘z borganda, avvalo, mazkur ikki tushunchaning o‘ziga xos qirralarini to‘laonli idrok etib olmoq joiz. Negaki, syujet kompozitsiyada maromiga yetadi. Ayrim olimlar bu ikki tushunchani alohida-alohida ajratib o‘rganishni taklif qilsa, ayrimlari uyg‘unlikda talqin qilishni afzal deb biladilar. Aristotel zamonidan buyon ham syujetning fabuladan keyingi manzili, ya’ni tuzilishi kompozitsion unsurlar dinamikasida yaqqol namoyon bo‘lishini idrok etish muhim omil bo‘lib kelmoqda. Syujet insonning voqelikni qay tarzda amalga oshirish maydoni. Yozuvchining olam va odam haqidagi muhim dunyoqarashining ajralmas qismi ekanligini unutmaslik lozim. Oddiy ikki qator she’rda ham muayyan syujet va uni yuzaga chiqaruvchi kompozitsiya mavjud bo‘ladi. Shunday ekan, fabula hali hayotning o‘zi, voqelik, uni qayta ishlangani, tartibga solingani, izchillik negizida namoyon bo‘lishi syujetdir. Syujetda o‘ziga xos unsurlar bo‘ladiki, bu unsurlar badiiy psixologizm prinsiplarida muvofiqlashadi.

“Manbalarda kompozitsiya badiiy asar qismlarini yagona badiiy konsepsiya asosida joylashtirish, ma’lum badiiy-estetik maqsad yo‘lida biriktirish degan terminologik ma’nolarni anglatishi qayd etilgan. Shuning uchun asar kompozitsiyasini shakllantirishda, avvalo, syujet va uning tarkibiy qismi, konflikt, fabula, peyzaj, portretlar bilan birga asar tili, obrazlar tizimi, yozuvchining uslubi ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Lekin bir narsani aytish kerakki, qismlar ma’lum niyatni amalga oshirishda me’yordan chiqib ketmasligi kerak. Ya’ni kompozitsion komponentlardan foydalanishda biriga ortiq darajada e’tibor qaratish boshqalarining asardagi badiiy-estetik vazifasi ochilishiga soya solishi mumkin”⁴². Ko‘rinadiki, asarning qism va bo‘limlarida badiiy syujet va kompozitsiyaning yagona estetik markazda uyushuvi inson iroda yo‘nalishining o‘ziga xosligidan

⁴² Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. –Тошкент: “Маърифат битиклари”, 2021. –Б.67.

dalolat beradi. Jumladan, L.Bo‘rixonning juda ko‘plab badiiy izlanishlarida shahar va qishloq orasida kechadigan voqeliklar ruhiy tahlili o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Asarlaridagi badiiy qahramonlar ko‘pchiligi oddiy qishloqning to‘pori odamlari, o‘qituvchilar, dehqonlar, shifokorlar, fermerlardir. Bunday deyishimizga sabab “Jaziramadagi odamlar” romanidan o‘sib chiqqan, qolgan qissa va hikoyalarida cho‘lquvarlar hayotidan xabar beruvchi voqealar silsilasini kuzatish mumkin. Deylik, “Quyosh hali botmagan” qissasidagi pokiza muhabbat qarshisidagi do‘stlik rishtalarining toptalishi “inson taqdirini” o‘zgartirish mumkin emas, degan konsepsiya tig‘izligi yozuvchi tafakkurining mahsuli ekanligidan dalolat beradi.

Voqealar rivojining borishi, asar ekspozitsiyasida aks etish tamoyillari syujetning ajralmas halqalaridir. Eng kichik zarradan katta umumlashmagacha bo‘lgan oraliqdagi ro‘y berishi mumkin bo‘lgan jarayonlar syujetning qay tarzda tartiblashuvidan dalolat beradi. Pirovard maqsadida syujet badiiy asarning universal modeli. Unda voqelik va badiiy shartlilik kesishgan chorrahada kompozitsion tashkillantirish masalasi muhim atribut sanaladi. Demak, syujet o‘z-o‘zidan voqelikning qay tariqa ro‘y berish jarayonigacha qamrovni zimmasiga oladi. Negaki, syujetning turli hil unsurlari badiiy xarakterning ishlanganlik darajasi, ayniqsa, ruhiy-falsafiy talqinning chuqurlashuvi, qay tariqa ifodalanishi bilan ham o‘lchanishi tabiiy bir holdir.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da qayd etilishicha: “S. Personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir. Shu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab S.ning ikki tipi ajratiladi: a) “tashqi harakat” dinamikasiga asoslangan S.; b) “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan S. Birinchi tipdagi syujetlarda personajlarning biror maqsad yo‘lidagi xatti-harakatlari, kurashi, to‘qnashuvlari, hayotdagi burilishlar tasvirlanadi va shu asosda ularning taqdiri, ijtimoiy mavqeida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. Bu nav S.larda voqea to‘laqonli tasvirlanadi va o‘z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. S.ning ikkinchi tipida voqealar o‘z holicha

emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etib, asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatida burilishlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi"⁴³. Haqiqatdan ham, badiiy syujet badiiy psixologizmning teran namoyon bo'lishi uchun keng imkoniyat tuhfa qiladi. Natijada, yozuvchi ijodiy konsepsiyasida yagona estetik mezon yuzaga chiqadi. Yozuvchi L.Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasida syujet va kompozitsiya uyg'unligi psixologik tarang vaziyatni yuzaga keltiradi. Qissa garchand ikki do'stning yoshligidan boshlangan juda katta bir hayotiy aqidani ilgari surishga qaratilgani bilan nihoyatda dolzarb masalani namoyish qilishga bag'ishlanadi. Qissa ekspozitsiyasidagi quyidagi tasvir yozuvchi badiiy mahoratining chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi:

"Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Ming to'qqiz yuz sakson ikkinchi yilning bahorida, erta-indin jahon urushi boshlanar emish degan mish-mishlar xo'b avj olgan kunlarning birida usta Abilning uyida qoramag'iz, to'zg'in sochlari jingiltob, qoshlari qiyg'och, kipriklari uzun-uzun, ko'zlari ma'yus, yetti-sakkiz yashar qizaloq paydo bo'ldi. Jang-u jadal boshlanib, atom bombalari kasofatidan dunyoning kuli ko'kka sovrilsa, mol-u mulkim kimga ham qolardi degan o'yda iztirob chekib yurgan usta Abil sahar chog'i bisotidagi bor-yo'q ikki bosh oriq qo'yni bir paytlar pochtachi Tog'ay tog'adan sotib olgan motosikli aravachasiga yuklab viloyat markazi biqinidagi bozorga yo'l olgan va kechga yaqin ko'rganlarni hang-u mang qoldirib shu qizchani olib qaytgan edi. Kimdir uni shahardagi tashlandiq bolalar internatidan xatlab olibdi desa, tag'in birov usta qizchani bir bosh sovliq evaziga lo'lilardan sotib olgani haqida gap-so'z tarqatdi, ya'na allakimning qasamlar ichib pichirlashicha, harbiy xizmat chog'i Abil bilan do'st tutingan marilik bir turkman chavandoz qiyomatlik birodari ko'p yillardan beri tirnoqqa zor, aziyat chekib yurganiga chiday olmay o'zining besh qizidan birini jo'rasiga farzandlikka beribdi. Alqissa, bunday mish-mishlarning, shivir-shivirlarning uch-quyrug'i yo'q edi.

⁴³ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.289-290.

Kimning gapi chin, kimniki o'trik, birov aniq-tiniq bilmaydi. Ammo bir hol aniq ediki, o'sha kuni Uldon checha eri boshlab kelgan qizaloqni ko'z yosh-u siniq tabassumlar bilan bag'riga olgan, manglayidan o'pib, sochlarini silagan, yuz-ko'zida mamnunlik, minnatdorlik zohir bo'lgan"⁴⁴.

Yozuvchi asarni juda ajoyib jumla bilan boshlarkan, Absal polvonning qishloqda kurashchilarni tarbiya qiladigan katta polvon ekanligi haqida axborot berarkan, yozuvchi badiiy tasvirlarda – kinoyaga yana ruhiy tahlil metodi sifatida alohida ahamiyat bermoqda. Chunki yozuvchi uslubining betakrorligi aynan kinoya bilan o'lchanadi. Demak, Abil akaning qiz asrab olish haqidagi qahramonligi butun qishloqqa tarqaladi. O'zi tirnoqqa zor Abilga omad qushi kulib boqqanki, natijada qishloq ahli turli xil mish-mishlar bilan masalaga o'zlaricha to'n bichmoq payida bo'ladi. Bu yerda yozuvchi Norsoat tilidan hikoya qilarkan, o'sha oldingi qissadagidek 41-sovxoiz timsolida voqelikni yagona estetik markazda uyushtiradi. Asarning bosh maqsadi Davronbek va Norsoatning yoshlikdan qalin do'stligi, ularning ko'ngillarida paydo bo'lgan yuksak muhabbat uchqunlari Absal polvondan kurash sirlarini teran o'rganishi, har qanday vaziyatda chigal muammolarni birgalikda yechishi oxir-oqibat – muhabbat oldida kuchlilik ojizlik belgisi ekanligi ayonlashadi. Yozuvchi ramziy-majoziy ma'noda qissada juda katta masalalarni realistik yo'sinda qissa syujetiga singdirib yuboradi.

Adabiyotshunos M.Boboxonov qayd etishicha: "Adabiyotni "ruhiylashtirish" inson ma'naviy-ruhiy jihatlarini munosib yoritishga yozuvchilarga zarur bo'ladigan badiiy vositalarning kashf etilishi va ulardan samarali foydalanishga olib keladi. Bu jarayonda shakl va usullarni bir joyga to'plash, psixologik vositalar adabiy palitrasining ko'rinishlari o'zgarayotganini qayd etishning o'zi yetarli emas. Boyib borish faqatgina yangi resuruslar (simol, mif, "ong oqimi" texnikasi, makon-zamon eksperimentlari va h.k.) evaziga yuz berayotgani yo'q, psixologizmning metauslubga aylanib borayotganligi kuzatilmoqda. N.S.Leytesning haqli mulohazasiga ko'ra, "psixologizm bugun o'zining nafaqat shaxs ichki dunyosini yoki uning ma'naviy jarayonlarini ochadigan, balki syujetni

⁴⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

belgilaydigan va struktura tashkil etadigan ta'sirchan omil ekanligini ma'lum qilmoqda". Ya'ni, "dunyo suratini ruhiylashtirishdan" butun romaniy makonni ruhiylashtirishga o'tilmoqda"⁴⁵. Haqiqatdan ham, qissada psixologizm muammosi teran ildizlariga tutashadi. Davronbek va Norsoatning tarang tortishuvlari asta-sekinlik bilan jarlik hosil qila boshlaydi. Bolaligidan birga o'ynab katta bo'lgan har ikkala yosh kelajakda bir-biri bilan dushman bo'lib qolishi – muhabbatning kuch bilan egallanishi lozimmi yoki qalbning ehtiyoji o'laroqmi degan dolzarb savol tegrasida sobit qolganligi bilan belgilanadi. Chunki Norsoat ham yaxshilikni unutmaydigan, halol va chapdast yigit. Qissa voqeligi Norsoat ishtirokisiz biror nuqtaga harakatlanmaydi. Savol tug'iladi: yozuvchi nega asar syujetida bot-bot quyosh hali botmagan degan aqidani ilgari suradi. Bu bilan u nimani nazarda tutmoqda. E'tibor bergan bo'lsangiz, yuqoridagi keltirilgan parchada Abil cho'ponning ikkita qo'y sotaman deb, bitta qizni asrab olishi haqida axborot berib o'tiladi. Diqqat qaratish muhimki, yozuvchi "Quyosh hali botmagan" deganida eng muhim jihat hayotning hali davom etishi, xavotirga o'rin yo'qligi, ikkinchidan, insonning insoniy munosabatlarning chigal vaziyatda ham yechim topishiga ishora qilinmoqda. Qizning asrab olinishi bilan qishloqdagi mish-mishchilarning to'qib chiqargan g'oyalari orasida hech qanday bog'liqlik bo'lmasa-da, urushning dahshatidan xabardor qiluvchi signal borligi o'quvchini o'ylantirishi tabiiydir. 1982-yil voqeasi. Demak, Afg'onistondagi fuqarolar urushi nazarda tutilishi ham mumkin. Chunki yozuvchi "Sirli muallim" qissasida O'roq Umrzoqovning 41-posyolkadan ekanligi, urushda qahramonlarcha halok bo'lib kelishi, qishloqda unga atab haykal o'rnatilishi haqida so'z yuritiladi. Aslida yozuvchi bitta cho'lquvarlar hayotidan olingan voqelikni – turli xil shakllarda idroklab, turli xil syujet va g'oyalarni tartiblashtirib asar yozmoqda ekanligi ayon bo'lib qolmoqda. Har ikki asardagi voqelik, ruhiy tahlil alohida-alohida olam. Shunday bo'lsa-da, yozuvchi syujet voqealarini turli xil ko'rinishlarda talqin qilayotgani o'quvchida qiziqarlilik tug'diradi.

⁴⁵ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. –Тошкент: Bayoz, 2014. –Б.43.

Badiiy psixologizmning namoyishida peyzajning tutgan o‘rni. Yozuvchi L.Bo‘rixoning juda ko‘pchilik asarlarida badiiy psixologizmning tabiat, ya’ni inson ruhiyatining in’ikosi bo‘lgan ziddiyatlarda yaqqol seziladi. Ayniqsa, xarakterlar rivojida, ichki va tashqi harakat dinamikasida syujetning namoyon bo‘lishi badiiyat modusining muvofiqligini taqozolaydi. Biz qissadagi uchta muhim jihatni talqin qilishni maqsad qildik:

1. Badiiy psixologizmning ro‘y berish vaqti, qahramonlararo konfliktning namoyon bo‘lishi.
2. Peyzajning syujet va kompozitsiyani uyg‘unlatiruvchi komponent ekanligi.
3. Badiiy xarakter rivojida ruhiy tahlilning tutgan o‘rni.

Mana shu uchta jihat asar leytmotivida muhim funksiyani bajarishda qo‘l keladi. Ya’ni yozuvchi ijodiy konsepsiyasi insoniy munosabatlar tig‘izlashuviga keng yo‘l ochadi.

Badiiy asarda peyzaj haqida so‘z borganda, “Peyzaj (fr. Paysage – joy, yurt) adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interyer) tasviri. An’anaga ko‘ra. P. Deyilganda tasbiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki P. Nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, mas., biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chasining tasviri ham P., holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi P.ni voqealar rivojini to‘xtatib qo‘yguncha mufassal tasvirlashi (statik P), yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik P.) mumkin. Asarda P. Bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Biroq P.ning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega. Jumladan, P. Qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi”⁴⁶. Darhaqiqat, yozuvchi “Quyosh hali botmagan” qissasida kuchli dramatik momentlar bilan tabiatning injiq suratini ham e’tibordan chekkada qoldirmaydi. Chunki tabiat va jamiyat munosabatlari asar voqeligining yadrosini idroklashga

⁴⁶ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.221.

zamin hozirlaydi. Davronbek va Norsoat xarakterlarida ikki xil dunyoqarash mavjud. Bir-birlariga bo'lgan bolalikdagi o'zaro do'stlik, Tanzila timsolida asta-sekinlik bilan ziddiyatlarga aylanib boradi. Absal polvonning ularga kurashning inja sirlaridan xabardor qilib, ustozlik qilishi bu boshqa masala sifatida yuzaga chiqadi. Lekin qahramonlar kuchli tragik vaziyatlarda ruhiy iqlimini ushlashga muvaffaq bo'ladilar:

“Ko'chib kelgan kunimiz uch-to'rt bosh qo'y-echkimizni o'tlatib zovur tomonga borib qoldim. Bir payt baland-baland tuproq uyumlari ortidan o'zim tengi besh-olti bola qiyqirishgancha otilib chiqib, meni qurshovga olishdi. Hammasi yarim yalang'och, kinolardagi hindularga taqlidan aft-angorlariga, badanlariga turli bo'yoqlar surkab, boshlariga o'ralgan ipga tovuq patlari qadab olgan, biri yog'och miltiq, birisi o'q-yoy tutgan edi. Boshqalariga qaraganda bo'ychan va baquvvat, chayir bola safdan ajralib men tomon yurarkan o'ng qo'lini musht qilib boshi uzra baland ko'tardi. Xuddi shuni kutib turgandek qolganlari bab-baravar qichqirib yuborishdi.

– Quyosh hali botmagan!

Men butkul dovdirab qoldim. Bolalarning bo'yab tashlangan basharalariga qarab bir kulgim qistasa, bir ularning vajohatini ko'rib ko'nglinga g'ulg'ula oralardi. Oldga chiqqan bola yana hindu sardori kabi o'ng kaftini avval manglayiga, labiga tegizdi, so'ng boshi uzra bir aylantirib ko'ksiga bosdi.

– Biz Kengsoy burgutlarimiz! Sen kimsan, ey, o'g'lon?

– Men... Norsoatman, – dedim o'zimni tetik tutib, – bu yerga bugun ko'chib keldik.

– Olishasanmi yo urushasanmi?

Biroz o'ylanib qoldim. Urushsam, biror yerim jarohatlanishi mumkin, yaxshisi kurash tushganim ma'qul, juda zo'r bo'lsa, ko'p cho'zmay, yiqilibgina qo'yaman.

– Nega jimsan, Norsoat? – dedi bola o'sha tantanavor tovushda, – yo qo'rqdingmi, o'g'lon?

– Qo‘rqqanim yo‘q, olishaman”⁴⁷.

Keltirilgan lavhada Norsoatlarning tog‘ yon-bag‘ridan ko‘chib kelganligi, keyinchalik Kengsoy qishlog‘ida o‘qib, katta bo‘lganligi, o‘zaro do‘st orttirganligi haqida so‘z bormoqda. Yozuvchi bu yerda ikki jihatga mantiqiy urg‘u beradi, ya‘ni Davronbek va Norsoatning kurash tushib g‘olib bo‘lib. Keyinchalik 4 sinfni birga o‘qiy boshlashi, Absal polvonga shogird tushishiga ishora qilinmoqda. Qissada tabiat tasvri qahramon ruhiy intellektini namoyon qilishga qaratilganligi ayonlashadi. Davronbek Kengsoyda shirkat direktorining, o‘ziga to‘q oilaning farzandi. Norsoat esa otasidan ayirlgan bir yetim bola. Kengsoy burgutlarining bolaligi shu tarzda ochiqлана boradi. Asardagi kuchli lirizm o‘quvchining diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb qiladi. Ayniqsa. kengsoylik azamatlar hech narsadan qaytmaydigan, mard va jasur, polvon bo‘lib voyaga yetishayotganligini bot-bot – quyosh hali botmagan jumlası bilan to‘ldirib ko‘rsatishga qaratilgani bilan e‘tiborni tortadi.

M.Qo‘shjonov bu haqda: “Badiiy kompozitsiyaning xususiyatlari faqatgina markazni va uning mohiyati, sifat belgilarini aniqlash bilan cheklanmaydi. Kompozitsiyaning yana muhim masalalaridan biri muvofiqlikdir. Biroq, muvofiqlik g‘oyat nisbiy tushunchadir. Mavhum muvofiqlik haqida gapirish mumkin emas. Biror narsaning nimagadir, kimgadir muvofiqligi haqidagina so‘z bo‘lishi mumkin emas. Badiiy asar haqida so‘z borar ekan, ayrim detallar, epizodlar va kartinalarning xarakter va obrazlarga, mavjud asardagi yozuvchining badiiy maqsadiga muvofiqligi haqidagina so‘z bo‘lishi mumkin. Agar boblar va kartinalar ramkasidagi muvofiqlik haqida so‘z borsa, bu holda ham ularning o‘z markazlariga nisbatan muvofiqligi to‘g‘risida, shu bilan barobar, ularning umum markaziga muvofiqligini his qilish va aniqlash haqida so‘z bo‘lishi mumkin”⁴⁸. Jumladan, kompozitsion muvofiqlik shartlari nihoyatda keng tushuncha, syujetning o‘quvchiga qiziqarli chiqishi uchun, uning real vaqt nisbatiga monandligi,

⁴⁷ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

⁴⁸ Қўшжонов М. Танланган асарлар. –Тошкент: Шарқ, 2019. –Б.410.

yozuvchi demoqchi bo'lgan fikrning tiniqligi, asl maqsadga olib boruvchi yo'llarning ko'p qirraligi bilan ham belgilanadi:

“– Quyosh hali botmagan!

Davron o'ta tegmanozik, arazchi bola edi. Arzimagan narsadan ham nafsoniyati qo'zg'alib qosh-qoboq uyib olar, uni hovuridan tushirish uchun xushomadlar qilingan sayin battar jazavasi tutar, o'yin bo'lsa o'yinni, yig'in bo'lsa yig'inni tashlab qaylargadir ketib qolardi.

Bir kuni Davron maktabga, hali biz taraflarda urf bo'lmagan kamzul, yangi tuflni kiyib keldi. O'sha saraton Sochi degan joyda dam olib qaytgan otasining sovg'asi ekan. Sinfdoshimiz liboslarini ko'z-ko'z qila-qila shunday deb maqtandi. Biz hatto qo'l tegizishga ham botina olmay, do'stimizga yarashib turgan kamzul va tuflini havas bilan tomosha qildik. Ammo tarix darsi payti ko'ngil xiralik ro'y berdi.

“Kuyov jigit bo'p ketibsiz-ku, Tirkaship”, – deb kulimsiradi muallim.

Davron ilkis bosh ko'tardi. Lablari qimtilib, qoshlari chimrildi. So'ng alam va achchiqdan qip-qizargan ko'yi o'rnidan irg'ib turdi-da eshik tomon shitob bilan yurdi. Muallimning rangida rang qolmadi. Kimsan, rais, kimsan, Quvondiq qaysar bo'lgan odamning bolasini xafa qilish qanday oqibatlarga olib kelishini u juda yaxshi bilardi. O'qituvchi qo'llarini qanotday yoyib arazchining yo'lini to'sishga urinarkan, yalinchoq bir tovushda:

“Davronjon, uzr, Davronjon, hazillashdim”, – deya bot-bot takrorlardi.

Ammo sarkash bola unga zarracha quloq solmay o'zi tomon iltijo bilan uzalgan qo'llarni siltab tashlab tashqariga otildi. Biz sinfdoshlar o'rnimizdan duvva qo'zg'aldik.

“Iltimos, qaytaringlar uni, – dedi ustoz jonsarak tipirchilab, – Norsoat, G'iyos, ortidan chopinglar!”

Sinfimizdagi deyarli barcha o‘g‘il bolalar “Kengsoy burgutlari”dan edik. Muallim aytmasa ham, sardorning izidan borishni burchimiz deb bilardik. Shu sababdan ham sinfdagi to‘qqiz bola tashqariga ola-tasir yugurgilab chiqdik”⁴⁹.

Yozuvchi Davronbek va Norsoatning maktab davrlarini shu qadar muhabbat bilan tasvirlaydiki, natijada qissadagi – esselashuv jarayoni yodimizga tushadi. Avtobiografik talqin izchilligi bu qissada ham o‘quvchiga tezda singishadi. Negaki, badiiy peyzaj va portret, qahramonlarning o‘zaro konfliktlari, keskin ziddiyatlar og‘ushida qolgan ikkala do‘st taqdiri hech kimni befarq qoldirmaydi. Aslida, yozuvchi o‘zining bolaligi o‘tgan Qashqadaryoning G‘uzor tumaniga yaqin ovloq cho‘l odamlari taqdirini chizishga diqqat qaratganligini unutmaslik lozim. Sababi inson psixikasidabolalikdagi ko‘rgan-kechirgan har qanday voqelik – ijodkor uchun katta imkoniyatlar eshigidir. Bu lavhada ham rais Quondiqning o‘g‘li bo‘lishiga qaramay, har qanday yutuq yoki g‘alabaga bilim va salohiyat bilan erishaman degan Davronbekning xarakterini muallim unchalik payqamay qolib, hazillashadi. Axir, u kimsan Quvondiq raisning o‘g‘li. Mana shu lavhalar yosh Davronbekning ruhiy dunyosini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Demak, asarda bolalar olamini tasvirlashda yozuvchi juda katta masalani ilgari suradi. Bu holat Chingiz Aytmatovning “Oq kema”, Isajon Sultonning “Munojot” qissalarida ham yuksak muhabbat bilan qalamga olingani sir emas.

Yozuvchi tabiat tasviriga juda katta ahamiyat beradi. Dialogda aks etgan muloqot etiketi qishloqqa xos takallufning ochiq-oshkor qiyofasini namoyon qiladi. Chunki Absal polvonning shogirdi bo‘lish hammaga ham nasib qilmagan. Yozuvchi bu ikki qalin do‘stning tadqirini bir ko‘rishgandayoq o‘zgartirib yuboradi:

“– Biz hozir Absal polvonning oldiga ketyapmiz, – dedi ulovni nopisand boshqarib borayotgan ota. – Eshitgansilarmi shunday odamni?

– Yo‘-o‘q, – dedik baravar bosh chayqab.

– Hozir ko‘rasilar.

⁴⁹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

Biz bir yarim soatdan mo'ltroq yo'l bosdik. Aftidan, boshqa tuman chegarasida ketib borardik. Qo'riq hududlar bir-biriga juda o'xshash bo'lganligi bois buni dabdurustdan payqash qiyin edi.

– Ana, keldik, – dedi Quvondiq aka “Niva”ni quyuq tollar panasidagi shiyponnusxa uy yonida to'xtatar ekan.

Avval bahaybat bir ko'ppak biz tomonga vovullaganicha yugurib keldi, ortidan uch-to'rt bola-baqra chopib chiqdi.

– Ey, polvon qayerda, uydami-a? – deya gumburlagan ovozda so'radi rais.

Bolalar javob bermay, yana uy tomon chopib ketishdi. Biz mashina ortidan xiyla semizgina shirbozni tushirdik. Quvondiq aka ust-boshining chang-chungini qoqib, tomoq qirib tupirindi. Shu payt tollar ortidan bo'yi ikki qulochdan ham baland, sochini tap-taqir qirdirgan, yag'rindor bir odam chiqib keldi.

– E-e, rais bova, xush kepsiz! – dedi u yo'g'on, do'-ril-lagan ovozda.

Quvondiq aka unga xush-xandon peshvoz yurdi.

– Chaqirmasangiz ham shuytib kelaberamiz-da!”⁵⁰

Qissada bolalik fenomeni insoniy munosabatlar tig'izlashuvidan dalolat beradi. Jumladan, bolalik – bu qaytmas damdir. Qissa arxitektonikasida 4-sinfdan boshlangan tasvir ekzistensiyasi L.Bo'rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida ham yagona estetik markazda uyushuvini dalolatlaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Ch.Aytmatovning o'zi haqidagi ushbu mulohazalari L.Bo'rixonning juda ko'pchilik hikoya va qissalarida yaqqol namoyon bo'lganligini unutmaslik lozim: Bolalik fenomeni haqida so'z borganda, birgina qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning mana shu mulohazalari ham yuqoridagi fikrlarimizni to'laqonli tasdiqlaydi: “Bolalik fenomeni... Men bolalik taassurotlari bilan yashamaydigan hech bir odamni, ayniqsa, ijodkorni bilmayman. Axir “Oq kema” qissasining qahramoni qilib bola tanlangani bejiz emas-ku. Men bu bilan bola – iymon-diyonat homilasi, shaxs homilasi, bularning bari bolalikdan boshlanadi, degan fikrni uqtirmoqchi bo'lganman. Bu haqda hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti, barcha axborot vositalarining universallasuvi avjiga chiqqan davrda jiddiy bosh qotirish

⁵⁰ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

kerak bo'ladi. Qachonlardir bola ruhiyati, uning ong-shuuriga faqat ota-onasi, buva-buvisi, yaqin qarindoshlaridan yana kimdir ta'sir ko'rsatgan. Hozir ularning bu vazifalarini bolalar bog'chalari, maktablar "tuya" qilmoqdalar. Bolalar bog'chalari, maktab, bularning yaxshi, foydali tomonlari ko'p. Lekin ularning hammani baravarlalashtirib, birxillashtirib qo'yish jihatlarini ham inkor qilib bo'lmaydi. Hamma bolalar bir vaqtda bir teleko'rsatuvni va bir xil filmlarni tomosha qiladilar. Bu hol esa hozirga qadar misli ko'rilmagan darajada estetik, ma'naviy mezonlarning umumiy bo'lib qolishiga olib keladi. Bunda bola rivojlanishidagi individuallik, o'ziga xoslik qaysidir ma'noda yo'qoladi."⁵¹ Darhaqiqat, yozuvchi "Quyosh hali botmagan" qissasida Ch.Aytmatovning adabiy izlanishlaridan ta'sirlangan bo'lishi mumkin, lekin bu yerda boshqa bir masala ilgari surilmoqda. Jumladan, asar ekspozitsiyasiga e'tibor berlsa, Tanzilaning qishloqqa kirib kelishi, ma'naviy muhitning o'zgarishiga turtki bo'ladi. Chunki o'zga millat vakilasining bo'y yetib, tabiatida sadoqati ufurib turishi, Davronbek va Norsoatning ahilligiga putur yetkazadi. Aslida, Norsoat ham tog'lik bir odamning o'g'li. Ikkisi ham ikki hududdan tashrif buyurgan. Yozuvchi nima bo'lgan taqdirda ham, inson o'z yashash instinktini saqlab qolishi mumkin ekan, degan umuminsoniy g'oyani ilgari surmoqda:

"Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Usta Abil viloyat markazidan Tanzila bilan qaytgan o'sha yakshanba ham Davron ikkimiz biroz janjallashib qolgan edik. Hammasi arzimasi bir tortishuvdan boshlandi. O'sha paytlar boshqa joylarni bilmadimu, lekin qishlog'imizda AQSH va SSSR o'rtasida urush boshlanar emish, degan mish-mish avjiga chiqqan, ko'cha-ko'yda, to'y-hashamlarda tinchgina boshlangan gurung oxir-oqibat shu mavzuga kelib taqaladigan bo'lib qolgan edi. Biz bolalar ham kattalardan eshitganlarimizga o'zimizdan biroz qo'shib-chatib to'plangan chog'larimiz bir-birimizga yetkazardik.

O'sha kuni ham qo'y-qo'zilarni ertalabdan dashtga haydar ekanmiz, gurungimiz o'z-o'zidan urush mavzusiga ko'chdi.

⁵¹ <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/chingiz-ajmatov-fa-at-bir-marta-a-l/>

– Baribir SSSR zo‘r, – deb qoldi Davron kimdandir eshitganlarini o‘z fikriday bayon qilarkan, – dushman raketasini osmonda eritib yuboradigan nur sochar qurollari bor.

– Amerikaning nur ham yetolmaydigan raketalari juda ko‘p, – deb e‘tiroz bildirgan bo‘ldim men, chunki kechagina akam va do‘stlari aytgan gaplar esimda edi, – ular SSSRning hamma katta shaharlarini ko‘zlab turibdi, tugmachani bir bosib qo‘yishsa, tamom, hammasi kultepa bo‘p qoladi.

Davron keskin bosh chayqab tag‘in nelardir dedi. Men yana rad etdim. Tortishuv boshlandi. Harnechuk, men to‘plagan ma‘lumotlar Davronnikidan ko‘proq ekan. Sardorni ko‘z ochirgani qo‘ymadim. U meni yengish uchun kerakli gapni topolmay jahldan qizarib-bo‘zarib ketdi. Atrofimizdagi “Kengsoy burgutlari” gap-so‘zlarimizni diqqat bilan tinglashar, boshlanishi tusmollanayotgan jahon urushidan ko‘ra ikkovimizning o‘rtamizda to‘qnashuv yuz berishidan xavotirga tushishgani shundoqqina aft-angorlaridan sezilib turar edi.

– Ey, sen, – deb qoldi Davron bir payt xalacho‘pni menga nuqib, – molingni ajratib ol, biz bilan dashtga bormaysan”⁵².

Binobarin keltirilgan parchada poetik qonuniyat shartlarida yanada qiziqarli bo‘lishi uchun yozuvchi ana shunday yo‘sinda ish tutishi adolatdandir. Ayniqsa, ***epigraf-muqaddima-tugun-konflikt-badiiy voqelik rivoji-kulminatsiya va yechim izchilligida*** hamma tafsilotlar sabab va oqibatlari ayonlasha boradi. Xarakter shakllanadi. Ulardan tayinli xulosalar chiqarishga asos tug‘iladi. Bularning barchasi zamirida badiiy mahorat, yozuvchi ijodiy konsepsiyasi, niyati va asl maqsadi yaqqol ko‘rinib turadi. Luqmon Bo‘rixon izlanishlarida qissa konflikti syujet liniyalarida erkin harakatlantiriladi. Deylik Norsoat va Davronbekning ijtimoiy munosabatlari, do‘stlik rishtalariga asta-sekinlik bilan aniqlik kiritilib boriladi. Mazkur tamoyil, L.Bo‘rixonning olam va odam munosabatlari, ayniqsa, qishloq hayotini, tabiatini odamlarning yashash tarzini beliglovchi yagona estetik mohiyat sari evriladi. Shuni qayd etish joizki, L.Bo‘rixon syujetni birdan murakkablashtirmaydi. Voqelikni asta-sekinlik bilan muoviflashtirib, “Quyosh hali

⁵² <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

botmagan”ligiga ishonirish muhimligini diqqat markazida saqlaydi. Polyak adabiyotining taniqli namoyondasi Yan Parandovskiyning “Kasb sirlari” maqolasida bu haqda shunday qaydlarga yuzma-yuz kelimiz: “Yozuvchilarning erkin taraqqiyoti – bu albatta, o‘ta mustahkam qaror topgan an’anadir. Yozuvchilar hamisha mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganishgan. Ularda hattoki o‘rta asrlar va Renessans (Uyg‘onish davri) rassomlari ega bo‘lgan narsalar ham bo‘lmagan: u davrda shogird ustoz nazorati ostida ishlagan, mo‘yqalam tozalagan, molbert (rassomlar dastgohi) va polotno tayyorlagan... Yozuvchilar esa nafaqat o‘zlarini o‘zlari tarbiyalashgan, balki o‘z atrofida qilargalarga qarshi ko‘pincha o‘chakishib shunday qilishlariga ham to‘g‘ri kelgan, ular azbaroyi o‘z kasblari tanlovi vajidan shunday yo‘l tutishga majbur bo‘lishgan. Agar basharti Lafontenning otasi o‘z o‘g‘lining shoir bo‘lishini xohlagan bo‘lsa, har qandayin hurmat-ehtiroimga munosib bunday ota albatta istisnodir. Ovidiy o‘zi yozgan poetik tarjimaiy holining o‘sha qismida butunlay boshqa narsa haqida – barcha ota-onalarning yakdil fikri haqida – yozgan va xipchin-govronlarning g‘uvillashiyu shoir bo‘lishiga tayyorlanayotgan bolaning zorlanishlarini abadiy xotira qilib qoldirgan”⁵³. Binobarin, har bir adibning o‘z hayot yo‘li bo‘lganidek, ijod qilish borasidagi muayyan uslubiy individualligi ham bo‘ladi. Deylik, Yan Parandovskiy shaxsiy kuzatuvlari – bolalik fenomenining qay tariqa rivojlanishiga ta’sir etuvchi salbiy, ijobiy omillar haqida borayotgan mulohazalarini L.Bo‘rixon poetik izlanishlariga muqoyasa qilsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi.

Qissada portretning poetik funksiyasi. Ma’lumki, badiiy portret kompozitsiyaning ajralmas qismidir. Har qanday asarda badiiy portret bo‘lganidek, uning o‘ziga xos funksiyasi mavjud. Negaki, badiiy portret badiiy psixologizm bilan chambarchas bog‘liqdir. U xarakter va asar voqeligini tutashtirishga xizmat qiladi. E’tibor berilsa, badiiy portretning qissadagi muhim takomili Davronbek va Norsoat, Tanzila *uchligida* yorqin bo‘yoqlarda yuzaga chiqadi. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida keltirilishicha: “Portret (fr.portraie – tasvirlamoq) – 1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi qiyofasi (jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z

⁵³ Ян Парандовский. Сўз кимёси. –Тошкент., “Янги аср авлоди”. 2022. –Б.219-220.

ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. P.epik asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishidir. Shartli ravishda statik va dinamik P.turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to'xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirilib chiziladi. Odatda bunday portretlar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada (mas., "Kechadagi Razzoq so'fi P.i") beriladi. Dinamik portret deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya'ni harakat davomida berilib boriluvchi personaj tashqi ko'rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi"⁵⁴. Darhaqiqat, badiiy portretning "Quyosh hali botmagan" qissasida yuzaga kelgan konflikt va tragik vaziyatlar in'ikosida rang-baranglashuvi estetik qamrov teranligini dalolatlaydi. Qissada lavhadan-lavhaga kuchayib borayotgan har ikkala sinfdosh orasidagi dramatism syujet voqeligini yuqori suratlarda harakatlanishini tezlashtiradi. Bir qarashda, yozuvchi syujet voqeligini juda oddiy bir holat tafsilotidek idroklashi bilan bir qatorda, ramziy-majoziy talqin o'ziga xosligi negizida namoyon qiladi. "Portret chizishning turli-tuman xillaridan har bir yozuvchi o'z uslubi, g'oyaviy maqsadiga muvofiq holda foydalanadi. Mahorat bilan chizilgan portret insonning to'laqonli obrazini yorqinlashtirish, ruhiy dunyosini yaxshiroq badiiy tadqiq etish vositasiga aylanadi"⁵⁵

L.Bo'rixonning ko'pchilik qissalarida dinamik portret turi yetakchilik qiladi. Buni quyidagi lavhadan ham bilib olishimiz mumkin:

“– Shuytib, inim, sizga ikki shogird opkeldim, – dedi ziyofat chog'i Quvondiq aka yana maqsadga ko'chib, – bularni tarbiyalab, Kengsoyning orini ko'taradigan polvonlar qilib berasiz.

Mezbon kulimsirab bosh irg'ab qo'ydi.

– Bularning xiyla suyagi qotgan ko'rinadi-ku, sal ertaroq opkemabsiz-da, rais bova.

⁵⁴ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б. 226-227.

⁵⁵ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент: Шарк, 2008. –Б.99.

– E, polvonjon, ana, bugun, ana, ertan deb vaqtni boy berib qo‘ydik. Savil, hech qo‘l tegmaydi, deng, bilasiz, xo‘jaligimizning tashvishi ko‘p.

– To‘g‘ri, sizga qiyin. Bizga o‘xshaganlar bitta ro‘zg‘orni eplayolmaydi-yu...

Aft-angorimizdagi norizolik alomatlarini payqadi shekilli, mezbon goh choy, goh ovqat tashvishida biz o‘tirgan chorpoyadan uzoqlashgan payt Quvondiq aka pichirlab u kishini ta‘riflashga tushib ketardi.

Asli ismi Abdusalom bo‘lgan bu kishi el-ulus orasida Absal, Absal polvon nomi bilan mashhur ekan. Xuddi Quvondiq aka va qo‘riq tumanlariga ko‘chib kelgan aksariyat cho‘lquvarlar kabi kunchiqar tarafdagi tog‘u toshlarda tug‘ilib o‘sgan ekan.

Abdusalom hech bir ustoz ko‘rmagan, hech bir mashq-mashg‘ulotda qatnashmagan, xuddi o‘rislarning Ivani kabi atoyi polvon emish. U bo‘z bolalik payti tog‘dan o‘tin kesib, eshagiga yuklab kelayotgan mahal, jonivor noboproq yerdan yiqilib, oyog‘i sinib, o‘rnidan turolmay qolibdi. Shunda u eshagini yuk-muki bilan yelkasiga olib, qishloqqacha ko‘tarib borgan ekan. Abdusalomning bu mo‘jizasini ko‘rganlar hangu mang qotib qolgan emish. Nega menga angrayib qoldinglar, nima, sizlar eshak ko‘tarib ko‘rmagansizlarmi deb hayron so‘ragan ekan o‘shanda. Chunki bunday ko‘tarishlar oddiy, kundalik ish, har kimning ham qo‘lidan keladi, degan xayolda ekan bu sodda va to‘pori yosh polvon”⁵⁶.

Yozuvchi Norsoat bilan Davronbekning polvonga shogird tushishini tasvirlar ekan, Absal polvonni tanimas edik deya aytgan personajning kelajakdagi nima ishlarni qilishga yetaklashini ifodalaganini sezish mumkin. Chunki rais Quvondik akaning qistovi bilan 7-sinfga to‘lganidagina polvonga shogirdlikka olib keladi. Shunday bo‘lsa-da, bu ikki do‘st polvonlikning sir-asrorini Absal polvondan o‘rganadi. Aslida, bolalarning ijtimoiy erkinligi bo‘g‘ilgan jamiyatda rivojlanish bo‘lmaydi. Sobiq ittifoq yakka hokimligi davrida bolalar mehnati, ularning orzu-istaklari hamda siyosiy qarashlari hisobga olinmas edi. Shu boisdan ham, O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlar ijtimoiy rivojlanishdan orqada qolgan. Qishloqlardagi iste‘dodli yoshlar kasb tanlashi, kelajakda orzu-umidlarini ro‘yobga

⁵⁶ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

chiqarishi uchun olib orilgan ijtimoiy tengsizlik masalasi muammoligicha qolib ketayotgan. Yozuvchi bu voqelikni o'zining bolaligining bir uzvi sifatida ko'radi. Har bir voqelikka o'z munosabatini ham bildirib, polifonik tafakur yaxlitligini yuzaga chiqarishga imkon topadi. Tanzila – ma'naviy yuksalish ramzi sifatida asarga olib kirilgan. Syujet liniyalariga diqqat bilan e'tibor berilsa, buning yorqin natijasini ko'rishimiz mumkin. Har qanday vaziyatda shuni tushunish mumkinki, qahramon hamisha o'zining orzu-umidlari chegarasidan chiqib ketolmaydi. Oiladagi ota-ona tanlovi bolalarning ijtimoiy intilishlariga keskin to'sqinlik qiladi.

Qissada badiiy portretning dinamik turini istifoda qilar ekan, kinoyaviy-parodik yo'sinda insonning fe'l-atvoridagi tushuniksiz bir holatlarini idroklashga diqqat qaratadi. Bu haqda so'z borganda, ushbu mulohazalar fikrimizni to'laqonli tasdiqlaydi: "Insoniyat bag'oyat g'alati, uqubatli davrni boshidan kechirayapti. Bizga o'tmishdagi eng qo'rqinchli davrlarda ham ko'rinmagan juda dahshatli va ayovsiz xavf tahdid solib turipti. Ammo shunga qaramay, g'ayrushuriy tarzda insoniylikka intilish jihatdan, odamlarga tengsiz azob-uqubatlarni keltirayotgan illatlar va kulfatlarni tag-tomiri bilan yulib tashlashga bo'lgan samimiy ishtiyoqi jihatdan bizning asrimizga teng keladigan boshqa biron asrni topib bo'lmaydi. Biz har qachon bo'lganidan ko'ra ortiqroq darajada bilim, iqtidor va insonparvarlik bilan xastaliklarni davolamoqdamiz, garchi o'zimiz xohlagancha yetarli darajada bo'lmasa hamki, jinoyatchilarga va jonivorlarga ilmiy asosida, biz har qachongidan ham ortiqroq darajada ijtimoiy va iqtisodiy illatlardan xolos bo'lish yo'lida tashvish chekmoqdamiz".⁵⁷ Binobarin, o'tgan asrning 80-yillarida bo'lib o'tgan, ya'ni Afg'on urushi yillarini qalamga olar ekan, L.Bo'rixonning bolaligi ayni shu damlarga to'g'ri kelganligining guvohi bo'lamiz. Bu dunyoning o'tkinchiligi, hayot uchun kurashib yashash muhimligini "Qyosh hali botmagan" qissasi timsolida yanada yaxshiroq his etamiz. Chunki qissaning mohiyatida m'anaviy va moddiy o'sish-o'zgarishlarni qabul qilmayotgan ota-ona, bir tomonda zamonga moslashish (moda) uchun intilayotgan farzandlar taqdiri

⁵⁷ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. –Тошкент: Маънавият, 2010. –Б.79

hech bir odamni e'tiborsiz qoldirmaydi. Shuni alohida qayd etish zarurki, badiiy talqin rang-baranglashuvida yozuvchi ikki jihatga e'tibor qaratadi:

1. Tanzila ikki do'st orasidagi tengsizlik qurboniga aylanadi.

2. Yozuvchining atayin bu qizni syujetga olib kirishida ma'naviy qadriyatlarning o'zgarib, global dunyo manzarasini chizib berishga ishorasi e'tiborni tortadi.

Mana shu jihatlar yozuvchiga katta bir potensial kuch-quvvatni, bolalik fenomenidan shakllangan or-nomus, g'urur va iftixor tushunchalarining abadiy mavzu ekanligini to'laqonli dalolatlaydi:

“Shogird tushganimizning uchinchi yo to'rtinchi kuni, kechki mashg'ulot boshlanishidan andak avval Absal polvon ikkimizni yoniga chaqirdi.

– Sizlar sibizg'a chalishni o'rganmaysizlarmi?

– Biz kurash tushishni o'rganishga kelganmiz, – deb qo'rs bir ohangda javob berdi Davron.

– Kuy quvvatga quvvat qo'shadi, – deb so'z boshladi ustoz, biroq o'ychan bir qiyofada yana jim qotdi, hoynahoy, bu gaplarni bizga aytish befoyda degan xayolga bordi, birozdan so'ng ohista qo'shib qo'ydi: – Har bir polvonning o'z sibizg'asi bo'lishi kerak, uni yurakning ustidagi kissada asrab-avaylab yurgan ma'qul.

Ochig'i, men sibizg'a chalishni juda-juda xohlayotgan edim. Ammo Davronning ko'ngliga qarab, istagimni aytishga botina olmadim. Bir payt, ustozning yonidan uzoqlashayotgan mahalimiz, u kishi tuyqus meni to'xtatdi.

– Inim, yuraging buyurgan ishni qilishga o'rgan. Polvonlikning eng birinchi sharti shu.

– Buning polvonlikka nima aloqasi bor? – deya mahmadonachilik qildi sal narida turgan Davron, – yurak noto'g'ri yo'lga boshlasa-chi.

– Unda yo sening polvonliging, yo yuraging borligi o'trik.

Davron chimirilgan ko'yi maydon tomon jo'nadi. Unga shosha-pisha yetib olganimda odatdagidek g'ijinib g'udrandi.

– Nimalar deyapti anovi, o'lay agar, birorta ham gapiga tushunmadim.

To'g'risi, ustozning so'zlarini men ham to'la anglab ololmadim. Anglaganim shu ediki, Absal polvon ko'nglimda sibizg'a chalishni juda-juda istayotganimni payqab qoldi. Xuddi shu hol meni ajablantirar, xayollarimni alg'ov-dalg'ov qilar, ustozda chindan ham ilohiy bir xislat borligiga ich-ichimdan yana bir bor ishonch qabarar edi.

Men o'zimni g'aroyib bir olamga tushib qolganday his qilardim”⁵⁸

Bir yigitga qirq hunar ham oz deganlaridek, Absal polvonning sibizg'a chalib xumordan chiqishi ham asarga katta bir ma'no yuklaydi. Psixologizmning sharti shuki, qahramonlarning xarakterini, botiniy qiyofasini, surat va siyratini teran inkishof qilishga katta sharoit hozirlaydi. Chunki qissada imkon qadar kuchli ojizni mavh etadi degan ko'zga bilinmas konsepsiya mavjud. Yozuvchi buni syujetdagi voqelik fonida xarakterlar xatti-harakatlariga sohib yuboradi. Shuningdek, insonning har qanday sharoitda o'z mahoratini sinab ko'rishi lozimligi qalqib ko'rinadi. Masalan, Absal polvon qishloqda o'z ota-bobolaridan qolgan hunarni davom ettirmoqda. Agar bunday turfa iste'dodlarga vaqtida e'tibor berilganida edi, jahon sport maydonlarni allaqachon ishg'ol qilgan bo'lardi. Yozuvchi oddiy va to'pori bir qishloq bolalarining taqdirini idroklashni maqsad qilgan ekan, natijada shu intilishga mos yashash instinktini ilgari surishdan boshqa chorasini topmaydi. Kuchli tragik lirizm qissa poetikasida badiiy psixologizmning rolini xiyla kengayishiga imkon beradi.

Qissaning xotimasidagi mana shu lavha yozuvchining har bir qahramonga boshqacha muhabbat bilan yondoshganini taqozolaydi:

“Biz quyuq-suyuq xayrlashib, mashinaga o'tirdik.

– Xay-ir! Oq yo'l! – guvillashib qolishdi qizlar.

Men Tanzila bilan ahdu paymon qilolmagan bo'lsam-da, lekin uning o'sha so'nggi so'zlari ta'sirida ichu-tashim yorishib turardi. Davronning ham ko'zlari porlaydi.

⁵⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

– Zo‘r qizlar ekan, – deydi orzumand bosh chayqab, – hali Tanziladan hammasining adresini olib, xat yozaman. Ayniqsa, anovi Guli degani menga yoqib qoldi.

Men o‘g‘irilib ortga qaradim. Shag‘al to‘kilgan yo‘ldan ko‘tarilgan quyuq chang-to‘zongina izimizdan ergashib kelardi. Bu chang-to‘zon, bu gard-g‘ubor, yaqin yillar ichida hayotimni butkul qoplab olishini men hali bilmasdim.”⁵⁹

Umuman, L.Bo‘rixon syujetning voqelikni yuzaga chiqarishida psixologik vaziyat va konsepsiya tig‘izligilashuvida ulug‘ muhabbatning hali-hamon o‘lmaganligi, inson irqi, dini va millatidan qat’iy nazar bir-birilarini asrab-avaylab yashashi muhimligi tilga olinadi. Davronbekning g‘irrom harakatlari Norsoatning g‘ashini keltirishi, kurash tushganida ham otasining kuch-qudratiga ishonib ish tutishi real mohiyat kasb etadi. Yozuvchi dadasiz yetim o‘sgan Norsoatning taqdiriga befarq emas. Uning kelajagini o‘ylab rais Quvondiq aka tog‘ bag‘rida joylashgan qishlog‘idan ovloq Kengsoy qishlog‘iga ko‘chirib olib kelib, sharoit yaratib beradi. Qissada yozuvchi xilma-xil obrazlarning poetik talqinini ifodalar ekan, syujet va kompozitsiya butunligini alohida urg‘ulaydi. Psixologik talqin peyzaj va portret timsolida yanada o‘ziga xos mohiyatga evriladi.

2.2. -§. L.Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” qissasida yozuvchining ruhiy tahlil mahorati

Badiiy asarda syujetga xos unsurlardan biri – xarakterdir. Xarakter yozuvchi tomonidan qayta ishlangan, tizimli talqin qilingan, o‘zgaruvchan va eng muhimi, voqelikni murakkabligi, o‘suvchanligi hamda tadrijiy rivojlanishini ta‘minlovchi komponentlardan biri sanaladi. Badiiy xarakter haqida so‘z borganda, avvalo, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishdek murakkab bir sharoitda inson psixikasini teran ifodalash yozuvchining individual uslubiga borib tutashadi.

Yunon faylasufi Arastu bu haqida shunday yozadi: “Xarakterlarga kelsak, ulardan to‘rt maqsad ko‘zda tutiladi. Birinchi va asosiysi: qahramon oliyjanob bo‘lishi kerak. Avval aytganimizday, shaxs agar o‘zining gaplari va ishlarida qandaydir maqsadga amal qilsa, xarakterga ega bo‘ladi. Agar shaxs yaxshi

⁵⁹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

maqsadlarni ko'zlasa, xarakteri ham yaxshi bo'ladi. Bu har bir odamda mavjud bo'lishi mumkin: ayol ham, hatto qul ham yaxshi bo'lishi ehtimol, birinchisi (erkakdan) yomonroq, qul esa undan ham yomonroq bo'lishi ham mumkin. Ikkinchidan, xarakterlar o'ziga xos bo'lishi kerak: xarakter mardona bo'lishi mumkin, ammo ayol kishiga mardlik bilan kuchlilik yarashmaydi. Uchinchidan, xarakterlar (hayotiy) haqqoniy bo'lishi kerak: bu yuqorida aytilganidan mutlaq boshqacha bo'lib, ularni yaxshi yoki yarashliq qilib tasvirlash kerak degan gap emas. to'rtinchidan, xarakterlar izchil bo'lishi kerak: hatto tasvirlangan shaxs noizchil bo'lishi, shu xarakterning barcha ishlariga noizchilik xos bo'lishi mumkin".⁶⁰ Hayotning o'zidek qilib tasvirlash uchun yozuvchi butun, bor kuch-qudratini asarning qiymatini yanada jonli ifodalashga xarj etmog'i lozim. Arastu zamonasining peshqadam vakillaridan biri edi. Uning adabiyot nazariyasi haqidagi, ayniqsa antik yunon dramasi, tragediyalari xususidagi mantiqiy qarashlari bugun uchun ham o'z dolzarbligini yo'otgan emas. Mana shu jarayonda ikki jihat fikrimizni quvvatlashga yordam beradi: faylasuf izchilik haqida gapirarkan, agar yozuvchi o'z nuqtayi nazarini iste'dodsizlik orqasiga qandaydir "izm"lar bilan yashirmoqchi bo'lsa, unday asarlar ertangi kunda yashab qolishi dargumondir. Yozuvchilar mana shu jihatga ko'p ham e'tibor qilishavermaydi. Shuni qayd etish lozimki, xarakterni ishlash uchun yozuvchi turmushning iker-chikirlarigacha teran o'rganishi muhimki, natijada, o'zi xohlagan yo'sinda voqelikni yuksak darajaga olib chiqa oladi. Xarakter badiiy asarda pafos darajasida bo'lishi muhim. ya'ni pafos yozuvchi niyati va voqelik izchilligini o'z nazoratiga oladi. Yozuvchi L.Bo'rixon qissalarida badiiylik modusi xarakter birligi va pafos uyg'unligida psixologik tarang vaziyatning muvofiqligini namoyon etishga safarbar qilinadi:

“Bu gal ham qarz undira olmadi. Shaharning qoq kindigidagi gavjum bozorda do'kon ochib, oldi-sotdiga ko'ngil qo'yib anchagina boyib qolgan, talabalik ta'mini birga totgan do'sti O'ktam ham mijg'ovlanib bir dunyo bahonani qalashtirib tashladi. Shu kunlarda kichik korxona ochish tashvishida yurganini,

⁶⁰ Арасту. Поэтика. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б.43-44.

xarajat ustiga xarajat jabrini chekayotganini, tag'in to'rt-besh tanish-bilish olti oycha burun bir hafta ichida qaytarishga qasamlar ichib anchagina qarz olishganini, lekin hali-hanuz qaytarmay kuydirib yurganini ayta-ayta hasrat qildi. Ya'nikim, igna-ip tilanganning qarshisiga yirtiq ishton bilan chiqdi.

Baxtiyor qarz undira olmaganidan ham ko'ra, do'stining nigohlaridagi ifodadan xafa bo'lib ketdi. Bu qarashlarda istehzo, masxara qalqib turardi. O'l, bu kuningdan, degan ma'no, do'sti harchand yashirishga urinsa-da, qorachig'lar tub-tubida yiltillab ko'rinardi. Har holda Baxtiyorga shunday tuyuldi.

U uvushgan barmoqday bo'shashib ko'chaga chiqarkan, tomog'iga tiqilgan xo'rlikni arang ichiga yutdi.

Endi nima qiladi? Unga rahmi kelib, safarga birga olib ketishga ko'ngan haligi brigadirga endi nima deydi? Yo'lkira topolmadim deydimi so'narib? Qarindoshlardan ham baribir naf yo'q. Yo narigi mahalladagi sudxo'rdan qarz ko'tarsamikan? Bir oz tanish-bilishligi bor, balki qarz foizini arzonroq qilib berar?

Baxtiyor go'yo qayon yurishini bilmagandek, bo'm-bo'sh cho'ntaklarida qo'llarini musht qilib tukkan ko'yi ko'cha boshida ivirsib turib qoldi. So'ng sal naridagi tanalari quruqshab, burishib ketgan qari tutga behol suyandi.

Chor-atrofdan bahor nafasi ufurardi. Yam-yashil yaproqlarga burkangan dov-daraxtlar yengil epkindan ohista chayqalib turardi. Ko'cha bo'ylab uzalib ketgan beton ariq lablari ham rango-rang chechaklar, o't-o'lanlar bilan qoplangan.

U beixtiyor o'zi unib-o'sgan Arpasoy adirlarini esladi. Qo'y-qo'zilar ortidan bo'yinsalari bilan chopqillashib yurishlari ko'z o'ngidan lip-lip o'tdi. Yuragida silqib turgan xo'rlikka sog'inch hislari ham qo'shilib ko'zlari namlandi"⁶¹.

Yozuvchining "Bir tomchi yosh" nomli qissasi orzulari sarobga aylangan, omadi yurishmagan Baxtiyor ismli yigit haqida bitilgan. Taqdir uni juda ko'p sinaydi. Bu sinovlar bo'lg'usi rassomning ruhini va irodasini bukib, hayot yo'llarida juda ko'p qiyinchiliklarga ro'baro' qiladi. Bunday paytda yozuvchi badiiy psixologik tasvirni yanada quyuqlashtiradi. Qissadagi Baxtiyor obrazi atrofida, aniqrog'i omadi yurishmagan rassomning taqdiri o'quvchini chuqur o'yga

⁶¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burihon-bir-tomchi-yosh-issa/>

toldirishi shubhasiz. Chunki yozuvchi asarda qishloqda tug‘ilgan iste’dodlarning o‘z maqsadlari yo‘lida qator qiyinchiliklarga duchor bo‘lishi, har qanday odamni pulsizlik, ishsizlik mayib-majruh qilib tashlashi xususida kuyunchaklik bilan tasvirlaydi. Asardagi pafos esa, yozuvchining butun ijodiy konsepsiyasining namoyon bo‘lishida o‘ziga xos funksiyani bajaradi. Shuningdek, aslida qissada O‘ktam va Baxtiyor orasidagi manfaat ustiga qo‘yilgan do‘stlik haqida so‘z boradi. Voqelik ayni shu yerdan boshlanib, Baxtiyorning nurli kelajagi hali oldinda, soxta do‘stlar-u yoronlarning unga uzatgan qo‘li faqat manfaatni ko‘zlab ish tutishiga yetaklaydi. Natijada Baxtiyorning orzulari o‘z tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i-yu, xayoloti chegarasidan tashqariga chiqmaydi. Rassomlar hayoti haqida o‘zbek nasrida N.Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi mavjud. Mana shu hikoyada yozuvchi o‘zining juda katta ijodiy konsepsiyasini ilgari suradi. L.Bo‘rixon ham Baxtiyor timsolida uning ruhiy-ijtimoiy hayotini rang-barang tarzda ifodalashga e‘tibor berganligida seziladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Baxtiyorning xatti-harakatida qandaydir sipolik va vazminlik ufurib turadi. Shuning uchun ham u har doim o‘zining omadsizligidan iztirob tortib yuraveradi. Demak, L.Bo‘rixon qishloqda tug‘ilib voyaga yetgan, Alloh tomonidan berilgan go‘zal iste’dodning ro‘yobga chiqmagan armonlari o‘quvchini hech qachon befarq qoldirmaydi. Prof.B.Sarimsoqov: “Badiiy obraz – ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g‘oyasi orqali sintezlashgan voqelikning inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg‘u va kechinmalar timsolida, alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in’ikosdan iborat”⁶², - deya e’tirof etadi. Darhaqiqat, poetik obrazning to‘qib chiqarilgan shakli, ko‘rinishi va estetik kategoriyasida yaratuvchanlik psixologiyasi turadi. Yozuvchi poetik izlanishlari davomida ushbu estetik mezonni muttasil yangilab borishi muhimdir.

Prof. H.Karimov shunday yozadi: “Nasrdagi ritmni asar garmoniyasidan qidirish lozim, ya’ni asardagi har bir vaziyatning umumiy birligi, har bir holatni, har bir voqea-hodisaning silsilasidan, xarakterlarning xatti-harakati, gapirish

⁶² Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент: Фан, 2004. –Б.22.

manerasi, ularning asarda bajargan ishi, qilgan harakatning mantiqiy asosining uyg'unligidan, shuningdek, xarakter faoliyati, uning tutgan ishi saviyasi, bilimi, psixologiyasiga mos yoki mos emasligidan, xullas, yozuvchi mahoratini belgilaydigan badiiy komponentlarning kompleksidan qidirish lozim"⁶³. Ko'rinadiki, nasrdagi ritm yozuvchi ijodiy konsepsiyasida yuzaga kelgan tasavvur va tafakkurning naqadar hayotbaxsh hamda yuksakligidan izlash o'rinli. Chunki ritm va pafos bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Badiiy xarakter ana shu yo'nalishda o'z-o'zidan voqelik silsilalarida yanada takomillashib, rivojlanib boradi:

“Bepoyon kengliklar, yulduzli, sohir kechalar, goho qayg'u, goho quvonch qalqqan qiyofalar, bir so'z bilan aytganda, tevaragida tovlanib turgan tiriklik o'sha kezlar Baxtiyorda g'alati tuyg'ular qo'zg'ardi, ko'ngli ba'-zan ma'yus tortib, ba'zan shodlikdan to'lqinlanar edi. Ko'zi ko'rib, ko'ngli sezgan barcha-barcha manzaralarni qog'ozlarda tasvirlagisi kelardi. Ya'nikim, musavvirlikka ishqi tushmish edi. U sinfxonadan o'g'irlab chiqqan bo'r bo'lagi bilan qir etagidagi xarsangtoshga har xil narsalarning rasmini chizib tashlar, tevaragiga tappiday tizilgan teng-to'shlari tek qotib uning qo'l harakatlarini havasmand kuzatishar, ahyon-ahyon qoyil qolgannamo bosh chayqab, rasm roppa-rosa asliga o'xshaganini e'tirof etishar edi. Ko'p o'tmay Baxtiyorning iqtidori maktab bo'yicha tan olindi. Har bayram arafasida muallimlar devoriy gazetalarini bezab berishni undan o'tinib so'raydigan bo'lib qolishdi. Maktab endi-endi bitay deb turgan ajoyib kunlarning birida soch-soqollari o'siq, kulrang kepkasini boshiga bostirib kiygan Georgiy ismli rassom qishloq biqinidagi tevaragi yulg'unzor, qamishzor zovur bo'yida paydo bo'lib qoldi. U rassomchilik ashqol-dashqollarini oldiga yoyib, arzon nav sigaretini tutatgan ko'yi kengliklar uzra shom quyilishini soatlab tomosha qilib o'tirar, ahyon-ahyon qarshisidagi molbertiga allanimalarnidir chizgilab qo'yar edi.

Baxtiyorning otasi uning oldiga ikkita aroq, bir tog'ora qovurdoq ko'tarib bordi. O'g'lining qog'ozga tushirgan rasmlarini ko'rsatdi. O'g'lingiz bo'ladigan bola, unda daholik alomatlar bor, dedi Georgiy bo'shagan shishalarga qo'shilib

⁶³ Каримов Х. Ритм –асар юраги. –Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. –Б.270.

o‘zlari ham yumalab qolishgan bir paytda. Ketar chog‘i poytaxtlik rassom o‘zining telefoni raqamlarini berdi, maktabni bitirgach, meni topsin, dedi.”⁶⁴

Bolaligidan rassomchilik uquvi bor Baxtiyorning hayoti ana shu zaylda boshlanib ketdi. Yozuvchi bu yerda har qanday iste’dod u shoir yoki rassom, yozuvchi yoki san’atkor bo‘lsin, qalbidagi orzu-umidlarining ro‘yobga chiqishini istasa, albatta uning qo‘llab-quvvatlovchi oilasi hamda ustozlari bo‘lishi muhimligini alohida urg‘ulamoqda. Chinakam iste’dodning va uning yorqin kelajagi hamma zamonda silliq kechgan emas. Omadsizlik va yo‘qchilik har qanday iste’dodli insonni ruhan bukib qo‘yishi hech gap emas.

Qissada pafos va psixologik tasvir uyg‘unligi. Ta’kidlash lozimki, har bir yozuvchi o‘z ijodiy qobiliyati, tutumlari asosida hayotni rangin va olijanob tuyg‘ular bilan ifodalash yo‘lida juda ko‘p ter to‘kishga majbur bo‘ladi. Bunday hayotiy aqida A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev, M.M.Do‘st, E.A’zam badiiy izlanishlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Insonning davrning farzandi ekanligi, har qanday hayotiy haqiqatni qayta idroklashda kuchli estetik did bilan yondashish muhimligini talab qiladi. Shuni qayd etish lozimki, badiiy pafos ham xarakterni, ham voqelik uyg‘unligini, ham psixologik vaziyatni umumlashtiruvchi yagona estetik mezonligidan dalolat beradi. Chunonchi, L.Tolstoy asarlariga e’tibor berilsa, biror voqelikni tasvirlashda ipidan-ignasigacha, shoshmasdan, diqqat bilan, falsafiy o‘ychanlik negizida tartiblashtiradi. Aga shu jarayonda xarakterlar sistemasiga oydinlik kiriiladi. Din va dunyo uyg‘unligi, jamiyatning vaqtida yechilishi yoki barham topishi muhim bo‘lgan umuminsoniy muammolari yanada ko‘rkamlik bag‘ishlaydi. Bunday teranlik F.Dostoyevskiy, I.Turgenev badiiy izlanishlarida yuksak iste’dod bilan namoyon bo‘lib turibdi. Shuni alohida qayd etish muhim, badiiylik modusi pafos tiynatida chuqurlashadi. Qahramonning fuqarolik burchi va mas’uliyati yanada yorqin ranglarda namoyon bo‘lib, hayot haqiqatini jiddiy qabul qilishga jalb qiladi.

“Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da **Pafos** (gr. Pathos – hissiyot, ehtiros so‘zidan) jo‘shqinlik. Asar pafosi – yozuvchini maftun etadigan va butun asarga

⁶⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burixon-bir-tomchi-yosh-issa/>

singib ketgan g'oya, his va hayajonldadir. Pafos bilan yozilgan asar deganda xuddi shuni anglash lozim. V.G.Belinskiy, badiiy asarni o'rganish va tahlil etishda, hammadan ham avval undagi pafosni belgilab olish ma'qul, deb hisoblaydi. Pafosli nutq jo'shqin, hayajonli nutqdir"⁶⁵.

Ta'kidlash lozimki, badiiy asarda pafos butun boshli voqelikni o'zida aks ettirish yo'sinida namoyon bo'ldi. O'quvchini notanish bir hayot manzarasi bilan tanishtirish bobida yozuvchi hech ikkilanishsiz qadam tashlaydi. "Bir tomchi yosh" qissasida tasvirlangan Baxtiyorning xarakterini, ruhiy holatini aks ettirishda pafos benihoya katta vazifa bajaradi. "Gegel estetikasida pafos juda muhim o'rin tutadi, u san'atning o'zagi, "san'at saltanati"ning asosi sifatida talqin qilinadi. Hegelga ko'ra, pafos inson mohiyatini tashkil etuvchi obyektiv mavjudlik, qalbni harakatlantiruvchi qudratli kuch bo'lib, ijodkor o'z asarida uni ifodalashni maqsad qiladi, ya'ni muayyan pafosni ifodalash san'at asarining muaddaosi, ijodning motividir. Shu asosda Hegel ijodga turtki beruvchi motivlar, pafos ko'rinishlari sifatida "oila", vatan, davlat, cherkov, shon-sharaf, do'stlik, g'urur, nomus, muhabbat" kabilarni ko'rsatadi. Hegel ta'rifidagi pafos ko'proq asar personajlari bilan bog'liq bo'lsa, V.Belinskiy uni ijodkor shaxsi bilan bog'laydi"⁶⁶, - deya yozadi prof.D. Quronov. Haqiqatdan ham, badiiylik modusi ritm, pafos va xarakter evolyutsiyasining uyg'unligini taqozo etadi. Aynan shu tariqa hayot haqiqati badiiy haqiqatga aylanadi. Go'zallik, mavjudlik jumbog'i yozuvchini beixtiyor zamon muammolarini yanada teran idrok etishga chorlaydi. D.Quronov juda go'zal o'xshatishni ilgari surgan. To'g'risi, badiiylik mezoni xaraktersiz yuzaga chiqishi mumkin emas. Xarakter teran ishlangan va batartib bo'lsa, ayni shu tamoyil yozuvchi mahoratining teranligini kafolatlaydi.

L.Bo'rixonning "Bir tomchi yosh" qissasidagi badiiy pafos va xarakter uyg'unligini quyidagi jadval asosida aniqlashtirishni lozim topdik:

⁶⁵ Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1967. –Б.162.

⁶⁶ Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б, 220.



Qissa ayni shu kabi syujet liniyalari birligidan iboratligi ayonlashadi. Unda ham jamiyat muammolari, ham yo'qchilikning og'ir sinovlari, ham boylarning kitob o'qimasdan baxtli va to'kin-sochin hayot nashidasini kechirishi dalolatlanadi. Yozuvchi o'quvchi oldiga dolzarb mushohadaga chorlovchi savollarni hikoya qilish davomida ifodalab berar ekan, buning natijasida inson konseptual qarashlari takomillashib boradi:

“Nihoyat, Arpasoyning latlangan qovuniday bo'shashib yurgan shunday kunlarning birida omadi chopib qoldi. O'shanda lo'lilar mahallasiga yaqin joyda, befayz, arzon oshxonada ilimiqliq sho'rva ichib o'tirardi. O'zidan andak naridagi, aftlaridan quruvchi ustalariga o'xshash xo'randalar diqqatini tortdi.

“Xo'jayin haqimizni bermayapti,” – dedi ulardan biri non bo'lagini og'ziga solarkan.

Sherigi unga taajjublanib ko'z tashladi.

“Nega, uyini bosh-adoq qurib berdilaring-ku?”

“Besh xonaga ham gul chizib chiqishimiz kerak ekan.”

“Ichimizda rassomimiz yo'q demadingmi?”

“Brigadada hamma mutaxassislikdan odam bo'lishi shart emish.”

Baxtiyorning qulog'i ding qotdi. Hatto, shundoqqina qanshariga kelib qo'ngan noyob tur kapalakni cho'chitib yuborishdan qo'rqqandek bir nafas damini

ichiga yutib o'tirdi. So'ng sekin ularning yoniga o'tdi, o'zini tanishtirib, bexos ularning gapiga quloq solgani uchun uzr so'radi...

...Bir ozdan so'ng dovdiranib-g'udranib yonlarida o'tirgan, qoramag'iz, sochlari hurpaygan, ozg'in yigit rassom ekanligini bilib, quruvchilar avvaliga ajablanib ko'z urishtirishdi, so'ng bab-baravar iljayishdi.

O'shanda quruvchilar emas, aslida taqdir tabassum qilgan ekan. Baxtiyor o'z ishini topib oldi. Quruvchilar to'pidan rassom maqomida joy olib, ne bir uylarning devoriga manzaralar, naqshlar chizish bilan shug'ullandi. Nozik did, betizgin xayolot mahsuli bo'lgan chizmalar qaraganni bir zum o'ziga sehrlab qo'yardi. Baxtiyor yon-atrofga tez tanildi. Unga uyini bezatishni istaganlar navbat talashib qoladigan bo'lishdi.

“Sening iste'dodingni ilgari hech tan olmagandim, – dedi o'sha rahnamo amakisi, kunlardan bir kuni Baxtiyor uning yangi qurgan imoratiga chizib bergan naqshlarga mahliyo tikilarkan, – ana endi hunaringga besh ketib o'tiribman, uka. Avval boshidayoq seni Toshkentga olib bormaganimdan afsusdaman. Sening joying poytaxtda, uka. Ha, mayli, hechdan ko'ra kech degan o'rislarning maqoli bor. Endi Toshkentga borasan. Eng zo'r rassomlar bilan tanishib, aka-uka kirishasan. O'sha yoqda ishlaysan. Men o'zim senga yordam beraman. Ketishga taraddud ko'raver...”⁶⁷

Mana shu lavhada Baxtiyorning botinidagi og'riqlar yana qayta uyg'onganday taassurot qoldiradi. Negaki, yozuvchi har qanday sharoitda Baxtiyorning xatti-harakatisiz, uning ishtirokisiz biror voqelikni ifodalab bermaydi. Qishloq va shahar oralig'ida faqat xayollarida kechayotgan orzu-umidlar kundan-kunga Baxtiyorning ichki iztiroblarni oshirar, ertangi kundan najot kutib yashashga umidvorlik hissini tuyishga yetaklardi.

Badiiy asarda ayrim masalalar borki, uni har bir qahramon boshidan o'tkazishi tabiiy bir hol deb qarash kerak. “Gallyutsinatsiya aslida tibbiyotga daxldor atama. U ruhiy kasallikning bir turi. Internet ma'lumotlariga ko'ra, ilk bor bu atama 1938-yil fanda qo'llanilib boshlangan. Hayotidagi kuchli iztirob,

⁶⁷ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burihon-bir-tomchi-yosh-issa/>

dard-alam tufayli bemorda gallyutsinatsiya holati yuzaga kelib, uning ruhiyati izdan chiqadi. Meditsinaga doir adabiyotlarda qayd etilishicha, mazkur kasallik bemorlarda turlicha holatda zuhur bo'ladi. Jumladan, eshitish, ko'rish va ta'm bilish orqali gallyutsinatsiyaga uchrash mumkin. "Gallyutsinatsiya" adabiy termin sifatida esa o'zbek adabiyotshunosligida, asosan, 70-yillarda N.Shodiyev, H.Umurov, so'ngra Y.Solijonov ishlarida qayd etilib, u haqda nazariy fikrlar bildirilib va adabiy asarlar tahlilida shunday qahramonlarga misollar ko'rsatib berilgan"⁶⁸, – yozadi dots. M.Qo'chqorova. Darhaqiqat, "Bir tomchi yosh" Baxtiyor ruhiy iztiroblari bilan gallyutsinatsiyaga uchradi. U xayol surar, ko'z o'ngida shunday bir go'zal olam yashardiki, bu olamning suratini uning ichki dunyosidan boshqa hech kim bilmasdi. Ana shunday tarzda o'tayotgan umrning poyoni bir kun tugashini his qilsa-da, imkonsizligi esa doim pand berardi.

Buni quyidagi lavhada ham kuzatish mumkin. Baxtiyor o'z iste'dodining ro'yobga chiqib, orzulari ushalishiga umid bog'lagani sayin cho'kib borayotganini ham his etardi. Negadir o'zining ruhiy olamida yashashga odatlangan ko'rinadi. Yozuvchi ziddiyatlar, kuchli depressiya ixotasida evrilib borayotgan qahramonni har ko'yda sinovdan o'tkazib, hayot haqiqatining shu qadar shafqatsizligini fosh qilish darajasiga ko'tariladi. Bunday usul rus yozuvchisi M.Sholoxovning "Tinch Don" epopeyasida kuzatilsa, o'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayevning hikoya va qissalarida yorqin ranglarda namoyon bo'lgan. Yozuvchi bu ikki qahramon adibning poetik uslubini teran o'rgangan. Pirovard natijada, ulardan adabiy ta'sirlangan o'rinlar ham topiladi. Lekin zinhor taqlid qilgan emas. L.Bo'rixonning individual uslubi shunday xulosaga kelishimizga asos bo'lmoqda:

"To'g'risi, shu rassomimizga umuman tushunmadim. Bir qarasang soatlab laqillab gurung beradi, bir qarasang kun bo'yi miq etmay xayol suradimi-yey, g'amga botib yuradimi-yey...."

"Kim biladi, ichida bir dardi bo'lsa kerakda bechoraning."

"Davay, uni ho'ngillatmay tezroq uyiga olib borib tashlaylik."

O'sha tunda Baxtiyorning kasali yana xuruj qildi.

⁶⁸ Қўчқорова М. Бадий сўз ва рухият манзаралари. –Тошкент: Мухаррир, 2011. –Б.169.

“Ana aytmadimmi, tez-tez ko‘rikdan o‘tib turish kerak deb. Siz esa bo‘kib ichib yuribsiz” – dedi mahalla vrachi, uning tovushida bezovtalikdan ko‘ra tantana ko‘proq edi.

Baxtiyor o‘n kuncha viloyat kasalxonasida davolanib chiqqan bo‘ldi. Ketar chog‘i do‘xtirlar odatdagiday tayinlashdi: “Sizga qattiq ta’sirlanish ta’qiqlanadi. Spirtli ichimliklardan mutloq uzoqroq yuring.”

Baxtiyor odatdagiday bosh iring‘ab qo‘ydi. O‘sha tunda ko‘rgan manzarasi hali-hanuz uning ko‘z o‘ngida turardi. Kasalxonadan chiqib qamoq mo‘yqalam tutishni mo‘ljallab yurardi.

“Agar shuni ham eplasam, ikkita zo‘r kartinam bor bo‘ladi!” – xayolidan o‘tkazdi u. – Keyinroq Toshkentga olib boraman. Eng mashhur rassomlarga ko‘rsatib maqtanaman. Yo‘q, yo‘q, bira to‘la poytaxtga ko‘chib ketaman. Faqat ijod bilan shug‘ullanaman. Ungacha iqtisodni tiklab olaman, uch-to‘rt yil ishlamasam ham ro‘zg‘orim kechadigan darajada mablag‘ni g‘amlayman”⁶⁹.

Yozuvchi roviy nutqi bilan polifonik qatlam uzviyligini omuxtalashtirib, pafosni kuchaytirib borar ekan, har bir lavhada Baxtiyorning qalbidagi sohir orzularga oydinlik kiritishga diqqat qaratadi. Bular quyidagi shaklda tavsiflanadi:

1. Har qanday badiiy asar yozuvchi xayoloti va hayotiy haqiqatining muhim qirralarini namoyon etuvchi ko‘zgudir. Ijodiy konsepsiya tig‘izligi badiiy ijodda ritmni ham maromda ushlab turishga yo‘l ochadi. Chunki xarakter bir qarashda murakkab vaziyatda irodasizlik qilishi tayin. Ayni paytda, Baxtiyorning ushalmagan orzulari, jamiyatning mafkuraviy tizimida “nimadir” yetishmasligini namoyon qilmoqda.

2. O‘ktam manfaat yuzasidan do‘stlik rishtasini bog‘lagan obraz. E’tibor berilsa, asar muqaddimasida Baxtiyorning zoriqqan kayfiyatini to‘ldirmaydi. Bor imkoniyatidan Baxtiyorni mosuvo qiladi. Qarz va yo‘qchilik bo‘lg‘usi rassom ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ana shu ziddiyatlar qahramonning botiniy hissiyotlarini jiddiy toblay oladi.

⁶⁹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burixon-bir-tomchi-yosh-issa/>

3. Rassom o'zi ulg'ayib o'sgan qishloqdan baland ko'tarila olmaydi. Harbiy xizmatga borib kelganidan keyingi boshlangan "turg'unlik" asar qahramonida salbiy hissiyotlarning bolalashiga zamin hozirlaydi. Chunki yoshi ham bir joyga kelgan, bir paytlardagi tiniq va olovqalb nigohlar qandaydir ismsiz dardlar bilan olishganini taqozo etmoqda.

4. Georgiy ismli rassomning yoshligida otasi guvohligida Baxtiyorga bergan va'dalari ham quruq gap bo'lib havoda qoldi. Qissadagi muhim syujet chiziqlari Georgiy bilan ham chambarchas bog'liqligi ayni haqiqatdir. Chunki yoshlikda olingan bilim va tajribani Baxtiyor kelajakda jiddiy sinovdan o'tkazib ko'rishi mumkin edi. Biroq bunday bo'lmagani sababli, Baxtiyor yana o'z orzulari bilan yolg'iz qolish yo'lini tanlaydi.

Prof. D.Quronov: "Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni ko'zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro'yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo'lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik bo'lishi tabiiy. Demak, adabiy asar strukturasini gap qurilishi model (konstruksiya)lariga tayangan holda tushunish va tushuntirish mumkin bo'ladi"⁷⁰. Binobarin, bularning barchasi – ritmda o'z aksini topadi. Demak, ritm asar kompozitsiyasida o'lchovni, janrni, g'oyani, ijodiy konsepsiyasini bir maxrajda tartiblashtiradigan muhim komponentlardan biri ekanligi namoyon bo'ladi. "Yosh bolaning qalbini mashhur psixanalitik Karl Gustav Yung ziddiyatlar o'chog'i deb ataydi. Olim deydi, yosh bola kelgusida normal shaxs bo'lib yetishishi uchun doimiy ravishda tirik tabiat bilan muloqot qilishi lozim"⁷¹. Bundan ko'rinadiki, Baxtiyor o'zi mansub avlod orasida ziddiyatlar qurshovida umr kechirishga majburligi ayonlasha boradi. Chunki bolalik hech qachon qaytmaydi, bu fenomen har bir oddiy iste'doddan boshlab, daho san'atkorlar orasida ham ro'y beradigan jarayondir. Karl Gustav Yungning falsafiy talqini, haqiqatdan ham, Baxtiyor kabi bolalarning insoniy burch

⁷⁰ Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент: Шарқ, .2004. –Б.73.

⁷¹ Раҳимжон Раҳмат. "Муножот"дан "Боқий дарбадар"гача. –Тошкент: Турон замин зиё, 2017. –Б. 95.

va istaklari qarshisida ojizona qolib, hayot kechirishi bilan yanada o'quvchini iztiroblar changaliga uloqtiradi. Bunday paytda, yozuvchi o'zining realistik talqinidan aslo uzoqlashmaydi. Bo'lib o'tayotgan har qanday voqelik qarshisida Baxtiyor va O'ktam ikkisi ikki olam bo'lib namoyon bo'ladi. Demak, qissadagi badiiy xarakter, pafos va ritm kuchli tragik maydonni hosil qiladi. Natijada, hayot haqiqatining yorqin qiyofasi ranglarda aks etayotgan go'zallik singari Baxtiyor qalbiga umid uchqunlari bo'lib ko'chib o'tadi.

L.Bo'rixon izlanishlarida inson konsepsiyasi. Har qanday badiiy asarning arxitektonikasida inson shaxsi va konsepsiyasi yetakchi atribut ekanligi ayonlashadi. Chunki inson obrazi, inson mohiyati Sharq xalqlarida IX-XII asrlarda qomusiy olimlarning nazariy-ilmiy qarashlarida yanada takomilashib, jiddiy muammo sifatida o'rganila boshlandi. Ayni paytda, insonning olijanoblighi, davr va zamon og'riqlarini hal etishda mard va jasurligi tafakkur sohiblarining diqqat markazida bo'lgani haqiqatdir. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" risolasida komil inson tushunchasi va unga erishishning bosqichlari hikoya qilinadi. Keyinchalik Alisher Navoiyning estetik qarashlarida komillikning sharti va uning yo'sinlari talqini bugungi kun yozuvchilari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Demak, zamonaviy o'zbek qissachiligida, ayniqsa, L.Bo'rixon badiiy izlanishlarida inson konsepsiyasi tafakkur qilishga undovchi estetik g'oyalar bilan sug'orilgani bilan qimmatlidir. "Bir tomchi yosh" qissasida Baxtiyorning buyuk rassom bo'lish orzusi butun millatning fojeaviy hayotini xuddi oyina singari bizga ko'rsatib berishidan dalolat beradi:

Otasi esa uning yo'qlab borishini kutib o'tirmadi. Nevaralarini ko'rish bahonasida shaharga tushdi. Ammo esi-dardi o'g'lida ekanligi shundoqqina yuz-ko'zidan bilinib turardi.

"Bolam, qo'ramda uch-to'rtta ko'taram qo'yim bor, xohlasang bir oz boqib semirtir, xohlasang shu holicha sotib yubor, tirikchiligingni o'ngla," – dedi u o'g'liga beadoq hasrat bilan tikilib.

Baxtiyor shu alfozda olti oycha kun ko'rdi. So'ng eski bir tanishlarini o'rtaga qo'yib, yalinib-yolvorib shahardagi qo'shma korxonalardan biriga

madaniy-ma'rifiy ishlar bo'limiga o'rnashdi. Har xil shiorlar, hikmatnamo, maqolnamo gaplar bitilgan panolar tayyorlash, lozim joylarga suratlar, yo'riqnomalar chizish kabi mayda-chuyda vazifalar uning zimmasiga yuklatildi.

“Hozircha sinov muddati bilan olamiz, maoshingiz kamroq bo'ladi, – dedi xo'ppa semiz, yuz-ko'zlariga ayovsiz upa-elik chaplangan ayol, – ishingiz ma'qul bo'lsa, uch oydan so'ng shtat bo'yicha haqingizni olaverasiz...”

O'shanda kech kuzning izg'irinlari izg'ib turardi. Sovuq. Lekin Baxtiyor quvonchdan qoni qizib, ko'zlarida o't porlab uyiga qaytdi. Xotiniga ko'ngli iyib, mehr bilan tikildi: “Matluba, senga rahmat. Qiyinchiliklarga sabr qilding, kamimni yashirib, ko'pimni ko'pirtib ko'rsatding.”

“Qo'ying-ye, – deb pichirladi Matluba, erining erib, erkalab qarashlaridan xijolatlanib. – Non topib kelayotgan siz-ku, men bir tashvishingizni mingga ko'paytirishdan boshqasiga yaramayotgan bo'lsam...”

O'sha qo'shma korxonaga ishga o'rnashgan kuni Baxtiyor uchun chinakam bayram bo'ldi. Xotini ikkisi bolalarni sayrboqqa olib chiqishdi. Kechqurun uyda osh damlandi. Xush hol o'rin-to'shakka cho'zilishdi, ammo... tun yarmida tuyqus Baxtiyorning uyqusi qochdi”⁷².

Mazkur lavhada L.Bo'rixon inson konsepsiyasini urg'ular ekan, Baxtiyorning asta-sekinlik bilan omadi yurishayotganidan dalolat beradi. Chunki har qanday sharoitda ham, yozuvchi o'zi anglatayotgan hayot aqidalarini Baxtiyor zimmasidagi oila va muhit majburiyatining ajralmas halqasi sifatida ko'radi. Dunyoning shiddatli o'zgarishi, o'tmish sarqitlaridan tamomila qutilish, o'tish davrining og'riqlari qahramon taqdiriga ta'siri bir murg'ak iste'dodning payhon bo'layotganidan o'quvchi ham qattiq iztirob chekadi. Yozuvchining yana bir muhim kamchiligi bu yerda ko'rinib qolgandek go'yo. Qissada Baxtiyor juda ojiz va qo'rqqoq qilib tasvirlangan. Shunday iste'dodning qaynoq hayot qo'ynida – yo'l topolmasligi unchalik ishonarli emas. Mayli, u omadsizlik va taqdiridagi yo'qchilik qurboni bo'lishi mumkin, axir Alloh bergan ko'nglida tuppa-tuzuk iste'dodi bor-ku? Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, yozuvchi qissada biroz

⁷² <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burihon-bir-tomchi-yosh-issa/>

hayot haqiqatini “tug‘ri talqin” qilganida shoshilgandek taassurot uyg‘otadi. Vaholanki, uning ota-onasi va xeshu aqrobalari bor edi. Unga qo‘l uzatguvchi odamlar faqat manfaat yuzasidan bormasligi, ya‘ni barchasi nafs bandalari emas. Axir, boshqa qarindosh-urug‘larining qistovi bilan juda ko‘p narsalarga erishishi mumkin edi. Mana shu yerda qissadagi ijodkor shaxsi va qahramonning konseptual harakatlari nomuvofiqligi kelib chiqmoqda.

Badiiy asarning nomi – semiotik kalit. Kalit esa asar mohiyati, borlig‘ini belgilovchi konsepsiyaning aniq, lo‘nda ifodasi. Ifodalanayotgan konsepsiya hayotiy, to‘liq anglab yetilgan bo‘lsa, yozuvchi “dastxati” ravon, jumlayu kalomlar mag‘izi to‘q bo‘ladi. Badiiy asar konsepsiyasi goho tasvir predmeti salmog‘i deb ham ataladi. Tasvir predmeti salmog‘i janrni belgilashda qo‘l keladi. Janrlar, xususan, roman, qissa, hikoya ta‘rifi berilganda, ko‘pincha, tashqi (yuzaki) salmoqqa e‘tibor qaratish udumi avj olgan. Vaholanki, tasvir predmeti salmog‘i yuzaki o‘lchov, hajmga ko‘ra ta‘rif berishni inkor qiladi. XX asrning mumtoz adibi Mixail Sholoxovning “Inson taqdiri” hikoyasi hajman kattagina: u ayrim qissalarga ko‘ra ko‘rkam. Lekin M.Sholoxov bu asarini atayin hikoya degan va urush dahshatlarini bitta shaxs hayoti orqali ko‘rgan”⁷³. Keltirilgan lavha munaqqid A.Rasulovning haqqoniy mulohazalaridir. Munaqqid masalaga turli tomonlardan baho berishga diqqat qaratadi. Chunonchi aslida – hikoyadagi yuk, pafos va mantiqni to‘g‘ri fahmlagan olim qissadan katta roman tarzida ham isbotlab, janrning aniq chegarasini chizib berishi tabiiy. Shunday bo‘lsa-da, hayotning qonuniyatlari baribir o‘zgarmas edi. Yozuvchi talabi esa, davrning muammolari, soxta ko‘zbo‘yamachiliklardan xoli ravishda yashash bo‘lishi ham mumkin.

Vaqt o‘tib, bo‘tana suvlar tiniqlashgani sari adabiyot o‘zining asl o‘zanlariga, azaliy qadriyatlariga qaytayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Zero, adabiyotda – so‘z san‘atida hayotni bo‘yab-bejamasdan haqqoniy tasvirlash, inson qalbini teran tadqiq qilish, uning quvonch-tashvishlari, dardlarini, ichki dunyosini, murakkab tuyg‘ular olamini butun ziddiyatlari bilan aks ettiruvchi yorqin obrazlar, badiiy kashfiyotlar yaratish vositasida o‘quvchiga estetik zavq

⁷³ Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Тошкент: Шарк, 2007. –Б.52.

berish va uning ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatish talabi hech qachon eskirmay qolaveradi. Ana shu muqaddas qonuniyatni asosiy mezon qilib olgan chinakam yozuvchilar qaysi davr va tuzumda yashashidan qat'iy nazar, inson yuragining eng chuqur nuqtalarigacha yetib boradigan, o'lmaydigan hayotbaxsh asarlar yaratib qoldirgani ma'lum. Balzak yoki Gogol, Dikens, Tolstoy, Dostoyevskiy, Turgenev, Chexov, Mark Tven yoki Tagor singari o'nlab bashariyat daholari ijodi bunga misol bo'la oladi. Bugungi kunda bu adiblarning qaysi metodda ijod qilgani yoki adabiy tajribalar o'tkazgani emas, balki hayot manzaralarini shafqatsiz haqqoniylik bilan tasvirlab, o'quvchi yuragini larzaga solgani va adabiyotni qudratli ma'naviy kuch darajasiga ko'tara olgani muhim⁷⁴. Keltirilgan mushohadaning ikki jihatini takomillashtirish ishonchni oqlaydi: birinchidan, mafkura vaqtning sinovlarida uzil-kesil o'zgarishlarni boshidan kechirishi tabiiy. Kechagi qadriyat sanalgan har qanday g'oya bugun uchun muvofiq kelmasligi aniq. Negaki, qariyb 70 yil davomida hukm surgan sobiq ittifoq g'oyalari san'atni ramkaga solib, uning benihoya katta imkoniyatlarini tiyib turish yo'sinida ish olib bordi. Yolg'on va soxta shiorlar, targ'ibot va tashviqot mashmashalari haqiqiy qahramonning shuhrat va shaxdam orzulariga doimo soya solib kelgani sir emas. Shiorlar, chaqiriqlar va soxta ko'zbo'yamachiliklar natijasida adabiyotda bir yoqlama ifodalash prinsiplari o'zining vaqtida muayyan darajadan ko'p ham samara bergani chin. Buning oqibatlarini to 90-yillargacha sezilarli darajada "yozuvchi botinida qo'rquv instinkitini" shakllantirib, o'zini namoyon qilishda jasoratning yetishmaslik holatlari ko'p bora tilga olindi. L.Bo'rixon ana shu 80-yillarning haqiqiy manzarasini kinoya, kesatiq va piching tarzida yuzaga chiqara olganligida ko'rinadi. Shaxsning ruhiy iztiroblari kuchaygan sari uning qobiliyat sezimlari ham o'z-o'zidan so'na boshlaydi. Har qachon xotiri jam, ko'ngil olami to'q insongina biror yutuqqa erishishi tayin. Bu ko'pchilik nazariy kitoblarda o'z isbotini topgan. Deylik, Baxtiyorning har qanday holatda ruhiy olamidagi uzil-kesil o'zgarishlarga o'zining qilgan xatolari ham, jamiyat va atrof-muhitdagi taziylar ham ta'sir qilganligi tabiiy bir holdir. Dunyoning soat

⁷⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uzbek-nasri-ufqlari-davra-suhbati/>

sayin o'zgarib ketayotgani, intellektual kapital – ilm-fanning zamonaviylashuvi, axborot zamonining ildamlashuvi natijasida mo'yqalam sohiblariga juda katta qiyinchilik tuhfa qilayotgani sir emas, albatta!

Qissada inson konsepsiyasi retrospektiv usulda ham o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadi. Shuningdek, qissaning ikkinchi bo'limida Baxtiyor maktab davridagi paxta terimi paytlarini xotirlaydi. Rajabgul ismli qizning suratini chizib, shirin muhabbatning ta'mini totgan o'smirliги shu paytdagi sog'inch to'la vujudiga taskin umidini baxshida qiladi. Bir tomondan, yozuvchi Rajabgulni eslab to'g'ri qiladi. Axir, ruhi mayib bo'lgan qalbga sog'inchning o'zi ham dalda bo'lishi haq gap:

“Oradan yillar o'tdi. Biroq o'sha paykalda kechgan kunlar qanchalar uzoqlashgan sayin, qiz dudog'ida qalqqan o'sha marjon-marjon yosh shunchalar yaqin kelar, shunchalar rangli, shunchalar tiniq ko'rinar, Baxtiyorga sevgi va sog'inch, shafqat va umid haqida teran hikmatlar so'ylar edi. Oxir-oqibat, dard-iztiroblar silsilasida unga mo'yqalam tutqazib, molbert yoniga haykalday turg'izib qo'ydi. Talabalikning so'nggi yilida Baxtiyor o'zining “Bir tomchi yosh” deb nomlangan kartinasini yaratdi...

...Sarg'ish-qizg'ish ranglar. Qaqrab-qurib, tars-tars yorilgan Yer shari. Yer shari ustida bir yonini bulut to'sgan Quyosh balqib turibdi. Bulut to'sgan Quyoshu Yer o'rtasida bir tomchi obi-rahmat billurday tovlanadi.

...Yo'q, yo'q! Bunda mutlaq boshqa manzara. Ko'rib turganimiz Yer shari emas, qaqrab-qurib, tars-tars yorilgan, tomirlari bo'rtib chiqqan Yurak. Yurak ustida bulut to'sgan Quyoshmas, bulutdek to'zg'in soch bir yonin to'sgan Ko'z! Sevgi, sog'inchga, shafqat-umidga limmo-lim Ko'z! Ko'z va qaqroq Yurak o'rtasida... olmosday tovlangan Yosh!..

Baxtiyor ana shunday sermazmun, serhikmat asar yaratgan edi! Unda ranglar ingrog'i baralla taralardi. Unda abadiyat, mangu dard, mangu savol g'ujanak bo'lib yotardi. Bu asar ko'rgan ko'zdan bir tomchigina yosh talab qilardi.

Baxtiyor buni jonu jahonim, umrim mazmuni deb bilardi. Hatto, Georgiy ham ko‘zlari ko‘m-ko‘k dengizday mavjlanib, xuddi shunday degan edi”⁷⁵.

Asarning mohiyati ayni shu lavhada jamuljamdir. Chunki yozuvchi Baxtiyorning shoh asarini “Bir tomchi yosh” tarzida idroklaydi. Rassom goh mazmunli va goh betartib, alg‘ov-dalg‘ov o‘tgan umrini xotirasida qayta jonlantirar ekan, uning naqadar xushbaxt lahzalar ekanligini dalolatlaydi.

Prof. Y.Solijonov qayd etishicha: “Detal syujetni harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Xarakterning o‘ziga xosligi ham, qahramonning ichki olami ham, tashqi qiyofasi ham, voqealar rivoji ham, fikrning tiniqligi ham, syujetning tranglik kasb etishi ham – barchasi ana shu detallar orqali amalga oshadi hamda ta’sirchan va ishonarli chiqadi. Buni yaxshi tushungan har qanday san’atkor asarida voqealarni detallashtirib bayon qilishga alohida e’tibor beradi”.⁷⁶ Darhaqiqat, qissada ikki jihat syujet va kompozitsion yaxlitlikning sinteziga ulanadi. Birinchidan, yozuvchi “Quyosh hali botmagan”, “Sirli muallim”, “Bir tomchi yosh” qissalarida xotiraning qayta idroki, bolalikning shirin va qaytmas lahzalarini teran istifoda qilganligida seziladi. Ayniqsa, bolalik va o‘spirinlikning sohir lahzalari hayotning puchmoqlarigacha kirib borishga undaydi. Chunki inson o‘zining botinida yashayotgan har qanday voqelikni tafakkur qilishga intilib yashaydi. Mana shu moddiy o‘lchovi ma’naviyat bilan ug‘ynlashsagina – inson o‘zini baxtli his qilishga haqli. Shunday ekan, yozuvchining asl va pirovard maqsadi, konsepsiyasi – jamiyatni tutib turgan kuchlar (ma’rifatga) tashnalik sezishini istashlikdir. Bo‘lmasa bunday urinishlar har qanday davrda o‘zining potensial manzarasini namoyon qilishi dargumon. L.Bo‘rixon mavjud muammoning ildizini – ma’naviy butunlik va ma’rifiy teranlikda deb biladi. Shuning barobarida yozuvchi inson konsepsiyasini birinchi bor – bilim va saviyaning o‘rish-o‘zgarishlariga qarab turlanishini xilma-xil obrazlar negizida qayta tiklashga erishadi.

⁷⁵ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burihon-bir-tomchi-yosh-issa/>

⁷⁶ Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда. Ўзбек адабий танқиди. –Тошкент: Турон-иқбол, 2011. –Б.207.

Prof. S.Melining ushbu mulohazalariga e'tibor beraylik: "Badiiy adabiyot – alal-oqibat ruhoniyyat hodisasi. Shunday ekan, yaratilgan va yaratilajak asarlardagi voqea, qahramon va his-tuyg'ularga **ruhoniyyat** nuqtayi nazaridan yondashish, ruhoniyy quvvat, ruhoniyy tuyg'u, ruhoniyy ta'sir degan atama-tushunchalarni ilmiy iste'molga faol kiritish lozim. "Injil"da yozilganidek, "Moddiy jismlar bor bo'lganidek, ruhiy jismlar ham bor" (Ruschasi "Yest telo dushevnoye, yest i telo duxovnoye")⁷⁷. Munaqqid S.Meli nihoyatda dolzarb masalaga aniqlik kiritishida, insonning ilmiy quvvati oshishi jamiyatdagi taraqqiyotning yuksalishiga dalolatligini ko'rsatmoqda. L.Bo'rixon "Sirli muallim" qissasidagi Najot G'aybullal obrazini – soxta shon-shuhrat egasi bo'lishi bilan birgalikda, bilishga ishtiyoqi kuchli qahramon sifatida qadrlanadi. Har qanday ixtiro uning uchun zavq-shavq makoni. L.Bo'rixon "Bir tomchi yosh" qissasida ayni shu tamoyilni Baxtiyor ismli rassom taqidiri timsolida zimdan kuzatadi. Jamiyatdagi qarama-qarshi kuchlar, sobiq ittifoqning qon-qonimizga singdirgan illatlari, fikrsizlik va mahdudlik alal oqibatda millatni jar yoqasiga olib kelishini ko'rsatishdan iboratligi ayonlashadi. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'liga qadam qo'ygan ekanmiz, jamiyatdagi eskilik sarqitlaridan tamomila voz kechib, yangi bir demokratik davlat barpo etish yo'liga o'tganimizni chuqur his qilgan holda harakat qilishimiz lozim. Chunki yozuvchi L.Bo'rixon vaqtning o'tishi va uning qaytmasligini tezda fahmlab qalam suradi. Ko'pgina asarlarida chinakam iste'dodli kishilarning xor-u zor bo'lib, hayotda o'z yo'lini topolmay aziyat chekkanligining guvohi bo'lgani, mana shu tamoyilning yozuvchi iztiroblarida aks-sado berishi o'quvchini ham chuqur o'yga toldirishi tabiiy. Baxtiyordek olijanob iste'dod egasi har bir davrda bo'lgan. Bunday paytda har bir insonning kechmishi va taqdiri hayot haqiqatini anglashga katta imkon berishi bor gap. L.Bo'rixon ana shu muammoni badiiyat nuqtayi nazaridan konseptual bir qarashlarning yig'indisi sifatida mantiqiy ifodalagani yuqoridagi mulohazalarimizni to'laqonli asoslaydi.

⁷⁷ Азиз Ҳаворий Павлуснинг Коринфликларга биринчи мактуби. 15:44.

Bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki, badiiy psixologizm har qanday janr tabiatida muhim o'rin tutadi. Uning ham syujetga, ham kompozitsiyaga, ham asar personajlariga ta'siri, ijodiy konsepsiya takomilini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, yozuvchi hayot haqiqatini nisbatan tor doiradan katta umumlashma olamga olib chiqishi ayonlashadi. Bob bo'yicha yuqoridagi mulohazalarimizni umumlashtirib, quyidagi xulosaga keldik:

1. Ruhiy tahlil bir vaqtning o'zida syujet voqealari rivojida muntazam o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradigan estetik kategoriyalardan biridir. XX asrning 70-80-yillaridan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy hayot taqdirning chigalliklarini yanada jiddiy evrilishlarda teran namoyon bo'lishiga katta zamin yaratdi. Bu asta-sekinlik bilan 90-yillar avlodiga adabiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada L.Bo'rixon, Z.Qurolboy qizi, A.Yo'ldoshev, Sh.Hamroyev, S.Vafo kabi yozuvchilarning realistik va modernistik izlanishlarida o'z ifodasini topdi. Biroq ko'r-ko'rona e'tiqod adabiy hayotda hech qachon qiymatlilik olib kelmaganligini e'tirof etish lozim. Shu ma'noda, L.Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasida o'tish davrining og'riqli nuqtalari kinoyaviy-parodik yo'sinda talqin etilgani ayni haqiqatdir.

2. L.Bo'rixonning "Bir tomchi yosh" qissasida rassom xarakteri va psixologik vaziyat tig'izligi shundan iboratki, badiiylik modusi pafos negizida qayta idrok etilib, yozuvchi tomonidan ishlanganlik darajasi bilan yuzaga chiqmoqda. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylanishi o'z-o'zidan ro'y bergan emas. Yozuvchi haddan oshiq darajada kinoyani tasvir usuli sifatida qo'llaydi. Bu me'yorning buzilishiga olib keladi. Lekin syujet konsepsiyasida yozuvchining jamiyatda ildiz otib borayotgan illatlarni tanqidiy talqin etganligi ishonchi oqlaydi. Davronbek va Norsoatning o'zaro do'stligi bir muhabbat g'avg'olari deb darz ketadi. Mana shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, yozuvchi G'arb an'analarining milliy mentalitetimizga sizib kirib, qadriyat sifatida singib borayotganidan ogoh etganligini tan olish zarur.

3. Yozuvchining "Bir tomchi yosh" qissasidagi Baxtiyor obrazi istiqlool davri adabiyotimizda fikrsizlik va mahdudlikning sho'rodan qolgan sarqit ekanligini

anglashga imkon beradi. Yozuvchi yangi zamon qahramonini qayta kashf etadi. Baxtiyorning iste'dodini yanada tarbiya qilganida Vatanimizdan juda yorqin rassom yetishib chiqishiga ishora qiladi. Qissaning tili ravon, xarakterlarda izchillik mavjud. Chunonchi, inson har qanday sharoitda jamiyatning bir uzvi ekanligini yorqin xarakterlarda ko'rsatib berganligini ayni paytda e'tirof etish lozim.

III BOB. BADIY ASARDA XRONOTOP VA PSIXOLOGIK TAHLIL UYG‘UNLIGI

3.1. -§. L.Bo‘rixon qissalarida xronotop va retrospektiv syujet badiiyati

Har qanday badiiy asar makon va zamon orasida kechadigan voqelik talqinida namoyon bo‘ladi. Shuning barobarida kecha-bugun-ertaga uchligi qahramon intellektini namoyish qilish imkonini beradi. XX asrning ibtidosida rus adabiyotida badiiy xronotop shakllari va uning o‘ziga xos yo‘sinlari borasida qator tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, I.Turgenev qissalari, hikoya-yu, romanlari timsolida muammoning ba’zi jihatlariga oydinlik kiritilgan. Badiiy xronotop yozuvchi ijodiy konsepsiyasining ajralmas halqasidir. Badiiy xronotop poetik fikrning syujet halqalarida sochilgan detallargacha ta’sir qiladi.

Badiiy asarda makon va zamon muammosi, bevosita “xronotop” termini rus olimi M.Baxtin tomonidan o‘tgan asrning 30-yillarida adabiyotshunoslikka tatbiq etilgan. “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makonaro uyg‘unlikni xronotop (so‘zma-so‘z tarjimada makon-zamon degan ma’noni bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida (Eynshteynning) nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llab kelindi. Istilohning biz uchun, matematikada qo‘llanadigan, maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo‘q. Uni adabiyotshunoslikka (tom ma’noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Biz uchun muhimi, bu o‘rinda istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda (zamonning, makonning to‘rtinchi o‘lchami sifatida) ifodalashidir. Xronotopni biz adabiyotdagi shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilamiz”⁷⁸. Badiiy asardagi shakl va mazmun kategoriyasi Baxtin ta’biri bilan aytganda – yozuvchining qaysi davrni o‘z ichiga olgan voqelik sifatida ko‘ra olishida seziladi. L.Bo‘rixonning aksariyat qissalarida bo‘lib o‘tgan voqelikning sabab va oqibatlarini aniqlashdan boshlanadi. Buni quyidagi shaklda istifoda etish maqsadga muvofiq:

1. **“Sirli muallim”** qissasida roviy nutqi orqali ochiqylanayotgan voqelik allaqachon A nuqtadan B nuqttagacha sodir bo‘lib bo‘lgan. Taftish qilinishi muhim

⁷⁸ Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе(Очерки по исторической поэтике) / В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. –М.: Художественная литература, 1975, – стр. 234.

bo'lgan Najot G'aybulla qismati haqida 41-posyolkadagi ovloq cho'l qo'ynida faoliyat yuritishi, maktab hayoti, uning soxta diplom bilan mahalla faollari-yu, o'quvchilarni "chuv" tushirishi xususida ro'y beradi. Aslida, Najot G'aybulla qismati har bir pedagog-ziyoli qatlam, jamiyatning faol a'zolariga saboq, ibrat bo'lishiga da'vat qilinganida ko'rinadi.

2. **Qissa** qahramonlari jamiyatning faol a'zolari – o'qituvchi xalqining haq-huquqlaridan ham o'z ko'rsatmalarida ochiq-oshkor tasvirlanadi. Ular Najot G'aybulla taqdiri qolib, o'zlarining maktabdagi faoliyati, qayerda o'qiganligi-yu, nima ishlar ustida bosh qotirayotganliklari xususida nutq so'zlaydi. Bu yerda badiiy xronotop va psixologik vaziyat jamiyatning boshi berk ko'chaga kirib qolganligini, sobiq ittifoq davridan kelayotgan o'tmish sarqitining zararli oqibatlarini ham namoyon qiladi.

3. **Yozuvchi** retrospektiv usulda qahramonlarning voqelikni o'z nuqtayi nazari bilan idroklashi ishonchini oqlaydi. Chunki yozuvchining har bir detalga alohida yondashuvi personajlarning tasavvur va tafakkur darajasini ham ko'rsatib beradi. Mana shu o'rinda badiiy xronotop qaysi davrni o'z ichiga olishi, jamiyatdagi voz kechilishi muhim bo'lgan illatlarning barchasi yozuvchi nuqtayi nazaridan sinovdan o'tkaziladi. Najot G'aybulla timsolida – butun maorif tizimi keskin tanqidiy munosabatli nutqning yuzaga kelishiga katta zamin hozirlaydi.

Ma'lumki, adabiyot va san'at, umuman, estetik rang har bir insonda moddiy va jismoniy kamolot ham, ma'rifiy kamolot ham, ma'naviy-axloqiy kamolot ham, ma'naviy-ruhiy kamolot ham bo'lishini, inson o'z ichida bir-biri bilan yuksak darajadagi uyg'unlik hosil qilishini, inson yashaydigan jamiyatda, bashariyatda va umuman dunyoda hayotbaxsh shart-sharoitlar va moddiy-maishiy ma'murchilik ham, ma'naviy-ruhiy kamolot ham bo'lishini va ular o'z ichida ham uyg'unlik hosil qilishini, bundan tashqari, insondagi mana shu har tomonlama komillik jamiyatidagi, bashariyatdagi, olamdagi komillik bilan ham uyg'unlik hosil qilishini istaydi, orzu qiladi, talab etadi, kuylaydi va shunga xizmat qilishga o'zini safarbar

deb biladi⁷⁹. Haqiqatdan ham, har qanday badiiy asardagi estetik ideal shu davrning ijtimoiy-axloqiy ehtiyoji o'laroq yuzaga keladi. Yozuvchi hayotning qaysi bo'g'inini ko'proq idrok etsa, jamiyatning og'ishmay olib borayotgan siyosatini ham teran tafakkur bilan anglatishi hech qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning barobarida, hayot qonuniyati murakkab va o'zgarmasdir. Faqat taraqqiyotning zanjirlarida odamlar ruhiyatida kechayotgan psixo-estetik jarayon ta'siri sezilishi mumkin.

“Sirli muallim” qissasida badiiy xronotop Ulash agronom-shoirning tushuntirish xatida yanada o'ziga xos mohiyatga evriladi. Ulash agronom-shoirning ko'rsatmasida butun maktab ahlining, o'qituvchilarning sirlari fosh bo'ladi. Uni shu qadar bo'yab-bejamay, go'zal bir asarni yozgandek tasvirlaydiki, yozuvchi bu qahramonni asarga atayin olib kirgan. Negaki, ko'pchilik o'z diydiosidan nolib, ko'rsatma bersa, shoir-agronom butun maktabning direktoridan to qorovulligacha muttaham ekanliklarini bayon qiladi:

“Men sizga aytsam, hurmatli tergovchi, ushbu maktab jamoasining hammasi ham bir go'r. Barchasi ma'naviy buzuq, poraxo'r. Masalan, maktab ilmiy mudiri Norxol Xushbaqovani olaylik. Anavi yuzida “indiyskiy” xoli bor, do'mboqqina ayol-da, taniysiz-a? Eri ikki yil avval Rossiyaga ketib qolgan. “Tirikchilik qursin, xo'jayinim pul topish dardida sarsongarchilikni bo'yniga oldi”, degan gap qilib yuribdi Norguloy. Aslida-chi, eri undan bezib ketgan. Endi qaytmaydi, aytishlaricha, o'sha yoqda bir go'zalga uylanib olgan emish. Hammasiga shu ilmiy mudirning o'zi sababchi. Har xil majlislarni bahona qilib markazga kunora qatnaydi, uyiga kech qaytadi. Yosh boshiga behuda ilmiy mudira bo'lib qolmagan bu, bilaman-da.

Masalan, direktor o'rinbosari Boymurod serriga nazar tashlaylik. Xudo sal kam ikki metrlik bo'y bergan, hunar-punar degan narsalardan ham qismagan, lekin aynan muallimlik uquvini bermagan-da. Lekin bu kishim o'qituvchilar. Algebra, fizika kabi eng jiddiy fanlarni egallab olgan. Davlatning oyligini qurtdek sanab olib yotibdi.

⁷⁹ Олимов М. Бадий адабиётда эстетик идеал муаммоси. –Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. –Б.451.

Umuman, hurmatli tergovchi, maktabda nosogʻlom muhit bor. Qalqonov, Norxol, Boymurodlar oʻzaro jinoiy guruh. Oʻqituvchi kadrlar yetishmaydi, degan bahona ostida dars soatlarini boʻlib olishgan. Hali ona suti ogʻzidan ketmagan, qay goʻrdagi kollej-mollejni amal-taqal bilan bitirib kelgan qizlarni ham ishga qabul qilgan. Hammasi shu uchchovining qarindoshi, hammasi koʻrsavod.

Domla Xurramovich haqida hech narsa deyolmayman. U anaqa... maxsus idoralarning xufyona xizmatida. Qoʻrqaman. Uni taniysiz-a: yoshi ellikdan hatlab oʻtgan, sochlari menikidek siyrak, qirovtus. Vaziyatga qarab goho shlyapa, goho doʻppi kiyadi va lek hech qachon yalangbosh yurmaydi. Hoynahoy, bor-yoʻgʻ es-aqli bosh kiyimida, esam garangsib qoladi. Koʻzlari targʻil. Rangi uniqqan yoqalaridan qop-qora galstugi hech yechilmaydi. Oʻlsayam bir kun shu boʻyinboqqa osilib oʻlishni niyat qilgan, shekilli. Biroq domla hozircha dadil, hayotga hushyor qaraydi. Salomat boʻlsinlar.

Anchagina aljirab yubordim-ov, oʻrtoq tergovchi. Lekin meni mast deb oʻylamang. Ilhom uchun ahyon-ahyon, qittak-qittak olishimni hisoblamasak, mutlaqo ichmayman. Shu sabab yozganlarimni diqqat qilishingizni eltimos qilaman”⁸⁰.

Ulash agronom-shoirning koʻrsatmalaridan lol-u hayron qolgan tergovchi har bir narsaning tagida bitta haqiqat yotishini tushunib yetadi. Bir vaqtning oʻzida ham davrning achchiq qismatini, jamiyatning boshi berk koʻchaga kirib, yoʻlini yoʻotgan yoʻlovchiday zamon eskirganini, atrofdagi davlatlar oʻzining aravasini oʻzi tortib, rivojlanish bosqichiga qadam qoʻyganligini ham anglab yetadi. Sobiq ittifoqning oxirgi yillarida mana shunday ichki yemirilshlar roʻy bergani haqiqat. Har bir millat oʻzining taqdirini oʻzi belgilab, maorif va sanʼat, barcha sohalarni oʻzlarining milliy qadriyatlari asosida zamonaviylashtirishi muhim edi. Istiqlol shabadasi endigina esayotgan bir paytda muallimlarning tirikchilik uchun oʻzlarini har xil koʻyga solishi, jamiyatdagi taʼlimning eskilik sarqitidan hali zamon qutila olmayotganining natijasida kelib chiqqan muammolar yigʻindisi boʻlsa, ne tong! Ulash agronom-shoirning koʻrsatmalariga chinakam haqiqat sifatida ishonish

⁸⁰ Бўрихон Л. Сирли муаллим. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. –Б.219-220.

mumkin. Chunki u zamonning zayli bilan shu ko'yda yuribdi. O'zining ham orzu-umidlari bisyor edi. Jamiyatdagi poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, urug'-aymoqchilik va o'zim bo'larga yashashni juda yoqtirmas, shunday qismati o'xshamaganidan qo'lidan kelganicha qishloq ahli hayotini, odamlarning dard-u tashvishlarini u yoki bu tarzda qog'ozga tushirib, she'rlar yozib yurganining sabab va oqibatlari shunday bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

“Kelajakka daxldor shakllardan yana biri esxatologizm^{*} hisoblanadi. Bunda kelajak o'zga tarzda so'nadi. Bunda kelajak (o'zining barcha o'tgan va hozirgi shakllarida) xuddi barcha mavjudotning, butun borliqning intihosi deb tushuniladi. Bu o'rinda qiyomatning halokat, vayronagarchilik, yangi kaos, ma'budlar tongi yoki sud kuni deya tushunilishining u qadar ahamiyati yo'q. Muhimi borliq mavjudotning oxirati ekani va uning nisbatan yaqinligidir. Esxatologizm bu intihoni doimo shunday anglaydi. Ya'ni hozirni intihodan ajratib turadigan kelajakning o'sha parchasi o'z qimmatini va qizig'ini yo'qotadi: bu hozirning noaniqlik tomon besamar cho'zilishidir”². Binobarin, har qanday zamonda inson kelajak sari qadam tashlaydi. L.Bo'rixonning “Bir tomchi yosh” qissasida badiiy makon va zamon shakli kuchli depressiv vaziyatni yuzaga chiqaradi. Uni quyidagi formada tasniflash mumkin:

1. Bu qissaning **ekspozitsiyasida** Baxtiyor va O'ktamning o'zaro qarz havola oldi-berdisiga diqqat qaratgan yozuvchi haqiqatdan ham, Baxtiyorning oldida son-sanoqsiz muammolar kutib turganligidan dalolat beradi. Asardagi ilk jumlagi e'tibor beraylik: *“Bu gal ham qarz undira olmadi. Shaharning qoq kindigidagi gavjum bozorda do'kon ochib, oldi-sotdiga ko'ngil qo'yib anchagina boyib qolgan, talabalik ta'mini birga totgan do'sti O'ktam ham mijg'ovlanib bir dunyo bahonani qalashtirib tashladi. Shu kunlarda kichik korxona ochish tashvishida yurganini, xarajat ustiga xarajat jabrini chekayotganini, tag'in to'rt-besh tanish-bilish olti oycha burun bir hafta ichida qaytarishga qasamlar ichib anchagina qarz olishganini, lekin hali-hanuz qaytarmay kuydirib yurganini*

^{*} Эсхатология (юнонча. Қиёмат)га доир илоҳий ахборот, барча динларнинг муҳим бўлимларидан бири.

² Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Тошкент: Академнашр, 2015. –Б.123.

ayta-ayta hasrat qildi. Ya'nikim, igna-ip tilanganning qarshisiga yirtiq ishton bilan chiqdi"⁸¹. Ko'rib o'tganimizdek, badiiy xronotop *bu gal ham* jumlasida ayonlashadi. Demak, Baxtiyor umri davomida bir tayinli ishning boshini ushlamagan, omadi chopmagan, qaysi bir yumushga qo'l ursa sira o'xshamagan tarzida ko'z o'ngimizda g'amgin bir beozor qahramonning qiyofasi gavdalanadi.

2. **Ikkinchi sahna:** uning armiyaga ketishi va xizmat safaridan yurak xastaligini orttirib kelishi. Botinidagi hech qachon o'zgarmagan qismati – buyuk rassom bo'lish orzusi. Shahar va qishloq orasida kechayotgan kechmishlar silsilasida Baxtiyor obdon toblanadi. Ammo uning omadi chopmaydi. Baxtiyor har qanday vaziyatda ham o'nglanishlar sari qadam tashlaydi. Natija kutilgandek bo'lmaydi. Qissaning ikkinchi qismida **qishloq xronotopi** rassomga xotira bilan qayta ulug'vorlik sari qadam tashlashga katta imkon beradi. Shunday qilib u Rajabgul ismli qiz bilan tanishuvi badiiy psixologizmning hali xilma-xil eksperimentlari mavjudligini dalolatlaydi.

3. **Uchinchi sahna:** xotira xronotopi. Bu xronotopda Baxtiyor o'tgan kechmishlari bilan yolg'iz qoladi. Ko'nglidagi mubham savollarga javob topish ilinjida uzoq xayol suradi. Xatolaridan xulosa chiqaradi, kelajakka umid bilan qaray boshlaydi. Qandaydir korxonaga bo'yoqchi bo'lib ishga qabul qilinadi. Biroq bu quvonchi ko'pga cho'zilmaydi. Yana u yerdan ham omadsizlarcha ishdan bo'shatilib, ota qishlog'iga qaytib keladi.

Qissadagi **xotira xronotopi** haqidagi lavha quyidagi parchada o'z ifodasini topgan:

“Bu qizni husndan ham, ismdan ham qisgan edi. Semiz, beso'naqay gavdasini goh u yon, goh bu yonga tashlab ona ayiqday lapanglab yurar, go'yo do'rdoq lablarini, oytaboq yuzini, go'shtdor burnini birov ko'rib qolib qo'rqishidan qo'rqqandek boshiga oftobdan sarg'aygan oq ro'molini mahkam o'rab olar edi. Aslida uning chaqqongina, saranjom-sarishtali qiz ekanini birov bilib, birov bilmasdi. Tevarakdagi qiz-juvonlar uning g'ashiga tegish uchun atay ismini baland ovozda tilga olishardi: “Rajab!” Ba'zilar azbaroyi qizni xafa qilmaslik uchun

⁸¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burihon-bir-tomchi-yosh-issa/>

qo‘shimchaga zo‘r berardi: “Rajaboy... Rajabgul.” Lekin bu ham quloqqa “Rajabboylar, Rajabqul” deganday eshitilar, polvon qiz xijolatdan battar beso‘naqaylashar edi. Aytishlaricha, shunday noqulayliklar kasridan qiz maktabda ham yolchitib o‘qimagan ekan. Bolalardan tortib kattalargacha uni mazax-masxara qilishaverganidan yettinchi sinfni bitirib-bitirmay maktabdan oyog‘ini uzibdi. Hatto bir-ikki bor o‘z joniga qasd qilishga uringan ham emish.

Baxtiyor ana shu qizni sevib qoldi. O‘shanda u boshni tap-taqir qirtishlatib harbiy xizmatga chog‘lanib yurgan edi. Bir kuni daydib ketgan ola sigirini topib kelish ilinjida qishloq biqinidagi paxta paykaliga oraladi. Bu paytlar yig‘im-terim avji ancha pasaygan, paykallarning u-bu yeridagina qiz-juvonlar ko‘sak chuvib, to‘kilgan tolalarni terib yurishar edi. “Ey, rassom, bizning rasmimizni chizib ber!” – deya chinqirib qo‘l silkitardi uni ko‘rib tanib qolganlari.

Baxtiyor ham xushhollik bilan bosh irg‘ab qo‘yardi.

O‘sha kuni u xayollarga g‘arq bo‘lib, mol izlashni ham unutib, paykalda xo‘b tentidi. Tevarakdagi manzaralar, ranglar uning yuragini o‘rtab, ilhom zavqini solardi. Tik turgan ko‘yi hamma-hammasini qog‘ozlarda tasvirlagisi kelardi”⁸².

Qissada bir-biridan mustaqil ravishda syujet voqeligiga kiritilgan ikki xronotop yo‘nalishi mavjud. 1. O‘ktam va Baxtiyor, oila, Geogriy, maktab va institut hayoti bilan bog‘liq xronotop shakli. 2. Rajabgul bilan Baxtiyorning paxta paykallaridagi suhbatlarini aks ettiruvchi xotira xronotopi. Yozuvchi bu turdagi xronotopni atayin syujet voqeligiga singdirib yuborgan. Chunki dialogik nutq Baxtiyorning ham, yozuvchining ham asosiy maqsadi yuzaga chiqishida qo‘l keladi. Bunday usul Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Usta Alim bilan kechgan suhbatda, Ulug‘bek Hamdamning “Sabo va Samandar” romanidagi Nodir va Nilufar haqidagi kiritma qissa voqeligida istifoda qilingandi. Luqmon Bo‘rixon esa ulardan farqli ravishda paxta paykallaridagi – kelajak haqidagi rejalari, Rajabgulning orzulari fonida butun qizlar hayotini taftish va tahlil qilish, botiniy muhabbatning umrboqiyiligi, husn-u malohatning o‘tkinchiligi borasidagi uzundan-uzun suhbatlari Baxtiyorning xotirasini qayta “tiriltiriladi”:

⁸² <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burihon-bir-tomchi-yosh-issa/>

“Ko‘zlaringni sevaman, Rajab,” – deya pichirladi yigit, qop-qora tun qarab turgan derazaga tikilib.

O‘sha paytlar askarlikka chaqirilgan yosh-yalanglar arzanda to‘pga aylanar, ertayu kech o‘yin-kulgi qilib, ko‘cha-ko‘yda mast-alast izg‘ib yurishar edi. Baxtiyor har xil bahonalar bilan ulardan taysallay boshladi. Har xil bahonalar bilan paykal tomon oshiqar bo‘ldi. U Rajab bilan deyarli har kuni uchrashardi. Har uchrashganda qiz qalbining nozik qirralarini kashf qilib, olam-olam zavq-shavqqa to‘lardi.

Rajab yettinchi sinfdan bu yog‘iga maktab betini ko‘rmagan bo‘lsa ham, ancha o‘qimishli qiz ekan. U tilga olgan kitoblarning ko‘pini Baxtiyor, hatto, nomini ham eshitmagan bo‘lib chiqardi. Goho, qiz shunday faylasufona-shoirona gaplar aytardiki, Baxtiyor ularning mazmunini chaqolmay xijolatlanar edi.

“Qo‘yavering, mening yoshimga yetganda bilib olasiz, – deb kulardi Rajab, uning kalovlanishlarini payqab. – Axir sizdan ikki yosh kattaman-a...”

Shunday shavqli uchrashuvlarning biridan qaytib kelayotgan mahal paykal boshida Shoyimga yo‘liqib qoldi.

Shoyim ulardan uch yil avval maktabni amal-taqal bitirganlardan edi. Toshkentda o‘qiyapman deb hammani laqillatib, harbiy komissariatni ham chalg‘itib yurgan ekan. Oxir-oqibat siri fosh bo‘ldi. Baxtiyorlar qatori xizmatga chaqiriq qog‘ozlari oldi.

“Bizni isnodga qo‘yding, ukang tenggilar bilan armiyaga ketyapsan,” – deb katta akasi boplab savalagan emish. Lekin Shoyim sirtiga suv yuqtirmay, ko‘cha-ko‘yda kerilib, huda-behuda laqillab yurar edi.

“Qayerdan kelayapsan, – deb so‘radi u targ‘il ko‘zlarini makkorona qisib, paykal chetida uchrab qolgan o‘sha payt, – Rajabning oldida bo‘ldingmi?”

“Ha, bir oz ko‘sak chuvishdim,” – dedi Baxtiyor istar-istamas”⁸³.

Qissadagi xotira xrontopi – Baxtiyorni ko‘plab sirlardan voqif qiladi. Haqiqatdan ham, inson o‘z o‘tmishi (agar chinakam iste’dod sohibi bo‘lsa!) bilan ko‘p narsalarni o‘zgartirib yuborishi mumkin. Yaxshi yoki yomon tomonga.

⁸³ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/lu-mon-burihon-bir-tomchi-yosh-issa/>

Baxtiyorning yaxshi tomonga qarab yurishi uchun ham Rajabguldek xotirasini uygʻotuvchi, kuchiga kuch, gʻayratiga gʻayrat qoʻshadigan tafsilotlar, armonlar, yoʻqotishlar-u topishlar juda muhim edi. Mana shu konsepsiya qissadagi badiiy xronotop va ruhiy tahlilni yanada rang-baranglashtiradi. Natijada, qissaning poetik qiymati yanada oshib, oʻziga xos tarzda jilvalana boradi. Rajabgul ham anoyi qizlardan emas. Oʻz haq-huquqini, insof va iymonini oʻtkinchi narsalarga almashmaydi. Baxtiyorning koʻnglida unga nisbatan iliqlik paydo boʻlgandi. Rajabgul bu oʻtkinchi tuygʻu ekanligini, vaqti kelib tushunib olishini bot-bot uqtirib oʻtadi. Esteit va faylasuf Yan Parandovskiy shunday yozadi: “Dunyoning adabiyot tomonidan eksplutatsiya qilinishi, ayniqsa, oxirgi yuz yil ichida yanada kuchaydi. Adabiyot qayd etmagan biror kasb-hunar, sanʼat va mehnatning hech qanday turi qolmadi, yozuvchining nigohi tushmagan hayotning bironta xilvatgohi yoʻq. Yozuvchi hamma narsani tadqiq qiladi, boshdan kechiradi, anglab, tushunib yetadi va har qanday hodisaning haqiqiy mazmun-mohiyatini, ahamiyatini yoki nogahoniy goʻzalligini ochib beradi. Siyosat, armiya, ijtimoiy maʼmuriyat roman, novella, satira sahifalaridan oʻrin oldi: pana-pastqam, chang bosgan idoralardagi kamtar amaldorlar tashqariga olib chiqilib, “xudolar” va qirollarning qachonlardir taqiqlangan hududi – tragediyalarga olib kirildi”⁸⁴. Haqiqatdan ham, badiiy adabiyotning taʼsir kuchi XX asrda juda kuchli boʻldi. Fotografiya kashf qilinganida esa tasviriy sanʼatning kuni bitdi deya ayuhannos solgan ziyolilar, tasviriy sanʼat ham xuddi badiiy ijod kabi xayoliy-fantastik taxayyul mahsuli ekanligini keyinchalik tan olishdi. Dunyoning ilgʻor mamlakatlarida tasviriy sanʼatning hali ochilmagan qoʻriq ekanligini isbotlovchi qator anjumanlar oʻtkazilishi shuning natijasidadir. Badiiy adabiyotning Yan Parandovskiy haqli ravishda eʼtirof etganidek, insoniyat hali oʻzi uchun munosib yashash yoʻlini topganicha yoʻq.

M.M.Baxtin oʻzining mukammal tadqiqotida: “Ayni zamon **aniq va chuqur makonlatirilgan**. U zamin va tabiatdan ajratilmagan. U odamning bir butun hayot yoʻli singari boshlicha zohirda. Odamlarning dehqonchilik hayoti va tabiat (Yer)

⁸⁴ Ян Парандовский. Сўз кимёси. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. –Б.251.

hodisalari ayni miqyoslar, voqea-hodisalar bilan o'lchanadi. Shunday o'zaro ajralmas oraliqqa ega yagona harakat va ong aktida berilgan. Inson hayoti va tabiat yagona harakat va ong sifatida tasavvur qilinadi. Yil fasllari, o'sish-o'zgarish, kun va tun (ularning o'rin almashinuvi), jinsiy munosabatlar (nikoh), homiladorlik, voyaga yetish, keksalik va o'lim – bularning hamma-hammasi, barcha obraz-kategoriyalar inson hayoti hamda tabiatni syujetli tarzda (dehqonchilik aspektida) tasvirlashga xizmat qiladi. Ushbu obrazlarning barchasi to'la xronotoplashgan. Bundagi zamon yerga yuklangan, yerga ekilgan, shu yerda o'sib-unadi. Uni mehnatkash inson qo'li va zamin harakatga keltiradi. Uning harakati (doimiy o'sib-o'zgarishni) ijod etadi, parvarishlaydi, his etadi va ko'radi. U tig'iz (sikl chegaralarida), takrorlanmas va realdir”⁸⁵ degan fikrni bildiradi. Binobarin, yozuvchi L.Bo'rixonning “Begimqul katta” hikoyasidan boshlangan shahar va qishloq orasidagi badiiy maon va zamon yaxlitligi juda ko'pchilik asarlarida – yo'lovchi obrazini yodimizga soladi. Bu obrazlar yo askarlikdan qaytadi, yoki qishloqda agronom-shoir qiyofasida, yoki o'qituvchi, talaba-mardikor timsolida asardan-asarga turli variantlarda namoyon bo'lib yuradi. L.Bo'rixonning ko'pchilik hikoya va qissalarida joy nomlari ham atayin kinoyaviy ma'no tashuvchi so'zlar bilan izohlanadi. Ayniqsa, “Jaziramadagi odamlar” romanida 41-sovxo, posyolka nomlarining boshqa asarlarida aks etishi shular jumlasidandir. “Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi” qissasida Latif va Amiraning ayanchli qismati hikoya qilinadi. Jurnalist Latif va raqs gimnastikasi bo'yicha mutaxassis Amiraning taqdiridan hikoya qiluvchi muhtasham hikoyada yozuvchi jamiyatdagi nafs, ichkilikbozlik, qimor va shunga o'xshagan kechirilmas illatlarning bolalab, odamlarning shirin jonidan ayrilib qolishlarini yuksak darajada inkishof qiladi. Mana shu jihatlar yozuvchining badiiy xronotopga katta e'tibor berganligidan dalolat beradi. Bu qissada ham retrospektiv tasvir usulidan foydalanadi. Qissaning muqaddimasida ayni shu tamoyil o'z ifodasini topgan:

“Ko'p qavatli uylardan birining yo'lagidan otilib chiqqan Latif go'yo qayon yurishini bilmaganday bir zum jonsarak turib qoldi. Tevarak tun chodrasiga

⁸⁵⁸⁵ Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Тошкент: Академнашр, 2015. –Б198.

burkangan. Baland-past simyog‘ochlardagi chiroqlar qizg‘ish-sarg‘ish yog‘dular sohib, uylar atrofini, ko‘cha-ko‘yni xira yoritadi.

Latif qatnov ancha siyraklashgan yo‘l yoqasi tomon ildam qadamladi. Xudo xohlasa, u bu yil kuzning o‘rtalarida roppa-rosa o‘ttiz ikki yoshga to‘ladi. Lekin aft-angori hanuz yigirmaning qarshilayotgan bo‘z bolanikiday: usta sartaroshning naq bir soat tinkasini quritgan jingiltob, quyuq sochlari eng so‘nggi urfda pardozlangan, egnidagi yengi kalta ko‘ylagiyu oyog‘idagi bigizburun tuflisigacha zamona zaylini nozik his qiladigan yosh-yalangbop. Bunaqa pardoz-andozli yigitlarni oddiygina qilib – olifta deb atashadi. Ayniqsa, qishloq odamlari bunday nusxalarni ko‘rishganida g‘ijinib, teskari qarashadi. Latif bu xil muomalaga ko‘p duch kelgan. Lekin parvo qilmay, miyig‘ida iljayib qo‘ygan.

Latif ko‘chada turib, g‘iz-g‘iz yelib o‘tayotgan mashinalarga qo‘l silkitib, birortasini to‘xtatish ha-rakatiga tushdi. Nihoyat eskigina bir “Jiguli” ohista kelib, uning yonida to‘xtadi.

– Aka, vokzalga, – dedi Latif, mashina eshigini qiya ochib.

O‘rta yashar, xumkalla haydovchi bir zum o‘ylanib turgach, bosh irg‘adi.

– O‘tiring.

Latif shosha-pisha orqa o‘rindiqqa o‘zini tashladi.

Ko‘rkam, bejirim yo‘lqopini yoniga qo‘ydi.

– Ancha kech chiqibsiz, uka, yo‘l bo‘lsin? – deb so‘radi haydovchi, mashinani yeldirib ketar ekan.

– Davlat ishini bilasiz-ku, komandirovka, – deb qo‘ydi Latif odatdagidek o‘zini o‘ta jiddiy va muhim odam ko‘rsatishga tirisharkan, – G‘arg‘ara poyezdiga ulgurish kerak.

– Xo‘p, xo‘p.

Latif yetti yilcha avval universitetni tamomlab, mashhurdan-mashhur jurnalist bo‘lish ilinjida shaharda qoldi. Qalami o‘tkir bo‘lmasa-da, harnechuk so‘zga chechan, tili o‘tkirgina edi. Xushomadni, siylovni qotirardi. Shuning sharofatidan ancha yillar goh u, goh bu gazeta tahririyatida ishlab yurdi. Qotgan qon tusidagi guvohnomasini pesh qilib birovlarini avradi, birovlarini qo‘rqitdi. Ishqilib,

tirikchiligi yomon kechmadi. Hatto, roppa-rosa bir yil avval nufuzi baland gazeta tahririyatiga ishga o'tib oldi"⁸⁶.

Qissada vaqtning suvdek oqib o'tishi va bo'lg'usi jurnalistning qay maqsadda yo'lga otlanishi, uning chigal taqdiriga ishora qilinmoqda. Ayniqsa, Latifning turmush o'rtog'i Amira bexosdan G'ani bilan tilla do'konida tanishib qolgani xususida voqelik jadal suratlarda ifodalanadi. Yozuvchi bilib-bilmay xiyonat ko'chasiga kirib qolgan Amiraning ayanchli qismatini idroklar ekan, jamiyatdagi illatlarning oilani qanday kunpayakun qilganini tanqidiy-realistik yo'sinda inkishof qiladi.

Qissada badiiy psixologizm qahramonlarning o'y-xayollaridan boshlanib, real hayotga ko'chib o'tadi. Jumladan, Amiraning shunday qaltis ishga qo'l urishini oddiy kitobxon ham to'g'ri qabul qilmasligi tayin. Negaki, u o'z turmush o'rtog'iga boylik ilinjida xiyonat qiladi. Nafs otiga mingan G'ani ham o'zini halokatli o'lim topishini hech qachon his qilmaydi. Hayotini yengil-yelpi, aysh-ishrat bilan o'tkazishga odatlangan bu qimorboz qahramonlar haqiqatdan ham odamlar orasida topilishi tayin. Amiraning sabrsizligi, tillo taqinchoqlarga o'chligi, boylik, shon-shuhrat va shohona yashash instinkiti ayol ruhinoyatini parmalab tashlaydi. Demak, yozuvchi ayol obrazini tasvirlar ekan, badiiy makon va zamonning o'lchovini shaxsning intim xatti-harakatlaridan axtaradi.

Rus adabiyoti munaqqidi M.M.Baxtin zamon va makonning bugungi ko'rinishini qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan dehqonchilik an'analari bilan bog'laydi. Jamiyat taraqqiyoti davomida zamonlar ham o'zgarib, yangilanib, sayqallanib borishi muhimligini uqtiradi. Munaqqid ta'biricha: "Individual hayotning ihotalangan zamon qatorida o'lim motivi ham chuqur transformatsiyani boshdan kechiradi. Bu o'rinda o'lim jiddiy intiho mazmunini oladi. Individual hayot yo'li qanchalik mustahkam ihotalangan, ijtimoiy turmush doirasidan qanchalik uzoq bo'lsa, uning ahamiyati shunchalik oliy bo'ladi. O'limning urug'lantirish (yerga urug' qadash, ona bachadoni, quyosh), yangi hayotning tug'ilishi, marosim kulgisi, parodiya va masxara bilan aloqasi uziladi. Bunday

⁸⁶ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-ayol-koz-yoshlarga-ishonma-di-qissa/>

qadimiy, o'limlararo kompleksga doir ba'zi munosabatlarga saqlanib qoladi va o'lim mantiqi bilan mustahkamlanadi (o'lim – o'roqchi, o'rim – kun botishi – tun – qabr – beshik va b.). Ammo bularning barchasi metaforik yoki diniy-mistik xarakter kasb etadi”⁸⁷.

Yozuvchining qissadagi qahramonlari bir qadar erkin harakatlanadi. G'arb adabiy-estetik qarashlarining ta'siri, globallashuv zamonning og'riqli savollari Amira va G'ani timsolida yanada hayotiylik kasb etadi. Bu yerda yozuvchi shahvoniy his-tuyg'ular domiga tushib, kelajagini yengil-yelpi o'tkazishga odatlanib borayotgan olomon xarakterlarini ham talqin qiladi. Oqibatda har ikki xato qiluvchi o'zlarining gunohlari botqog'ida botib, tubsiz jarlikda xor bo'ladi. Qissada izquvar va uning mas'ullari olib borgan surishturuvlar ham yozuvchining hayot haqiqatini yuzaga chiqarishiga imkon beradi. Qissaning “Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi” deb nomlanishida ham takabbur va kaltafahm Amiraning sirli qismatini idroklashga yo'l ochadi. Amira timsolida fahsh botqog'iga botib borayotgan ayollar obrazini, hech ikkilanishsiz aytish mumkin, har qanday vaziyatda ham oqlash mumkin emas. Shuning barobarida, yozuvchi illat illatligicha qolishini xarakterlar badiiy tadriji negizida inkishof qilishni maqsad qilganligida namoyondir.

Qissada ikki syujet liniyasi tarang psixologik vaziyatda birlashadi. Latif va Roziyaxon hamda uning xiyonatkor eri G'ani bilan Amira qismati. Yozuvchi voqelik xronotopini qizi Shadoni qishloqdan olib kelish tafsiloti bilan bog'laydi. Ya'ni G'arg'arani qishloqqa yuborib, o'zining ishlarini bamaylixotir bajarishga odatlangan Amiraning bu safargi nayranglari qimmatga tushadi – o'lim bilan nihoyalanadi. Latif esa bexosdan vokzal ma'ulmotnomasida ishlovchi Roziyaxon bilan tanishib qolishi voqealar rivojini tezlashtirib yuboradi. Roziyaxon ham baxtidan ayrilgan, bir umid olovida qovirilib yashayotgan ojiza. Uning qismati faqat azob-uqubatlar orasida kechayotgan bo'lsa, Amiraning hayoti ayshu-ishrat bilan davom etadi. Quyidagi lavha Roziyaxonning qismatidan voqif qiladi. Yozuvchi kiritma voqelikka bir paytlardagi orzulari bir olam qizning hayotini

⁸⁷ Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Тошкент: Академнашр, 2015. –Б.207-208.

talqin qilishdan boshlaydi. Agar bunga oydinlik kiritilmasa, qissadagi ayrim epizodlar tushuniksiz bir ahvolga kelib qolardi:

“Roziyaning bir paytlar orzulari osmon edi. Bir gapirib o‘n kuladigan, yerga ursa osmonga sapchiydigan qizlar xilidan edi. Aloqa kollejini bitirdi-yu, institutga kirishga ulgurmasdi. Erga tegdi! Kollej yaqinida do‘kon ochib olgan yigit bilan sevishib, ahdu paymon qilishib, xullas, bu yog‘ini tezlashtirib yuborishdi. Rauf yaxshi yigit edi. Ko‘ngli bo‘sh, qo‘li ochiq. Lekin onasi... ya’ni Roziyaning qaynonasi ajdahodan nari-beri ekan! Kelinini o‘tirsas o‘poq, tursas o‘poq deyaverib jonidan to‘yg‘azdi. Ko‘z ochirgani qo‘ymadi. Ustiga-ustak, o‘rtaga befarzandlik muammosi chiqdi. Turmush qurishganiga uch yil to‘ldi-yu, biroq Roziya onalik baxtiga muyassar bo‘la olmadi. Ular borib uchrashmagan na vrach, na tabib qoldi. Ne bir duoxonu folbinlarga duch bo‘lmadi deysiz. Lekin barchasi befoyda. Qaynonasining qahri esa kundan kunga ortardi. O‘rtada Rauf sho‘rlik qiynalib ketdi. Xotinini eplab himoya qilaolmasdi. Oxir-oqibat onasiga taslim bo‘ldi. Xotini bilan ajrashdi. Roziya dunyoda sevgi-muhabbat bor, u hamma narsaga qodir, har qanday mashaqqatlarni yengib o‘tadi, deya ishonardi. Lekin taqdir ayolning sodda ishonchlari ustidan kuldi. Shu-shu Roziya biroz odamovi, jiddiy va serzarda bo‘lib qoldi. U onasinikiga qaytib kelgach, temir yo‘l vokzalida ishlay boshladi. O‘sha adashib-uloqib ketgan baxtining yo‘liga ko‘z tikdi. Oradan bir yil o‘tdi. Shu orada bir-ikki so‘qqabosh erkaklar sovchi qo‘ygan bo‘lishdi. Lekin Roziya qat’iy rad etdi. Onasi lab tishlab, yerga qaradi. U qizining yana oila qurishini, baxtli, uvali-juvali bo‘lib ketishini istardi. Lekin buni oshkora aytishga iymanas, qizining onam uyga sig‘dirmayapti, degan xayolga borishidan cho‘chir edi. Shu taxlit oradan yana bir yil o‘tdi”⁸⁸

Yozuvchi qissada badiiy xronotopning sarguzasht usulidan unumli foydalanadi. Sarguzasht adabiyotining xarakterli jihati voqeadan-voqea o‘sib chiqadi hamda u syujet rivojida takomillashib, qiziqarli tus oladi. Bu qissadagi dinamik syujet turi Latif va Roziyaning uchrashuv nuqtasini namoyon qiladi. Ikki jinoyatchi Abray lochin va G‘anining kirdikorlari. Mahallada yoshlarni to‘g‘ri

⁸⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-ayol-koz-yoshlarga-ishonma-di-qissa/>

yo‘ldan adashtirib, jinoyatiga sherik qilishlari qissada real mohiyat kasb etadi. Negaki, azaldan tabiatida o‘g‘rilik, qimorbozlik va ayshu ishrat hukm surgan bu to‘dalar qanchadan-qancha oilalarning yostig‘ini quritishdi.

Munaqqid N.Rahimjonov shunday yozadi: “Inson onadan o‘g‘ri yoki firibgar, akademik yoki vazir, tadbirkoru yoki fazogir, g‘ar-fohisha yoki fermer bo‘lib tug‘ilmaydi-ku. Uning kelgusida kim bo‘lishi, qanday mo‘jizalar yaratishi yoki nayrangboz-fitnachiga aylanishi Olloh taolodan bo‘lak jamiki tirik jonlar uchun qorong‘u. Bir so‘z bilan aytganda, inson o‘zi unib-o‘sgan ijtimoiy muhit bilan hayotiy sharoitning mevasi. Azaldan unga berilgan xususiyatlar faoliyati davomida fazilat yoki illat sifatida zohir bo‘ladi. Badiiy fikrning mo‘jizakorligi shundaki, u shaxs va jamiyat siyrati bilan suvratini bir mag‘izning ikki bo‘lagi sifatida aks ettira olsagina, o‘z davrining bosh qahramoni bo‘lib qoladi. Barcha zamonlarda bo‘lgani singari yaxshi odam ham yomon odam ham bugungi kun san’atining qahramoni bo‘lishga haqli. Demak, jaholat, zo‘ravonlik, istibdodiga qarshi bosh ko‘targan, shaxs-millat-vatan erki uchun kurashlarda jon bergan, har qanday jamiyatlarda bolalab yashagan, makkor manfaatdorlik tomonidan dorga tortilgan va lekin o‘lim bilmas murosasiz fikr – bosh qahramon”⁸⁹. Ko‘rinadiki, har qanday vaziyat va holatda bugungi qahramon kechaning bag‘rida yetilgan, ikki siyosiy tuzumni boshidan o‘tkazgan –erk va ozodlikka erishgan, o‘ziligini anglash yo‘lida qadam tashlayotgan obrazdir. Bu dunyoning har bir bo‘layotgan o‘zgarishlari bugunning bag‘rida ham qoimdir. Masalan, “Qora kitob” qissasida XX asrning mustadiblik kayfiyatda shakllanib, o‘zligidan ayrilayozgan qahramon tabiatidagi kolliziyalar muallif “men”i bilan uyg‘unlashib ketadi. Masalan, yozuvchi ikki jihatda bir-biriga qorishiq holda yashayotgan ota va bola obrazini gavdalantiradi. Xatolar, pushaymonlar orasida o‘tayotgan umrni sarhisob qiladi. Buni quyidagi dramatik talqinda ham ko‘rishimiz mumkinligi ayon:

“Abraý lochin tahdid bilan G‘aniga o‘qraydi.

– Faqat o‘zingning narsangni tik. Birovlarning mulkini aralashtirma, janjalga tobim yo‘q.

⁸⁹ Раҳимжонов Н. Бугуннинг қаҳрамони ким. –Тошкент: Турон-иқбол. 2001. –Б.296.

G‘ani yana aroq quyib ichdi. Burun kataklari pir-pir ucharkan, ko‘zlari g‘azab bilan yondi.

– Xotinimni tikaman.

– Xotiningni?! – beixtiyor qichqirib yubordi Nabi.

Davradagilar hangu mang qotdi. Chunki Ko‘kgumbaz qimorxonasida hali hech bunaqasi bo‘lmagandi. Oraga bir zum tahlkali jimlik indi.

G‘ani yana to‘kib-sochib piyolasiga aroq quydi.

– Ha, xotinimni tikdim.

– O‘v, so‘tak, – dedi Abray lochin g‘azab bilan uning yoqasidan olarkan, – hazilingni yig‘ishtir. Bu yer ming o‘ylab bir gapiradigan joy.

G‘ani Abray lochinning changalidan bir amallab qutularkan, mastona g‘udrandi.

– Gapim gap. Tug‘mas xotin qimorga yaramasa nimaga yaraydi. – U o‘z gapidan o‘zi nash‘alanib kuldi. – Qani, qartani suzinglar.

O‘sha tun Roziya allamahalgacha televizor tomosha qilib o‘tirdi. Negadir hech uyqusi kelmasdi. Ko‘ngli hamishagidek zim-ziyo. U erinibgina kiyimlarini almashtirib, ko‘zgu yonida sochlarini taray boshladi. Shu payt ko‘cha eshigi taraqlab ochildi. G‘ani kirib keldi. Ipirisqi, g‘irt mast. U Roziyaga qarab tirjaydi. So‘ng gandiraklagan ko‘yi yoniga kelib, quchoqlashga harakat qildi.

– Jonginam, men bilan bir yerga borib kelishing kerak.

– Voy, qayoqqa?! – sergaklandi Roziya. – Yarim kechasi-ya?!

G‘ani chaynalgancha to‘ng‘illadi.

– Sen... sen agar chin xotinim bo‘lsang, meni qutqarishing kerak.

Erining aftodahol, ezilib turishi rahmini keltirgan Roziya shosha-pisha sochlarini yig‘a boshladi

– Qo‘limdan kelsa jonim bilan, G‘ani aka.

– Seni... men... – dedi er yig‘loqi bir tovushda. – Qimorga yutqazib qo‘ydim. Kechir meni, Roziya.

– A! Nima?! – beixtiyor qichqirib yubordi ayol xuddi boshiga to‘qmoq tekkanday.

G‘ani tuyqus tiz cho‘kib, Roziyaning oyoqlarini quchdi”⁹⁰.

Bir go‘zal ayolning umrini izdan chiqarish, o‘z xatolarini tuzatish o‘rniga jarlik tomon kirib ketish uchun erkak qanchalar tuban bo‘lishi kerak. Roziyaning qarg‘ishi uni urganligi qissa davomida ochilanadi. Bu yerda zor qaqshab yig‘lagan bilan ham, yozuvchi G‘anini Roziyaning tovoniga yig‘ilib, rahm-shafqat kutgani bilan ham bag‘ridagi iztiroblar bunga yo‘l qo‘ymaydi. Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi. Yozuvchi ana shu balandlikni o‘zining eng muhim uslubiy-shakliy izlanishlarida yuksak mahorat bilan tasvirlay oldi. Shuningdek, qissadan – hissa chiqarish o‘quvchiga tan! Chunki normal odam bo‘lganida G‘ani bunday pastkashlikni qilmagan bo‘lardi. Asarning tarbiyaviyligi shundaki, har qanday inson jamiyatda yozilmagan qonunlar: or-nomus, mehr-muhabbat, oila va uning timsoliga itoatda bo‘lish kerakligi xususida ham juda hayotiy masalalarni ilgari suradi. Har kim o‘ziga tan xulosa chiqarishi shubhasiz.

Artur Shopengauer shunday yozadi: “Olam – inson ko‘z ochishi bilan ko‘rgan, hidlar-u ranglarga, tovushlar-u sukunatga, issig‘-u sovuqqa to‘la dunyo – faqat va faqat tasavvurdan iborat. Olam – mening tasavvurim, - deydi faylasuf. Olamga hoziru kealajakda nimaiki taalluqli bo‘lsa, hammasi subyekt bilan sifatlanishga albatta mahkum va subyekt uchun mavjuddir. Shunday qilib, olam – tasavvur, u subyekt va obyektning o‘zaro munosabati sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki biz faqat ko‘zimizni, qulog‘imizni, qo‘limizni, tilimiznigina bevosita bilamiz, olamni emas. Olam, – men o‘z tasavvurimizda qanday qilayotgan bo‘lsam, – shunday. bu masalaning bir tomoni, ikkinchi tomoni ixtiyor. Ixtiyor tasavvurga o‘xshamaydi, butunlay boshqa, sirli, hali kashf etilmagan, ehtimol, umuman kashf etib bo‘lmaydigan narsa. U barcha mavjudlikning ibtidosi. Ixtiyor, bu – mutlaq erkin xohlash, istash, uning na sababi, na asosi bor. U – olamning ichki mazmuni, o‘z-o‘zicha onglanmagan holat, ko‘r-ko‘rona, to‘xtatib bo‘lmaydigan shiddat. Hatto daraxtlarda ham ixtiyor hukmron, shoxlar yuqoriga harakat qiladi – namni ixtiyor etadi. Jism faqat yuqoridan pastga – vertikal tarzda qulaydi. Ixtiyor, bu – makon va zamonda yashaydigan mavjudotlarning paydo

⁹⁰ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-ayol-koz-yoshlarga-ishonma-di-qissa/>

bo'lishini ta'minlaydigan kuch"⁹¹. Haqiqatdan ham, qissa qahramonlari Artur Shopengauer talqinlariga juda mos tushadi. Ular o'z peshonasidagi taqdir yozug'idan, jirkanch hayotdan, ayshu ishratdan, nafs va shahvatdan boshqa narsani ko'rmay, itdek xoru zorlikda dunyodan ketdi. Yozuvchi, haqiqatdan ham, ideal qahramon axtargan. Biroq, har qanday mukammal bo'lgan insonning ham botinida qandaydir bilib bo'lmas qusur borligini unutmasligimiz lozim. Mana shu jihatdan olib qaraganda, "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" nomli qissada barchasi ro'y-rost inkishof qilinganligining shohidi bo'lamiz. Zero, badiiy asar har bir detal, voqelik komponentlari bilan muvofiqlashib, yagona estetik maydonda uyushadi. Ayni paytda, o'zining o'zligini yo'qotgan odamlargina ana shunday hayotning temir ihotalarida chilparchin bo'lishi tabiiy bir holdir.

Umuman, L.Bo'rixonning retrospektiv yo'sindagi individual uslubi badiiy psixologizm va xronotop talqinini yagona markazda uyushtiradi. Natijada, yozuvchi o'zining ijodiy konsepsiyasini to'laqonli ifodalash yo'lidan boradi. ***Sabab va oqibat, natija*** uchligi syujet qismlarining muvofiqligini ta'minlaydi.

3.2. -§. Qissada xronotopik vaziyatlar va ularning sintezi

Ma'lumki, qissa poetikasidagi uzil-kesil o'zgarishlar yangi davr nasri uchun yangilik emas, chunki XX asrning 90-yillarida, hali istiqlol qo'lga kiritilmagan bir vaqtda badiiyat modusi sifatida G'arb-u Sharq an'analari sintezi allaqachon kirib kelgandi. Unda shaxsning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, shaxslik maqomi va davr po'rtanalarida sizib ketayotgan muammolar hamon bir maxrajda jamuljam emasdi. Uning miqyoslari kengayib, dunyoning hali chekka-chekka hududlarida badiiy asarning to'laqonli ifoda madaniyati yetib bormagan, odamlar ibtidoiy zamon g'alvirlarida yuzaga kelgan ijtimoiy tuzum nafasi bilan yashardi. Bzda 90-yillar miyonasida G'arbgacha chiqish, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish, san'at va madaniyatning sintelizatsiyalashuvi boshlangan damlarga e'tibor bersak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Dunyo adabiyotining ilg'or metodlari hali bizning nasrimiz ufqlarini kengaytirishga qaratilgan hissasi unchalik keng planda bo'lmasa ham, imkon qadar shu ifoda madaniyatiga taqlidan bo'lsa ham erishish istagi

⁹¹ Абдулла Шер. Абадият ва умр. –Тошкент: “Файласуфлар” нашриёти, 2017. –Б. 155-156.

ufurib turardi. N.Eshonqul, Z.Qurolboy qizi, I.Sulton, L.Bo‘rixon, U.Hamdam kabi zabrdast yozuvchilar badiiy nasrning realizm, tanqidiy realizm, norealizm, modernizm, postmodernizm singari adabiy oqimlarni birma-bir sinab, turli xil shaklu shamoyilda eksperiment tarzida – hikoya va qissa janrlarini sinovdan o‘tkazib, o‘quvchilar hukmiga havola etar, buni adabiy tanqidchilarimiz to‘g‘ri qabul qilolmay, vaqtli matbuotda o‘ziga xos davra suhbatlari uyushtirib turardi.

Buyuk ispan mutafakkiri Xose Ortega-i-Gasset e‘tiroficha: “Har qanday san‘atning tarixi inson qalbining tomonlaridan birini ifodalashga bo‘lgan qator urinishlardir. Xuddi shu narsa uni boshqa san‘atlardan ajratib turadi. Bu urinishlar shunday bir egri chiziqni tashkil qiladiki, san‘at kamalakning yengil o‘qi kabi shu chiziq bo‘ylab zamon qa‘riga o‘z maqsadi sari intiladi. Intihosiz ufqdagi shu nuqta har qaysi san‘atning yo‘nalishini, mohiyatini va ma‘nosini ko‘rsatib turadi”⁵. Binobarin, Gassetning bu fikrlari bugun uchun ham suv va havodek zarur. Bizning olib borgan tadqiqotimizda badiiy psixologizmning hozirgi qissalar poetikasida zuhur etilishi chinakam dolzarb muammoning amaliy natijalari sari olib chiqishi mumkinligini dalolatlaydi.

Adabiyotshunos R.Rahmat to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Badiiy asar bo‘sh idishga qiyos qilinadi. Uni o‘quvchi o‘z ko‘nglidagi ma‘no bilan to‘ldiradi. Agar o‘quvchi ko‘nglida ma‘no bo‘lmasa, “idish” bo‘shligicha qolaveradi. Shunisi borki, chinakam badiiy asar hech qachon to‘lmaydigan bir idishdir... Pisixik jihatdan rosmiyan do‘zax azobi his etib yozilgan asarni o‘shanday azobga duchor bo‘lmagan o‘quvchini chin ma‘noda his qilmaydi. Bu kabi asarni har bir o‘quvchi o‘z ko‘nglidagi dard-mashaqqatga yarasha his etadi. Har jihatdan bizdan kichkina, past odam yozgan asarni odatda bo‘sh asar deb ataymiz. Dunyoni bizdan ko‘ra chuqurroq anglagan va bizdan ko‘ra ko‘proq dard chekkan odamning asarini esa zo‘r asar deb tan olamiz.

Badiiy asar mutoala qilayotgan odam aqlim va ruhimni boyitaman deb maqsad qilmaydi. Balki o‘sha asar bilan chinakamiga bahsga, jangga kirishadi: kim kimni yengadi? Qachonki badiiy asardagi ma‘no sizdagi ma‘nodan haybatliroq

⁵ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. Тошкент: Маънавият, 2010. –Б.307.

bo'lsa, o'shandagina bu asardan ma'naviy ozuqa olishingiz mumkin. Deylik, badiiy asarda aks etgan sevgi fojiasi asarni o'qiyotgan o'quvchining sevgi fojiasidan kuchsizroq bo'lsa, o'quvchi bu asardan aslo ta'sirlanmayd⁹². Haqiqatdan ham, badiiylik o'z-o'zidan bino bo'ladigan oddiy hol emas. Shuning uchun ham, o'quvchining botinidagi ehtiyoj bilan to'qnashuv sodir bo'lsa, unday asarning umrboqiyiligi uzoq bo'lishi shubhasiz. Eslang, "O'tkan kunlar"dagi sevgi qissalarini. O.Yoqubovning "Muqaddas", Ch.Aytmatovning "Jamila" qissalari ana shu tamoyilning yorqin namunasidir desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Qissada sevgi xronotopi. Yozuvchi L.Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasidagi sevgi xronotopi asarning o'q ildizlaridan biri sanaladi. Har ikkala do'st Norsoat va Davronbekni bog'lab turgan o'zaro do'stlik rishtasining muhabbatning kuch-u qudrati oldida taslim bo'lishi sevgi qissalarini yodimizga soladi. Muhabbat va nafrat orasidagi abadiy kurash hech bir davrda to'xtab qolgan emas. Shu boisdan ham, muhabbatning oydin orzulari sari odimlayotgan uchala yosh qalbida barq urgan muhabbat olovini faqat ularning ehtiyojigina to'xtatib qolishi mumkin. Buni quyidagi lavhada ham bilib olishimiz mumkin:

"Biz Absal polvondan uzoqlashgan edik.

O'sha yoz ikki oylik mardikorchilik kasridan, ichikish, orziqish, intizorlik oqibatidan kuyib qop-qora kosovga aylandim.

Ustiga-ustak, qishloqqa qaytishimdan sal avval, qo'yarda-qo'ymay sochlarimni orastalab qo'yish niyatida qo'liga qaychi olgan shirakayf pochcham tepa sochimning tubidan tig' solib yubordi. Oqibatda, xumday kallani butkul qirtishlab tashlamoqdan boshqa chora qolmadi. Holi zabunimga boqib, o'kirib yig'lagim kelardi. Axir bu ahvolda Tanzila nari tursin, hatto mulla Mirzaga ham ko'rinib bo'lmaydi. Aft-angor – qop-qora, kalla yetimqirday tap-taqir, pochcham qilmishiga jarima tariqasida olib bergan ola-chipor kostyum-shim, egnimda xuddi poliz qo'riqchisiga o'ralgan jandaday shalvirab turibdi.

Qishloqqa amal-taqal yetib keldim-u o'zimni ichkariga urdim. Bu yog'i maktab ochilishiga atigi o'n kuncha vaqt qolgan. Demak, shu fursat ichida soyadan

⁹² Раҳимжон Раҳмат. "Муножот"дан "Боқий дарбадар"гача... –Тошкент: Мухаррир, 2017. –Б.99.

chiqmay biroz oqarishim, andak bo'lsa ham sochni o'stirishim kerak. Onda-sonda biror bahona bilan uyimizga Tanzila kirib keladi. Uni hayajon-u quvonchga qorishib eshik tirqishidan yo deraza ortidan yashirincha kuzataman.

Tanzila! Chinakam tog' chechagiday ochilib ketibdi! To'lishgan, tip-tiniq yuzlari, durracha qirralaridan ko'pirib turgan sochlari, sarg'ish-qizg'ish libosi sirib turgan qomati meni ohanraboday o'ziga tortardi. U goh onam, goh yangam bilan gaplashib turarkan, xuddi nimanidir, nenidir izlayotganday, atrofiga kishi bilmas ko'z yugurtirib qo'yardi. U meni qidirayti, meni, degan o'ydin boshim ko'kka yetgudek bo'ladi, ammo... ming afsuski, qizga ko'rinish berishga, salomlashishga mavjud talofatlar mone'lik qilardi.

O'sha mavsum sentyabrning ilk kuni qishlog'imizda, to'g'rirog'i, maktabimizda hind kino yulduzi Raj Kapur, yo'q, yo'q, mashhur farang artisti Alen Delon paydo bo'ldi! Ha, ha, o'sha yoz allaqanday mashhur sanatoriyda dam olib qaytgan Davron do'stim o'sha dovrug'i doston yulduzlardan sira-sira farq qilmas edi. Orasta, silliq taralgan sochlari, oqarib, to'lishgan yuzlari, tik qomatiga yarashib tushgan yap-yangi, kulrang kostyum-shimi, chap qo'lga taqib olgan allaqanday uzuk har kimni suqlanib qarashga majbur qilardi"⁹³.

Norsoatning Tanzila haqidagi mulohazalari – chinakam beg'ubor ishq dostonining ta'rifiday o'quvchini o'ziga jalb qilishi tabiiy. Chunki ikki oy lab ko'rmagan baxt-u iqbolini shundoq o'z uyida ko'rib turibdi. Bolalikning beg'ubor va samimiy muhabbatida har bir inson o'zining o'zligini undan izlay boshlaydi. Bu ma'sumalikning tagida har qanday iztirob ham odamdan nari ketishi aniq. Norsoat Tanzilaning ishqida beqaror edi. Uning tiniq nigohidan taralayotgan his-tuyg'ular odamlarning nazdida Norsoat va Tanzila bir-birlarisiz yashay olmaydi degandek tuyulardi. Yozuvchi bu ikki qahramonni shu qadar ulkan muhabbat bilan ta'riflaydiki, qissaning muqaddimasida e'tibor bergan bo'lsangiz, hammasi oydek ravshanlashadi. Agar yozuvchi qissaga Tanzilani olib kirmaganida – qissa hech qanday kitobxon tomonidan iliq kutib olinmagan bo'lardi. Tanzila – qissaning syujetini harakatlantirib, voqelikni rivojlantirib turadigan o'ziga xos richag hamdir.

⁹³ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Tanzila ishqida bu ikki o'spirinning yonib-kuyishlari zimdan takomillashib, asta-sekin yuqorilab borardi. Buni o'zlari ham bilishsa-da, bir-birlaridan sira qolishmas, nazdida "Tanzila meniki bo'ladi" degan o'y-u xayollar orasida qovurilib yurishlari shubhasizdir.

"O'sha yili g'alati voqea bo'ldi. Ilgari maktab ochilmasdanoq o'quvchilarni paxta yig'im-terimiga haydaydigan ma'muriyat bu gal maktabimizni tinch qo'ydi. Butun mamlakat bo'yicha kattakonlar shunday buyruq berganini keyin bildik. O'zgarishdan hamma xursand edi.

Kunlar shu taxlit o'tib borardi. Ilgarilari ham Davron haqida sirli pichirlashib yurgan qizlarning sabr kosalari to'lib-toshib, unga sevgi xatlari yog'dira boshlashdi. Men Tanziladan xavotirda edim. Davron bir kuni uni maktab hovlisida, katta tanaffus payti namoyishkorona yoniga chaqirib, qizga yaltiroq qoplamali quti uzatdi.

– Esingdami, bir mahallar shaharga borsam senga albatta sovg'a olib kelaman deb aytgandim, mana, va'damni bajardim.

Tanzila biroz uyalib, andak nozlanib, biroq yal-yal yashnab, dugonalar qiyqirig'i ostida sovg'ani oldi-da, ichkariga yugurib ketdi.

O'zimni qo'yarga joy topolmasdim.

O'sha mavsum, o'sha sentyabr yuragimda ilk bor hasad sharpasi paydo bo'ldi. Men kimman-u, Davron kim, degan savolning, so'roq belgisining ilmoqli uchi ko'ksimga qadaldi. Tunlari bezovta to'lg'onib, ikkimizni qiyoslab chiqaman. Davron boy-badavlat, izzat-obro'li xonadon farzandi, yegani ham, yemagani ham oldida, istasa, sanatoriyda dam oladi, istasa osmondagi yulduzni yulqib olishi mumkin. Ustiga ustak, kelishgan, polvon, po'rim yigit. Men-chi, yetim o'sgan bir bechora. Birovlar mashhur go'shalarda, maishat og'ushida yurgan payt, cho'lning it topmas bir burchagiga borib, uch-to'rt so'm ilinjida yoz bo'yi kosovday qorayib yer chopaman, ekin sug'oraman, yon-atrofdan birov tanib, birov tanimaydi.

Men tunlarni kunlarga, kunlarni tunlarga ulab shu taxlit taqqoslashga berilar ekanman, Davron mendan xiyla uzoqlashib, ulkan qoyaga aylanib borayotganini, o'zim esa kichraygandan kichrayib, mitti hashoratga do'nib qolayotganimni

payqayman. Taqqoslashga berilganim sayin Tanzila mendan olislab, Davronga yaqinlashib boraverardi. Nazarimda, ularning darajasi bir-biriga tengdek tuyulardi”⁹⁴.

Qissaning kulminatsion nuqtalariga yaqinlashgan sayin – ikkala o‘rtoq orasida bino bo‘layotgan jarlikdan o‘quvchi ham xavotirga tusha boshlaydi. Inson o‘zini tanigan sayin, ishq va muhabbat haqida teran mulohaza yurita boshlaydi. Solishtirish, qiyoslashlar ana shu tamoyilga izn beradi. Haqiqatdan ham, muhabbat – mol-dunyo, shon-shuhrat bilan o‘lchansa, unday muhabbat manfaat esaziga quriladi. Haqiqiy muhabbat esa hech qanday tanlovni, idrokni va manfaatni tan olmaydi. Unga yor vaslidan bo‘lak boshqa hech narsa muhim emas! Shuning uchun ham, muhabbatning biz anglab yetgan tomonlari faqat o‘zimizga tan. Norsoat va Davronbekning o‘zaro do‘stligi o‘rnini, aql-u hushi kirib, nafrat egallashi tabiiy bir holdir. Chunki o‘rtada Tanzilaga bo‘lgan pokiza muhabbatning kelajagi turibdi. Rus munaqqidi M.M.Baxtin badiiy adabiyotda – metamorfoza masalasini tahlil qilar ekan, bu haqda shunday yozadi: “Metamorfoza (evrilish) asosan insoniy evrilish – o‘zlikni anglash (asosan insonning o‘z-o‘zini anglashi) bilan birgalikda ibtidoiy folklor xazinasiga oiddir. Evrilish, o‘zni anglash ibtidoiy folklordagi odam obrazi bilan teran va mustahkam bog‘lanishga ega. Ayniqsa, bunday bog‘lanish xalq ertaklarida aniq saqlanib qolgan. Ertakdagi odam obrazi – ertakka xos barcha rang-barangliklari bilan doimo evrilish va o‘zni (o‘z navbatida, har xillikni emas, balki ushbu motiv konkretligini ta‘minlovchi bo‘lak sifatida) motivga quriladi. Evrilish – o‘zni anglash motivlari bir odamdan butun insoniyat dunyosiga, tabiatga, insonning o‘zi tomonidan bunyod etilgan narsalarga o‘tadi. Inson obrazida o‘zini anglash va evrilishlarni ochib tashlaydi”⁹⁵. Ko‘rinadiki, M.Baxtin antik zamin (yunon adabiyoti) timsolida metamorfozani talqin qilib, bugungi norealistik qissalar kompozitsiyasiga daxldor chiziqlarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Qissadagi qahramonlar ham bolaligidan o‘zligini anglash uchun yo‘lga chiqqan yo‘lovchilardir desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ayniqsa,

⁹⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

⁹⁵ Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Тошкент: Академнашр, 2018. –Б.77.

ovloq cho'l qo'ynida istiqomat qilib, o'zlarining aql-zakovati, qanoati hamda shafobati bilan uyg'unlik kasb etadi. Qissada shu qadar qiziqarli lavhalar borki, uni o'qigan o'quvchi beixtiyor yoshlik damlariga qaytib, bir boshdan hayotini boshlagisi kelib qoladi. Quyidagi lavhada ham har bir inson boshidan o'tgan va o'tishi mumkin bo'lgan voqelik aks-sadosi yangraydi:

“– Ey, do'stim, qizlar toza badimga urib ketdi, – dedi ichkilikdan yonoqlari biroz qizargan Davron, – maktab boshlanganidan beri beshovidan sevgi xati oldim. Mana, bittasi hali ham yonimda yuribdi. – Davron kostyumi cho'ntagidan qat-qat buklangan varaqni chiqardi. – Eshit, o'qib beraman, sen ham ko'nikaver.

Negadir uning bu niyati menga yoqmadi. Yarim tunda xontaxtaga muk tushib, ming bir xijolat-u umid bilan qog'oz qoralayotgan qiz ko'z o'ngimda jonlandiyu, ozorlardan, ovozalardan himoya qilgim kelib ketdi.

– Davron, qo'y, kerakmas. Eshitgim kelmayapti.

– Nega?

– U senga yozilgan. O'zing o'qi, yoqmasa, yirtib tashla. Bu ikkingizning o'rtangizda qolishi kerak.

Davron bir zum yuzimga o'ychan tikilib, so'ng iljaydi.

– Ba'zan qoyil qolaman senga. Xuddi olimlarday gapirib yuborasan. Manovi aytganlaring menga yoqdi. Chin, hech o'ylab ko'rmabman, ovoza bo'p ketsa... sinfdosh sharmanda bo'p qoladi. Ahmoqona qiliqlarim ko'p-da.

Shu payt negadir pochchamning dalasida dalli-devona yurgan paytim chala qolgan jumboqni yechganim esimga tushib qoldi.

– Ey, Davron, – dedim hovliqib, – esingdami, polvon uch narsaning quli bo'lish kerak degandi ustozimiz. Sen ikkovini topganding, birovi hech kallangga kelmagandi. Absal polvon ham aytmay kuydirgandi.

– Ha, esimda. Rosa bo'larimiz bo'lgan.

– O'sha uchinchi narsani topdim.

– Topding? Nima ekan?

– Sevgi. Polvon or-nomusning, sevgining quli bo'lish kerak ekan. O'zim o'ylab topdim.

– Bunday narsani o‘ylab topib bo‘lmaydi, kalla – deb kinoyali kuldi Davron,
– kitobni izlash kerak. Yoz bo‘yi ko‘p asar o‘qib tashlabsanmi degan xayolga boribman.

Men ham bo‘sh kelishni istamadim.

– Bu sevgi, aniq sevgi.

– Bo‘pti, sen aytgancha bo‘la qolsin. Lekin men gapiyga qo‘shilmayman. Mana, masalan, men ham polvonlikka talabgorman, lekin sevgiga hech qachon qul bo‘lmayman! Kerak bo‘lsa, sevgini qul qilaman! Har qanday qizni sevdira olaman, xohlaganim meniki bo‘ladi. Ishonasanmi shunga?

Men qizg‘in bosh irg‘adim. Rost, dovyurak, shijoatli Davrondan har balo kutsa bo‘ladi. Uning o‘z-o‘ziga ishonchi ham, imkoni ham baland edi.

Xullas, o‘sha kech men tug‘ilmadim, qayta tirildim. Do‘stimning yo‘qlab kelgani, samimiy suhbat, albatta, qimmatbaho sovg‘asi shubhalarimni, anduhlarimni tumanday tarqatib yubordi”⁹⁶.

Absal polvonning ham jismonan, ham ruhan yozg‘irishlari har ikkala polvon taqdiriga mos tushunchalar ekanligi ayonlashadi. U ham ruhiy kayfiyatga mos maslahat-u nasihatlar bergan, qolaversa, insoniy muhabbatning o‘ziga xos jilvalaridan boxabar qilganligi ayni haqiqatdir. Chunki Davronning va Norsoatning o‘zaro ahilligi nafaqat sinfdoshlikda, balki jangu jadallarga birga otlangan askarlardek polvonlikda ham bir-biriga o‘xshab ketardi.

Prof.J.Eshonqul bu haqda shunday yozadi: “Ruhiy dunyoda “men” shakllanmagan ekan, u yerda kultlar mavjud bo‘ladi va bu kultlar insonni ma‘nan mutelikda ushlab turadi; miflardagi qahramon maqsadga erishishda xudolar, yovuz ruhlar, devu jinlar to‘siq bo‘lgani kabi uning “men”ga intilishi har xil jimjima, sarob, umidsizliklar bilan to‘siq turadi, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchki yemirib tashlaydi. Inson ichidagi kult o‘zlariga xudo yasab olgan ilk ajdodlarning ruhiy dunyosidan kam farq qiladi, garchi uning aqli, onggi ilk ajdodiga nisbatan keskin farq qilsa-da, uning aqliy dunyosi ilk ajdodiga nisbatan qiyoslab bo‘lmas darajada esa-da, Yozef K.ning ichidagi kultning ilk ajdodining ichidagi kultdan farqi yo‘q.

⁹⁶ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

Insonni ma'naviy taraqqiyoti va yuksalishi faqat ong va aqlning yashin xudoning nayzasi emasligini yoki yerni ho'kiz ko'tarib turmasligini bilish bilan o'zgarmaydi, balki ruhiy dunyodagi kultlarni yengib komil "men"ni qay darajada yarata olganligi bilan o'lchanadi"⁹⁷.

Bu chiziqlar – inson har qanday vaziyat, holat va kayfiyatda avvalo, o'zini anglashi, tavba qilib, gunohlaridan forig' bo'lishi haqidadir. L.Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasi ham norealistik proza bilan realistik uslub modifikatsiyasini uyg'un holda kechishini ta'minlashga qartilgan mo'jaz asardir. L.Bo'rixon umrining oxirigacha, qariyb 30 yillar davomida yozish bilan band bo'ldi. Adibning ushbu qissasida bolalikdan to o'zini anglab yetgunga qadar anchayin yillar o'tgan bo'lsa-da, badiiy xronotop shakllari asta-sekinlik bilan yuqorilab boradi:

"Biz Absal polvonni unutgan edik.

O'sha yili "Kengsoy burgutlari"dan ikki bola viloyat markazidagi institutga, tag'in biri Samarqanddagi universitetga ilashibdi. Tanzila...mening Tanzilam, bilmadim, avvaldan rejalashtirganmi, yo tuyqus shu qarorga kelganmi, ishqilib, viloyat markazidagi pedagog kadrlar tayyorlovchi texnikumga kiribdi. Kimlarning astoydil achingan, afsuslangan, kimlarningdir istehzoli, kinoyali nigohlari ostida qishloqqa kirib kelarkanmiz, yon-atrofdan eshitgan xabarlarimiz ana shular bo'ldi.

Biz uch kun uy-uyimizdan chiqmay yotdik. So'raganlarga mandat tanlovidan o'tolmadik, hatto o'sha yerdagi imtihon olgan domlalar ham bizning omadimiz yurishmaganidan kuyinib qolishdi, deb qo'ya qoldik.

Bir haftacha qishloq bo'ylab izg'ib yurdik. O'qishga kirgan do'stlarni tabrikladik, kurashlar, ko'pkarilar haqida gaplashdik, xullas, o'zimizni ovutgan bo'ldik.

Shu orada Tanzilani uchratdim. Viloyat markazidan kelayotgan ekan. Shaharcha fasondagi soch turmaklari, sarg'ish ko'ylagi o'ziga xo'b yarashib turardi. Yuz-ko'zida mamnuniyat, tabassum kezinib yurardi.

Hayajon, xijolat, quvonch butun vujudimda qorishib ketgan edi.

⁹⁷ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б.146-147.

– Tabriklayman, o‘qishga kiribsan, – dedim salom-alikdan so‘ng. – Biz esa chappa bo‘p yiqildik.

Tanzila afsus bilan bosh chayqab, astoydil hamdardlik bildirdi.

– Huquqshunoslikka kirish qiyin-da. Qattiq tayyorlanish kerak bo‘ladi.

– Armiyaga opketmasa kelgusi yil yana ko‘ramiz. Sizlar-chi, o‘qishni boshlab oldilaringmi?

– E, o‘lsin, – deb chimrildi Tanzila, – hammamizni paxtaga haydayapti. Dushanba kuni texnikum yopilib, Ganjirga yotoloqqa opketishadi. Ikki kunga uyga ruxsat berishdi. Yaxshilab ovqatlanib kelinglar deyishdi.

Biz kulishdik. Kulgan payt Tanzilaning ko‘zlari allanechuk xumor-xumor suzilib ketardi. Men unga mahliyo tikilib qoldim.

– Tanzila, seni ko‘rgani boraman.

Qiz uyalib ko‘zlarini opqochdi.

– Cho‘lu biyobonda adashib ketmaysizmi?

– Yo‘q, dunyoning narigi chekkasiga bo‘lsayam adashmay seni topib boraman”⁹⁸.

Qissadagi muhabbat haqidagi qarashlar, haqiqatdan ham, har bir inson qismatida bir kelib ketadigan bahordek taassurot uyg‘otadi. Qismatiga visolga yetish nasib qilmagan bu ikki do‘st oqibatda armiya safiga otlanadi. Ular o‘qishga kirolmagan, hamda taqdiriga oliy ta‘limda o‘qshi bitmagan ekan. Tanzila bilan oxirgi xayrlashuv nuqtasi paxta paykallarida ro‘y beradi. Yozuvchi qissada – bolalik va muhabbat xronotopini shu qadar yuksak tuyg‘ular bilan idroklaydiki, uning nazarida har qanday tasvir ham kamlik qiladi go‘yo. Shunday ekan, yozuvchi ikki jihatga mantiqiy urg‘u beradi. Birinchidan, Tanzila – ma‘naviy va ma‘rifiy immunitetni shakllantiruvchi obraz. Har ikkala o‘rtoqning ham bunga qodir bo‘lishida – botiniy irodasi kuchli bo‘lishi shart! Mana shu tamoyilga asoslanadigan bo‘lsak, qissa haqiqatdan ham jamiyatdagi ba‘zi illatlarga qarshi tura oladigan or-nomus va g‘urur ramzi bo‘lgan yoshlarning ishchanlik qobiliyatini o‘stirishga qaratilganligi ayonlashadi. Chunki global dunyoda ma‘naviy-ma‘rifiy

⁹⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

qatlam shakllanmas ekan, har bir inson qaysi sohada faoliyat yuritishdan qat'iy nazar biror natijaga erisha olmaydi. Ana shu jihatlar yozuvchining poetik uslubi va izlanishlari chuqurlashganidan dalolat beradi.

Badiiylik modusi qissa arxitektonikasida alohida o'rin egallaydi. Unda millatning ori va g'ururi bo'lgan polvonlar hayoti o'z ifodasini topgan. Sobiq ittifoq davrining paxta siyosati, cho'llarni o'zlashtirish borasidagi qat'iy byurokratiya tamoyili insonning ruhiyatini bukib qo'yishi mumkinligi isbotlandi. Orol dengizining qurishi ekologik fojealarni yuzaga chiqishida katta yo'qotishlarga olib keldi. Qissada ayni shu jihatlar ham yengil mubolag'a bilan ifodalanib, davrning og'riqli muammolari negizida talqin ham qilinadi.

Tragik vaziyat xronotopi. Ayonki, badiiy xronotopning asarda aks etish tamoyillari o'ziga xos bo'lib, uning har xil vaziyat va holatda yuzaga keladigan shakl-u shamoyillari bo'ladi. Rus munaqqidi M.M.Baxtin bu haqda juda katta nazariy qarashlarni antik yunon romanlari, tragediyalari timsolida aniqlashtirishga erishadi. Yozuvchining "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" qissasida tragik vaziyat xronotopi o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, Amira va G'anining to'satdan vafot etishi Roziya va Latifning norizoligidan emas, taqdiriga yengil-yelpi yashash yozilganidan dalolatdir. Roziyaning ko'z yoshlari ham, Latifning ishonuvchanligi ham yozuvchi nazdida qismat ekanligini dalolatlaydi. Unda millat sha'ni va oila muqaddasligi har bir narsadan ustun ekanligi ayonlashadi. Shuningdek, yozuvchi Amiraning suyuqoyoqligini tasvirlashda ikki jihatga mantiqiy urg'u beradi:

"Ichki ishlar idorasi. Podpolkovnik mundiridagi, yuz-ko'zidan qat'iyat va jiddiyat yog'ilib turgan ayolga Sherbek Uzoqov hisobot bermoqda.

– Manzura Hamidovna, dastlabki surishtiruv ishlarini yakunladim.

– Xo'sh-sh?

– O'sha – deya gap boshladi izquvar oldidagi qog'ozga ko'z tashlab-tashlab, 210-uyning 45-xonadonida yashovchi ayol Murodova Amira o'sha tun jazmani bilan bo'lgan. To'satdan eri kelib qolgan. O'rtada olishuv bo'lgan. Oqibatda, ayol o'ldirilgan, uning jazmani pastga qulagan.

– Bunaqa ma'lumotlarni qayerdan oldingiz?

– So‘rab-surishtirdim, Manzura Hamidovna. O‘sha Amira degan ayol haligi, pastga qulagan erkak bilan anchadan beri aloqador ekanidan xabardor odamlar ham topila qoldi. Ulardan biri o‘sha tunda haligi erkak...

– Haligi erkakning shaxsi aniqlanmadimi? – deya dag‘al bir tovushda so‘radi Manzura Hamidovna.

– Aniqlandi, aniqlandi, – dedi Sherbek shoshilib. – U, Mavlonov Abdug‘ani, shaharning Beshpanja ko‘chasida, 17-uyda yashagan. Tayinli kasbi yo‘q. Qimorboz sifatida mahalla ko‘y yaxshigina bilarkan. Bundan tashqari boshqa qing‘ir ishlar bilan shug‘ullangan. Mavlonovning faoliyatiga oid menda yana boshqa muhim ma‘lumotlar bor. Manzura Hamidovna, ruxsat bersangiz, u haqda keyin bafurja gaplashsak.

– Yaxshi... birinchi masalaga qayting.

Sherbek biroz qog‘oz titkilab turgach, hisobotda davom etdi.

– Xo‘-o‘sh... Ha, Abdug‘anining kirib ketganini ko‘rganlar bor, keyin... Soat tungi birlar chamasi uy egasi, ya‘ni o‘sha ayolning eri taksida qaytib kelganini ko‘rgan guvohlar bor.

– Ob-bo, bu shovvoz qo‘shnilar-ey, – deb kinoyali kuldi podpolkovnik ayol, – hammasidan xabardor-a. Balki qotillik qanday yuz berganini ham kuzatib turishgandir?

– Afsuski, bu yog‘iga hamma jim. Ammo surishtiruv-tekshiruv davom etayapti, Manzura Hamidovna.

– Rahmat, Sherbekjon, yaxshi ishlabsiz, – dedi podvolkovnik ayol biroz chehrasi yorishib. – Xo‘sh, o‘zingiz shu voqea yuzasidan qanday fikrga keldingiz?

Izquvar yigit ustma-ust tomoq qirib oldi.

– Menimcha... menimcha, chindan ham eri kelib qolgan. U rashk, nafratdan o‘zini tutolmay avval xotinini pichoqlagan, so‘ng erkakni pastga uloqtirgan...”⁹⁹

Keltirilgan lavhada jinoyat sodir etilgandan keyingi tergov va surishturuv ishlarining natijasi haqida xabar berilmoqda. G‘ani va Amiraning o‘z qilmishlari natijasida vafot etishini zukko tergovchi aniqlashtiradi. Demak, tragik vaziyat

⁹⁹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-ayol-koz-yoshlarga-ishonma-di-qissa/>

xronotopi qissaning poetik xususiyatlarini teranlashtiradi. Yozuvchining psixologik vaziyatni barqarorlashtirish manerasini kuchaytiradi. Qahramonlar xarakteridagi, ayniqsa, ijodiy konsepsiya sintezini muvofiqlashtirib, olam va odam haqidagi muayyan tasavvurlarga izn beradi. Estetik ideal va yozuvchi konsepsiyasi mana shu yerda o'z ifodasini topganligini e'tirof etish lozim.

Yozuvchi matnga shu qadar nutq birliklarni uyg'unlashtirib yuboradiki, polifonik nutq nazariyasi, M.M.Baxtin ta'biri bilan aytganda, tragik vaziyat xronotopini o'z qo'liga oladi. Tragik vaziyatda qahramonning o'y-xayollari, yashash uchun kurashlar, o'zining qismatining shu manzilga yetib kelishlari tushuniladi. Masalan, Amira bilan G'anining "don" olishib yurishlari qaysi mantiqqa to'g'ri keladi? Ularga nima yetishmas edi? Ularning guldek oilasi, ro'zg'ori va farzandlari bo'la turib nega bunday jirkanch ishga qo'l uradi? Bu haqda muqaddas kitoblarda ham aniq-tiniq belgilab qo'yilgan. "Zulm va qabohat, jinoyat, xiyonat bor joyda albatta, falokat ham bo'lishi tayin" deya. Shunga e'tibor qiladigan bo'lsak, bu ikki obraz o'zlarining qismatlari qarshisida o'z jazolarini olganligi ayni haqiqatdir.

Qissada ichki monolog xronotopi. "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" qissasida yozuvchi badiiy xronotopning ichki monolog tipidan ham unumli foydalanadi. Ayni shu usul qissa syujetida muhim funksiyani bajaradi. Birinchidan, qissaning syujet voqealari izchilligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, obrazlar sistemasida o'zaro uyg'unlikni yuzaga chiqishida muhim rol o'ynaydi. Ichki monolog har bir asarda mavjud. U xarakterlar ruhiyati va asar ruhiyatidan kelib chiqib, murakkablashib, sayqallanib boradi. Amiraning o'z-o'ziga maftun bo'lib, aysh-u ishrat bilan kun kechirishga odatlanishi, Roziyaxonning hayotdagi baxtsizligi borasida uzundan-uzun yolg'iz qolib, suhbatlari, iztiroblari ana shu jihatlarni yuzaga chiqishida zamin hozirlaydi. Qissada ichki monolog xronotopi yozuvchining poetik uslubiga xos xususiyatlardan biri desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, yozuvchi o'zining individual uslubidagi kinoyaviy-parodik usul bilan xarakter taqozosi birligini yagona estetik markazda uyushtirib, jamiyatning ba'zi illatlaridan boxabar qilganligida qabarib ko'rinadi:

“Roziyaning bir paytlar orzulari osmon edi. Bir gapirib o‘n kuladigan, yerga ursa osmonga sapchiydigan qizlar xilidan edi. Aloqa kollejini bitirdi-yu, institutga kirishga ulgurmad. Erga tegdi! Kollej yaqinida do‘kon ochib olgan yigit bilan sevishib, ahdu paymon qilishib, xullas, bu yog‘ini tezlashtirib yuborishdi. Rauf yaxshi yigit edi. Ko‘ngli bo‘sh, qo‘li ochiq. Lekin onasi... ya’ni Roziyaning qaynonasi ajdahodan nari-beri ekan! Kelinini o‘tirsas o‘poq, tursas o‘poq deyaverib jonidan to‘yg‘azdi. Ko‘z ochirgani qo‘ymadi. Ustiga-ustak, o‘rtaga befarzandlik muammosi chiqdi. Turmush qurishganiga uch yil to‘ldi-yu, biroq Roziya onalik baxtiga muyassar bo‘la olmadi. Ular borib uchrashmagan na vrach, na tabib qoldi. Ne bir duoxon-u folbinlarga duch bo‘lmadi deysiz. Lekin barchasi befoyda. Qaynonasining qahri esa kundan kunga ortardi. O‘rtada Rauf sho‘rlik qiynalib ketdi. Xotinini eplab himoya qilaolmadi. Oxir-oqibat onasiga taslim bo‘ldi. Xotini bilan ajrashdi. Roziya dunyoda sevgi-muhabbat bor, u hamma narsaga qodir, har qanday mashaqqatlarni yengib o‘tadi, deya ishonardi. Lekin taqdir ayolning sodda ishonchlari ustidan kuldi. Shu-shu Roziya biroz odamovi, jiddiy va serzarda bo‘lib qoldi. U onasinikiga qaytib kelgach, temir yo‘l vokzalida ishlay boshladi. O‘sha adashib-uloqib ketgan baxtining yo‘liga ko‘z tikdi. Oradan bir yil o‘tdi. Shu orada bir-ikki so‘qqabosh erkaklar sovchi qo‘ygan bo‘lishdi. Lekin Roziya qat’iy rad etdi. Onasi lab tishlab, yerga qaradi. U qizining yana oila qurishini, baxtli, uvali-juvali bo‘lib ketishini istardi. Lekin buni oshkora aytishga iymonar, qizining onam uyga sig‘dirmayapti, degan xayolga borishidan cho‘chir edi. Shu taxlit oradan yana bir yil o‘tdi. Roziya ishdan horib-charchab, parishon kelgan kunlarning birida, onasi, ohista gap boshladi”¹⁰⁰.

Keltirilgan lavhada ichki monolog badiiy xronotopi psixologik vaziyatni taranglashtirgan. Yozuvchi ayni shu lavhada Roziyaning qismatini syujet liniyalariga mantiqiy singdirib yubora olganligida seziladi. Shuningdek, badiiy uslubning umumiy va xususiy tomonlari o‘z ifodasini topadi. Ichki monologik nutq ham qahramonni, ham syujetning ijodiy parvozini, ham yozuvchi badiiy niyatini, ham voqelikning izchilligini ta’minlashga muhim sharoit hozirlashi tayin.

¹⁰⁰ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-ayol-koz-yoshlarga-ishonma-di-qissa/>

Shuningdek, badiiy psixologizm muammosi bo'yicha qator tadqiqotlar olib borgan prof.Sh.Botirova quyidagicha yozadi: "Ichki monolog har bir personaj ruhiy dunyosini anglashga yordam beradi. Shu o'rinda psixologik talqin vositalarini yuksak badiiy mahorat bilan qo'llagan L.N.Tolstoy va F.M.Dostoyevskiy asarlarida personaj ongida kechayotgan evrilishlar bevosita tasvir sifatida berilib, ong va ongosti qatlamlari faoliyatini butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan tasvirlay olish imkoni kuzatiladi. U.Hamdami yaratgan obrazlar ham adog'siz mulohaza yuritadi, kuyinadi, sevinadi, o'z-o'zi bilan bahslashadi"¹⁰¹. Prof. Sh.Botirovaning mana shu mulohazalarini bevosita L.Bo'rixonning badiiy izlanishlari negizida ham talqin qilish mumkin:

"Tun. Shahar qoramoyga belangan ulkan chiroqqa o'xshaydi. Hamma yoq qop-qora. Uning qismatidek qop-qora. Uning baxtidek qop-qora. Latif chekka qah-va-xonalarning birida andak tamaddi qilib chiqqan bo'ldi. Lekin ishtahasi g'ippa bo'g'ilgan edi. Ko'ngli xuddi tashqaridek qop-qorong'u, xuddi ko'cha chiroqlaridek xira. Quloqlari ostida hanuz Abray lochinining shafqatsiz tanbehlari jaranglab turardi: "Tog'angga tortmabsan, o'v, bola! O'zing men o'ldirdim deb borishing kerak edi, o'zing..."

Latif qahvaxonadan chiqqach, daraxtlar quyuq o'sgan bino panasida ancha payt turib qoldi. U qayon bosh olib ketishini, qayerga yashirinishini bilmasdi. Go'yo uni ming-mingta ko'z, ming-mingta nigoh kuzatib turgandek, yorug'likka chiqsa, qidirib yurganlar darhol topib oladigandek tuyulardi.

Katta ko'chada chinqirib kelayotgan mashinalar qatnovi bir zum ham uzilmaydi. Kechikkan-ichikkan yo'lovchilar sharpadek o'tib-qaytishadi. Baland-past imoratlar allanechuk sirli, vahimali tuyuladi.

Bahaybat qo'ng'ir ayiqdek itni yetaklab, sayr qildirib yurgan kampir to'ppa-to'g'ri Latif tomon bostirib kela boshladi. Yigit dovdiray-dovdiray yo'lak bo'ylab yurib ketdi. Daraxtlar ichida o'ralashib qolgan it tomon qo'rqa-pisa ko'z tashlab qo'ydi.

¹⁰¹ Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадий психологизм. Филол.фан.дисс.яси. –Қарши, 2019. –Б.84.

Latif xotinining nega bunday buzuq yo'lga kirganini hech tushunolmasdi. Nazarida bunga hech bir sabab yo'qdek tuyulardi. Axir munosabatlari iliq, ro'zg'orlari but edi. Ba'zi bir erlarga o'xshab, xotinini siquvga olmasdi, tergamasdi. O'rtada ishonch bo'lishi kerak degan aqidaga amal qilardi. Amira misoli erkin qush edi. Balki xatosi aynan shunda bo'lgandir? Xotinini qattiq nazoratda ushlash kerak bo'lgandir. Yo'q, yo'q, Latif unday qilolmasdi. Bu o'zini zamonaviy, ziyoli erkak sanagan odamga to'g'ri kelmaydi. Agar ming bor qattiqqo'l bo'lsa-da, ming bor nazorat qilsa-da, buzuqlikni istagan ayol baribir niyatiga yetmay qo'ymaydi.

Demak... demak, Amira avval boshida yengiltak bo'lgan! Demak, u anchadan beri erining ko'ziga cho'p suqib kelgan! Jufti halolining muhabbatiga, ishonchiga shunday xiyonat bilan javob bergan u!

Latif iztirobli xayollar og'ushida beixtiyor ing-rab yubordi. Qo'llarini musht qilib boshiga nuqidi. Shundoqqina yonginasidan o'tib ketayotgan yo'lovchi shosha-pisha o'zini chetga tortdi. Dimog'ida g'udranib allanima deya so'kingan bo'ldi. Biroq Latif unga e'tibor bermadi. Mastdek gandraklab yo'lidan davom etdi"¹⁰².

Ushbu manzara yozuvchining nechog'li iztirob chekayotganidan dalolat beradi. Latifga ham oson emas. u hayot yo'llarida juda ko'p iztiroblar tortdi. Natijada, guldek oilasining ko'zi o'ngida xazon bo'lishi har qanday erakni ruhan ezib qo'yishi hech gap emas. Negaki, yozuvchining mana shu jihatlari hayot haqiqatini yanada idroklashga keng imkon bermoqda. U boshiga tushayotgan dilxiraliklardan bezib, boshini olib uzoqlarga ketgisi keladi. Latif – olijanoblighi va oilaparvarligi bilan kitobxon ko'zi o'ngida ijobiy gavdalanadi. Turmushning og'ir ta'mini totib, bola-chaqam deb, ming yonib, ming kuyadi. Buni suiste'mol qilgan xotini Amira o'z uyida eriga xiyonat qiladi. Bu yerda ichki monolog yozuvchining baholari va uning kuzatishlari negizida dalolatlanadi. Estetik qamrov va psixologik vaziyat badiiy xronotopning universal modelini yuzaga chiqishiga zamin hozirlaydi.

¹⁰² <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-ayol-koz-yoshlarga-ishonma-di-qissa/>

Badiiy nutq – yozuvchi ijodiy konsepsiyasining markaziy talqin modusidir. Bu modus syujetni tiniqlashtiradi, kompozitsiyani maromlashtiradi, ruhiyatni ochilishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Monologik nutqning birlamchi muhim xususiyati – uning uzviyligi bo‘lib, bunda so‘zlovchi axborotni mavzuga yo‘naltiruvchi qo‘shimcha savollar yordamisiz izchil tarzda bayon etishi zarur bo‘ladi. Buning uchun fikr yoyiq, bir qadar kengroq ifodalanishi, jumlar grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi va ongli ravishda tanlab ishlatilishi talab etiladi. Shuni ham qayd etish kerakki, yoyiq va uzluksiz shaklda bayon etilayotgan monologik axborot ayni paytda tugallangan xarakterga ega bo‘lishi ham kerak”¹⁰³, - deb yozadi tadqiqotchi Z.Salisheva. Haqiqatdan ham, monologik nutqning asosiy vazifadoshligi yozuvchining o‘z tilidan hikoya qilinsa, asardagi muhim jihatlarni lirik chechinmadan xoli ravishda matn bag‘riga singdirib yuboradi. Mana shu jihatdan ham, L.Bo‘rixon o‘z asarida ong osti sezimlarini, tuyg‘u va kechinmalarini birinchi shaxs tilidan berishni maqsad qilganligida ko‘rinadi. Qissadagi eng xarakterli jihatlardan biri G‘anining o‘z xotinini qimorga yutqazgan lahzasida namoyon bo‘ladi. Mastlik – rostlik deya, u o‘zining nima qilib qo‘yganini juda kech payqaydi:

“G‘ani shishadan to‘kib-sochib aroq quyib ichdi.

– Men mardman, avvallari qanday yutgan bo‘lsam, endi shunday yutqazdim. Hozir yana yutaman, inshoolloh. Qani, suz.

– O‘v-v, chiranchiq, – deb qad rostladi Abray lochin. – Endi bitingni tikib o‘ynaysanmi? Bor-budingni boy berib bo‘lding-ku?!

– Hovlimni tikaman, – deb mastona g‘udrandi G‘ani.

– Hovlingni?! – deb qiyqirib yubordi Rustam. – U qanaqasiga sening hovling. Kimniki ekanini bilamiz.

Abray lochin tahdid bilan G‘aniga o‘qraydi.

– Faqat o‘zingning narsangni tik. Birovlarning mulkini aralashtirma, janjalga tobim yo‘q.

¹⁰³ <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2021/12/monologik-nutkning-funkczional-va-psiholingvistik-hususiyatlari.pdf>

G‘ani yana aroq quyib ichdi. Burun kataklari pir-pir ucharkan, ko‘zlari g‘azab bilan yondi.

– Xotinimni tikaman.

– Xotiningni?! – beixtiyor qichqirib yubordi Nabi.

Davradagilar hangu mang qotdi. Chunki Ko‘kgumbaz qimorxonasida hali hech bunaqasi bo‘lmagandi. Oraga bir zum tahlikali jimlik indi.

G‘ani yana to‘kib-sochib piyolasiga aroq quydi.

– Ha, xotinimni tikdim.

– O‘v, so‘tak, – dedi Abray lochin g‘azab bilan uning yoqasidan olarkan, – hazilingni yig‘ishtir. Bu yer ming o‘ylab bir gapiradigan joy.

G‘ani Abray lochinning changalidan bir amallab qutularkan, mastona g‘udrandi.

– Gapim gap. Tug‘mas xotin qimorga yaramasa nimaga yaraydi. – U o‘z gapidan o‘zi nash‘alanib kuldi. – Qani, qartani suzinglar.

O‘sha tun Roziya allamahalgacha televizor tomosha qilib o‘tirdi. Negadir hech uyqusi kelmasdi. Ko‘ngli hamishagidek zim-ziyo. U erinibgina kiyimlarini almashtirib, ko‘zgu yonida sochlarini taray boshladi. Shu payt ko‘cha eshigi taraqlab ochildi. G‘ani kirib keldi. Ipirisqi, g‘irt mast. U Roziyaga qarab tirjaydi. So‘ng gandiraklagan ko‘yi yoniga kelib, quchoqlashga harakat qildi”¹⁰⁴.

Ushbu lavhada yozuvchi G‘anining qismatiga nuqta qo‘yiladigan lahzalar oz qolganiga ishora qilmoqda. Chunki u har qanday vaziyatda allaqachon jarlik tomon ketib bo‘lgandi. Uning orqaga qaytadigan boshqa yo‘li yo‘q edi. Shunday ekan, yovuzlikning g‘alabasi uzoqqa cho‘zilmadi. Falokat o‘z oyog‘i ostida ekanligini kech bilib qoldi. Mana shu jarayonda Roziyaning tilidan “Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi” jumlasini kelib chiqishini taxmin qilish mumkin.

“Freyd fanga inson ruhiyatida doimo kurash tushib, g‘oliblik uchun joy talashadigan ikki hukmfarmo asosni sharhlab beradi. Birinchisi, jami go‘zallikdan, rohat-farog‘atdan, zavqu shavqdan, ne‘matlardan bahramand bo‘lishga intilish, ya‘ni hayotga intilish manbai bo‘lgan hayotbaxsh instinkt – libido. Ikkinchisi,

¹⁰⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-ayol-koz-yoshlarga-ishonma-di-qissa/>

o'linga, parokandalika, vayronalikka olib boruvchi, o'zini o'z halokatga eltuvchi agressiv instinkt – mortido. Ruhiyat ana shu ikki asosga suyanib o'zini namoyon qiladi. Agar inson ruhiyati libidogo asoslansa, unda libido kuchlilik qilsa, bu ruhiyatda hayotsevarlik, yorug'lik kuchli bo'ladi. Mortido kuchaysa, bu ruhiyatda tanazzul va parokandalik, o'linga intilish, dunyoni qora ranglarda ko'rish kuchli bo'ladi"⁴. Darhaqiqat, obyektimizga jalb qilingan har bir qissa poetikasida badiiylilikni ta'minlovchi eng asosiy unsur xarakter badiiy tadriji va jamiyat tanazzulining inson botinida ro'y berish vaqti (xronotop) bilan belgilanadi. Shunday ekan, inson hamisha bir hisga asir yashaydi. Uning orzulari, armonlari yangidan bo'y ko'rsatadi. XX asr G'arb badiiy tafakkurida – norealistik talqin ustuvor hamiyat kasb etsa, u ramzlar vositasida dunyo yuzini ko'rishga musharraf bo'ldi.

Umuman, xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy xronotopning shakllari qissa mohiyatida muhabbat va nafrat, sevgining olijanob tuyg'u ekanligini anglatishga, tragik vaziyatda inson o'zining ruhiyatini jilovlay olishiga mantiqiy urg'u beriladi. Shuningdek, yozuvchi xilma-xil obrazlar sistemasida jamiyatdagi katta-kichik ishlarga o'z munosabatini bildirib, hayotning yorqin tomonlarida bo'lishlikka da'vat qiladi. Aytish joiz, inson o'zining hayot yo'llarida hamisha odamlarning diqqatini tortib, hammaning nazarida bo'lishni xohlaydi. Demak, qissadagi barcha qahramonlar bugun siz-u biz kabi hayotda yashamoqda. Uning prototiplari turli xil kasb egalaridir. Ayniqsa, shu kasb egalarining iztirobli kunlari har birimizga yashashning oltin qoidasidan saboq berishi muhimligi ishonarli tasvirlangan. Yozuvchi badiiy xronotopning xilma-xil ifodalarini qissa konsepsiyasiga kinoyaviy-parodik shirali usulda singdirib yuborganligi yuqoridagi mulohazalarimizni to'laqonli dalolatlaydi.

Bob bo'yicha xulosa

Badiiylilik mezonlari har bir davrning ehtiyoji o'laroq o'zgarib, zamonaviylashib boradi. Buni biz olib borgan tadqiqotimiz davomida qissa janri

⁴ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б.137.

timsolida aniqlashga harakat qildik. Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib bob bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi:

1. Badiiylik modusi inson psixikasini qayta idroklashga keng imkon beradi. Jumladan, L.Bo'rixonning "Sirli muallim", "Quyosh hali botmagan", "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" qisslarida poetik talqin psixologik nuqtayi nazaridan teran idroklangan. Qissaning eng xarakterli jihatlaridan biri shundaki, badiiy xronotop shahar va qishloq orasida sarson-sargardon kezayotgan oddiy talabalar, odamlar, ovloq cho'l qo'ynida yashab umr kechirayotgan zamondoshlar obrazi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

2. "Quyosh hali botmagan" qissasida poetik talqin hissiy boshqaruvni qo'lga oladi. Ya'ni yozuvchi o'zining munosabatli nutqida jamiyatning ma'naviy immunitetni tiklashga qaratilgan siyosatini kinoyaviy-parodik usulda, zamonaviy ko'rinishga olib kelish muhimligini ifodalaydi. Qissa 2015-yil e'lon qilinganida adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi.

3. "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" qissasida badiiy xronotop shakllari Amira va G'anining tasodifan vafoti negizida ochiqqlanadi. Ikki jabrdiyda insonning qilmishlari o'zlari jarlik tomon kelib qolganligini to'laqonli dalolatlaydi. Natijada, insonning xohish va istaklari so'nmaganligidan, hayot haqiqatini to'g'ri anglaganligidan dalolat beradi. Bu obrazlar Latif va Roziyaxon bo'lib, qissa arxitektonikasida alohida o'rin tutadi.

4. "Bir tomchi yosh" qissasida yozuvchi insoniy tuyg'ular – iste'dodning hali so'nmaganligidan, inson hamisha o'z ustida diqqatli bo'lib ishlashi muhimligini taqozolaydi. Qissada xilma-xil uslublarning sintezi kuztilsa-da, yozuvchi barcha shakllarni kinoyaviy-parodik usulga uyg'unlashtiradi. Ayni shu jihatlar qissa badiiyatining o'ziga xosligini yuzaga chiqarishga imkon berganligida namoyon bo'ladi. Zotan, adib asarga o'z hayot yo'lini topolmagan qahramon qismati nigohi bilan teran nazar tashlaydi.

UMUMIY XULOSA

Hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizm: uslub va janr uyg'unligi borasida olib borgan tadqiqotimizda quyidagi xulosaga keldik:

1. Har qanday janrning kelib chiqishi, shakllanishi va o'z oldiga qo'ygan muammosi bo'ladi. Antik yunon eposlari, o'zbek folklor tabiatidagi voqelik negizida qissa janri yuzaga keldi. O'zbek adabiyotida qissa janrning haqiqiy taraqqiyot bosqichi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bir-biridan go'zal qissalar yaratgan A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov. O'.Hoshimovlarning badiiy izlanishlarida qissa janri anchayin taraqqiy topdi. Bu taraqqiyot belgilari har bir yozuvchi izlanishlarida uslub alohidaligini taqozo etdi. Shunday ekan, biz olib borgan tadqiqotimizning obyekti sifatida L.Bo'rixonning qator qissalari hozirgi o'zbek nasrida uslub va janr sintezini teran o'rganish imkonini bermoqda.

2. Joriy o'zbek qissachiligida realistik tasvir prinsiplari bilan qorishiq holda modernistik talqin o'ziga xosligi ham yuzaga chiqmoqda. L.Bo'rixonning badiiy izlanishlarida psixologik talqin ijtimoiy munosabatlar tig'izligini dalolatlaydi. Ayniqsa, kinoyaviy-parodik usul o'ziga xosligi janrning hali-hamon taraqqiy etayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, inson konsepsiyasi va obrazlar tizimi adib qissalarida poetik matrisa qiymatining murakkabligini dalolatlaydi.

3. Yozuvchi L.Bo'rixon "Sirli muallim" qissasida sobiq ittifoq davridan buyon ko'chib kelayotgan maktab ma'orif tizimidagi chalkashliklar, o'zboshimchalik va qarindosh-urug'chilik an'analarining saqlanib qolayotganini o'tkir kinoyaviy-parodik usul bilan keskin tanqidiy ruhda inkishof qiladi. Yozuvchi asar qahramoni Najot G'aybullatimsolida soxta shon-shuhrat evaziga boylik orttirish ilinjida saboq berayotgan o'qituvchilarni fosh qiladi. Aksincha, o'qituvchilar o'zlarining xatti-harakatlari bilan bir-birlarining sir-asrorlarini ochiq-oshkor namoyon qiladi.

4. "Quyosh hali botmagan" qissasida badiiy psixologizm va syujet qismlari kuchli drammatizm bilan uyg'unlashadi. Ayniqsa, ikkita qadrdon do'st Davronbek va Norsoatning o'zaro inoqligi, keyinchalik oralarida paydo bo'lgan nafrat devori

Tanzilaga bo‘lgan muhabbatning natijasida soviy boshlaydi. Yozuvchi har qanday yuksaklikka chinakam muhabbat bilan erishish mumkin degan konsepsiyani ilgari suradi.

5. Jamiyatning taraqqiyoti har qachon iste’dodli shaxslarning mavjudligi bilan o‘lchanadi. Yozuvchi ijtimoiy hayot sarhadlaridan xabar beruvchi “Bir tomchi yosh” qissasida Baxtiyor taqdirining ayanchli yo‘qotishlaridan hikoya qiladi. Shunday buyuk rassomning taqdiri qishloqdan chiqmasdan xazonga aylanadi. Aslida, uning tabiatidagi kuchli iste’dodni qo‘llab-quvvatlaydigan muhitning o‘zi yo‘qligi o‘quvchini qayg‘uga botiradi. Shunday ekan, yozuvchi jamiyatdagi ba’zi illatlarni keskin tanqidiy ruhda ifodalab, o‘zbek o‘quvchilariga ko‘zgu tutadi. O‘tmish va bugun bilan faxrlanib yashash ertangi kunga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishga hissa bo‘lib qo‘shilishi mumkin, lekin mavjud imkoniyatlardan vaqtida unumli foydalanib, izlanish olib borilmasa, ko‘zlangan natijaga erishish mushkulligi keskin qoralanadi.

6. “Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi” qissasida xiyonatning ko‘chasiga kirib qolgan G‘ani va Amiraning ayanchli qismati qalamga olinadi. Har ikkala oilali juftlikning alal-oqibatda umri fojeaviy yakun topadi. Bir-birining joniga qasd etishi jamiyatdagi kechirib bo‘lmas illat sifatida baholanadi. Ularning o‘tmishi va buguni faqat aysh-u ishratdan o‘zga narsa emasligini yozuvchi chuqur iztirob bilan ifodalaydi. Natijada Latif va Roziyaxon ikkalasi bir-birini tushunishib, hayot kechira boshlaydilar.

7. L.Bo‘rixon qissalaridagi uslubiy metamorfoza modifikatsion talqinni birlashtiradi, ayniqsa, har bir asarida yozuvchi o‘zbek xalqining ertangi kuniga ishonchi bo‘lishini, hali bu Vatan gullab-yashnab, o‘nglanib ketishini asosli yakunlaydi. Shuningdek, yozuvchining obraz yaratish mahorati esa, rus yozuvchisi I.Turgenev poetik izlanishlarini yodimizga soladi. Lekin, L.Bo‘rixon kulgi va yengil yumor qorqali o‘quvchilarning ham ruhiyatini yodimizga soladi. Demak, har bir yozuvchi o‘z individual uslubini takomillashtirishda ko‘proq G‘arb-u Sharq an‘analarini jiddiy o‘zlashtirmog‘i zarur deyishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. SIYOSIY ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom hamda shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.78.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. –360 b.

II. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

3. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiya, 2000 . – 630 b.
4. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog'i. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2007. – 278 b.
5. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash san'ati. – Toshkent: Noshir, 2008. – 255 b.
6. Анастасьев Н. Обновление традиции. – М.: Сов. писатель, 1984. – 349 с.
7. Андреев Л.Г. Современная литература Франции. 60-е годы. – М.: Изд-во МГУ, 1977. – 366 с.
8. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 149 б.
9. Баранов В.И, Бачаров А.Г, Суровцев Ю.И. Литературно- художественная критика. – М.: Высшая школа, 1982. – 206 с.
10. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560 b.
11. Боров Ю. Эстетика. Изд. 3. – М.: Политиздат. 1980. – 399 с.
12. Днепров В.Д. Черты романа XX века. – М.: -Л.: Сов. писатель, 1965. – 247 с.
13. Жўракулов У. Худудсиз жилва. –Тошкент: Фан, 2006. – 203 б.
14. Жўраев Т. Онг оқими модерн. – Фарғона, 2009. – 203 б.
15. Затонский Д.В. Наше время. – М.: Сов. писатель, 1979. – 430 с.
16. Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Фолио-Аст, 2000. – 255 с.
17. Зарубежная эстетика и теория литературы XIX- XX вв. Трактаты, статьи, эссе. – М.: Изд-во Московского университета, 1987. – 510 с.

18. Зинченко В.Г, Зусман В.Г, Кирнозе З.И. Методы изучения литературы. Системный подход. Учебное пособие. – М.: Фликто, Наука, 2002. – 200 с.
19. Ильин И. Постструктурализм. Деконструктивизм. Постмодернизм. – М., 1996.
20. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 546 б.
21. Yoqubov I. Badiiy-estetik soʻz sehri. –Toshkent: TVDPU. 2011. 654 b.
22. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2008. – 533 b.
23. Karimov H. Istiqlol davri nasri. – Toshkent: Zarqalam, 2007. – 96 b.
24. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. –Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 2016. –423 b.
25. Karimov H. Oʻzbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2008. – 122 b.
26. Керимов Д.А. Философское основани е политика правовых исследований. – М.: Мысль, 1988.
27. Кулакова И. С Философия и искусства модернизма. – М.: Изд-во Политиздат, 1980. – 271 с.
28. Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент: Нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 287 б.
29. Мирқосимова М., Рустамова М. Жанр ва маҳорат. – Тошкент: Миллий кутубхона, 2007. – 69 б.
30. Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 418 б.
31. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 109 б.
32. Норматов У. Тафаккур ёғдуси. – Тошкент: 2005. – 119 б.
33. Норматов У. Устоз ибрати. –Тошкент: Миллий кутубхона, 2007. – 126 б.
34. Норматов.У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 351 б.
35. Норматов У. Нафосат гурунглари. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – 385б.

36. Нурматов М. Танқид ва эстетика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 169 б.
37. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006. – 231 б.
38. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 334 б.
39. Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Mumtoz soz, 2009. – 286 б.
40. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: 2004. – 127 б.
41. Солижонов Й. Нутқ ва услуб. –Тошкент: Чўлпон нашриёти, 2002.
42. Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 228 б.
43. Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. –Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – 148 б.
44. Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. – Тошкент: “Адабиёт учкунлари”, 2018. – 108 б.
45. Тўраев Д. Ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. –166 б.
46. Умунов Ҳ. Таҳлил санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 143 б.
47. Умунов Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 252 б
48. Умунов Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004. 250 б.
49. Умунов Ҳ. Сайланма. –Тошкент: Фан, 2007. 1– жилд. –205 б.
50. Умунов Ҳ. Сайланма. // Адабий-танқидий тадқиқотлар. 2 – жилд. – Тошкент: Фан, 2007. – 206 б.
51. Умунов Ҳ. Сайланма. // Хотиралар, қатралар, сабоқлар, ҳажвлар. 3 – жилд . –Тошкент: Фан, 2007. – 204 б.
52. Умунов Ҳ.Сайланма. // Эҳтиёж тафти. 5 – жилд. – Самарқанд: 2011. – 214 б.
53. Урнов Д.М. Литературное произведение в оценке англо-американской “новой критики”. – М.: Наука, 1982. – 262 с.
54. Уэллик Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978. –325 с.

55. Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 122 б.
56. Фесенко Э.Я. Теория литературы. –Архангельск: Поморский государственный университет, 2001. – 304 с.
57. Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 382
58. Философский словарь. – М.: Политиздат, 1980. – 445 с.
59. Хализев В.Е. Теория литературы. Изд. 3. – М.: Высшая школа, 2002. – 437 с.
60. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 237 б.
61. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. –Тошкент: “Akademnashr”, 2016. 224 б.
62. Эпштейн М. Парадоксы новизны. –М.: Советский писатель, 1988. – 413 с.
63. Қуроноф Д. Чўлпон (ҳаёти ва ижодий мероси). –Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
64. Қуроноф Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент: Шарқ, 2004. –287 б.
65. Quronov D. Adabiy jarayonda “Mom sindromi”. –Toshkent: Akademnashr, 2010. –56 b.
66. Quronov D.Zavqimdan bir shingil. –Toshkent: Akademnashr, 2012. – 56 b.
67. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –Toshkent: Akademnashr, 2014. – 232 b.
68. Quronov D. Adabiy o‘ylar. –Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2016. –112 b.
69. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 222 b.
70. O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –Toshkent. “Turon iqbol”. 2011. –544 b.
71. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 198 b.
72. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b.
73. Yoqubov I. Badiiy estetik – so‘z sehri. –Toshkent TDPU. 2011 y. 560 b.

III. JURNAL VA GAZETALARDAGI MAQOLALAR

74. Дўстмуҳаммад Х. Концепцияни янгилаш учун... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1990. – 16 февраль.
75. Дўстмуҳаммад Х. Тавбадан тозаришгача... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1990. – 13 март.
76. Дўстмуҳаммад Х. Истиқлол ва адабиёт // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1993. – 6 август.
77. Жўрақулов У. Асл адабиётнинг нашъунамози // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2000. – 27 октябрь.
78. Каримов Н. Кечанинг кундузи борми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1994. – 28 октябрь.
79. Мўминов Б. Шухратнинг “Олтин зангламас” романида бош қаҳрамон эволюцияси // Илмий хабарнома. – АнДУ, 2018. №1.
80. Назаров Б. Замон ва адабиёт // Ўқитувчилар газетаси. – Тошкент, 1990. – 22,26,29 сентябрь ва 3, 6 октябрь.
81. Норматов У. Ҳақиқат тақозаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1995. – 17 февраль.
82. Норматов У. Умидбахш тамойиллар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2003. – №10-12. – Б. 181–189.
83. Норматов У. Ўтмишдан эртаклар ва абсурд // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2000. – 14 июль.
84. Норматов У., Болтабоев Ҳ. Янги назарий тамойиллар // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2008. № 3. – Б. 154-163
85. Норматов У., Очилов Э. Танқид, мунаққид ва ҳозирги адабий жараён // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – № 4. – Б. 35–44.
86. Норматов У. Адолатнинг йўллари машаққатли // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1997. – 14 ноябрь.
87. Тўраева Б. Бадиий замон концепциясининг ўзбек адабиётшунослигида ўрганилишига доир // Илмий хабарнома. – АнДУ, 2018. -№1.
88. Отабой А. Онг оқими // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1997. – № 4.

89. Раҳимова Г. Мунозара – уйғониш даракчиси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1989. – 29 декабрь.
90. Рўзимуҳаммад Б. Постмодернизмни нима деймиз? Ёхуд тақлидми таъсирланиш // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004. – №8.
91. Саримсоқов Б. Абсурд маънисизликдир // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2002. – №27.
92. Сабирдинов А. Изланишлар самараси. Ўзбек романи кеча ва бугун // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2005. – 28 январь.
93. Солижонов Й. Бадиий нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979. №2.
94. Солижонов Й. Ўзбек полифоник романлари// Ўзбек тили ва адабиёти. Илмий журнал. – Тошкент, 2002. №5.
95. Солижонов Й. Ўзбек насри: руҳий таҳлил ва талқин тажрибаси // Соғлом авлод учун. –Тошкент, 2002. №3.
96. Солижонов Й. Ҳозирги ўзбек насрида нутқ шакллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. №6.
97. Холмирзаев Ш. Жамиятнинг мақсади, яъни мафкура бобида ўйлар // Тафаккур. – Тошкент, 1999. – № 1-2.
- 98.Шарафиддинов О. Адабиёт яшаса, миллат яшар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1993. – № 9. – Б. 129–138.
- 99.Шарафиддинов О. Миллатни уйғотган адиб // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004. – 5 ноябрь.
100. Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2002. – 7 июнь.
101. Шарафиддинов О. “Кеча ва кундуз” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1990. – 16 февраль.
102. Қаршибоев М. Муҳит эркидаги тутқинлик // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1990. – №10. Б. 195-205
103. Қодиров П. Маънавият, модернизм ва абсурд // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004. – 26 март.

104. Қосимов Б. Сапёрлар кўчасидаги уй // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1988. – 6 август.
105. Қуронов Д. Яна кеча ва кундуз ҳақида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 5. – Б. 186–197.
106. Қуронов Д. “Кеча ва кундуз” таржима тажрибаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1995. – 9 март.
107. Қўчқор Р. Уч сароб // Ёшлик. – Тошкент, 1986. – № 6.
108. Қўчқор Р. Саробнинг пайдо бўлиши // Ёшлик. – Тошкент, 1991. – №9. Б. 66-75
109. Қўчқор Р. Қўш роман ва айрича қарашлар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1988. – № 3.
110. Янги аср авлоди // Шарқ юлдузи. Адабий суҳбатлар. №1-5 сонлар.

IV. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR

111. Бобониёзов А.Ю. А.Қодирий “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол.фанлари номзоди дисс. –Т.:ЎзФА ТАИ, 1995.
112. Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссаларида психологизм. Филол. фан. номз. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2012.
113. Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадий психологизм. Филол. фан. номз. Дисс. автореф. – Қарши, 2019.
114. Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол.фанлари номзоди дисс. -Т.: ЎзФА ТАИ, 2000.
115. Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2012.
116. Дўстмуҳаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадий тафаккурнинг янгиланиши. Филол.фанлари номзоди дисс. –Т.: ЎЗР ФА ТАИ, 1995.

117. Жабборова Д. Истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигида чўлпон шеърляти ва насрий асарлари талқини: Фил. фанлари бўйича (PhD) фил. фан. доктори диссертацияси автореферат. – Самарқанд, 2018.
118. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик: Филол. фанлари номзоди дисс. – Т.:ЎзФА ТАИ, 1994.
119. Имомова Г.М. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: Филол. фанлари номзоди дисс. –Т.:ЎзФА ТАИ, 1994.
120. Имомкаримова М. Ў.Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини: Филол. фанлари номзоди дисс. –Т.:ЎзФА ТАИ, 2004.
121. Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси: Филол. фанлари док. дисс. –Т.:ЎзФА ТАИ, 1994.
122. Каримов Н.Ф. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафқураси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.
123. Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (Қодирийшунослик асосида): Филол. фанлари д-ри ... дисс. –Тошкент, 2002.
124. Лутфиддинова Ҳ. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи: Филол. фанлари номзоди дисс. автореферати –Т.:ЎзФА ТАИ, 1994.
125. Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари: Фил. фанлари номзоди дисс.-Т.:ЎзФА ТАИ, 1991.
126. Насиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. Филол.фанлари доктори (DCs) дисс.автореферати. –Т.: ЎзТА ва ФИ, 2018.
127. Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. Филол. фан. док. дисс. ...автореф.– Тошкент, 2003.
128. Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар (О.Мухтор, Х.Дўстмуҳаммад, У.Ҳамдам, Т.Рустам романлари мисолида). Фил.фанлари номзоди дисс. –Т.: ЎзФА ТАИ, 2005.
129. Раҳимов З. О.Ёқубовнинг “Кўҳна дунё” романи поэтикаси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

130. Расулов А. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002.
131. Содиқов С. Абдулла Қаҳҳор ижоди ва адабий танқид: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 1997.
132. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: Филолол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент, 2002.
133. Тожибоев Р.Қ. XX аср бошлари ўзбек адабиёти танқиди тарихидан: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1993.
134. Ташпулатов Г. Нравственные искания в современной узбекской повести. Фил. фанлари номзоди дисс. – Т.: УзФА ТАИ, 1993.
135. Тошпулатова Д. Замонавий ўзбек насрида муаллиф онги ва униифодалаш шакллари. Филол. фан. номз. Дисс. автореф. – Жиззах, 2021.
136. Курбонов Т. О. Ёкубовнинг портрет яратиш маҳорати: Филол. фанлари номзоди дисс. – Т.: ЎзФА ТАИ, 1997.
137. Куронов Д. Чўлпон поэтикаси (Насрий асарлари мисолида): Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998.
138. Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000.
139. Холдаров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуб муаммоси: Фал. фанлари бўйича фил.. фан.. доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т. Алишер Навоий номидаги ТДЎТ ва АУ, 2017.
140. Холиков Б. “Детектив романларда воқеликнинг бадиий талқинини тизимли моделлаштириш (Марио Пьюзонинг “Чўқинтирган ота” (“The Godfather”) ва Тоҳир Маликнинг “Шайтанат” асарлари мисолида): Фал. фанлари бўйича (PhD) фил.. фан. доктори диссертацияси автореферат. – Тошкент, 2018.
141. Якубов И. Мустақиллик даври романлари поэтикаси. Филол. фанлари доктори (DSc) дисс. автореферати. – Т. ЎзТА ва ФИ, 2018.

IV. BADIY ADABIYOTLAR

142. Франц Кафка. Жараён. –Т., Шарқ. 2015. –Б.416
143. Назар Эшонқул. Гўрўғли. –Т., Ғ.Ғулом номидаги наўриёт ижодий уйи. 2018. –Б.304.
144. Лукмон Бўрихон. Титраётган тоғ. –Т: Т., Ғ.Ғулом номидаги наўриёт ижодий уйи. 2018. –Б.290.
145. Лукмон Бўрихон. Жазирамадаги одамлар. Т., Ғ.Ғулом номидаги наўриёт ижодий уйи. 2018. –Б.350.
146. Лукмон Бўрихон. Қуёш ҳали ботмаган. –Т: Ўзбекистон. 2016. –Б.380

V. INTERNET MANZILLARI

147. <http://www.sharqyulduzi.uz>
148. <http://www.ulugbekhamdam.uz>
149. <http://www.quronov.narod.ru>
150. <http://www.ziyonet.uz>
151. <http://www.ziyouz.com>
152. <http://www.ijod.uz>
153. <http://www.saviya.uz>